

AGZAMXODJAEV T.S., XAYDAROV M.B., ISMAILOVA M.U.,
TOLIPOV M.G., BABANIYAZOV K.K.



KLINIK LABORATOR TASHXISLASH VA TEKSHIRUV USULLARI



656-071

Cači

X-50

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AGZAMXODJAEV T.S., XAYDAROV M.B., ISMAILOVA M.U.,
TOLIPOV M.G., BABANIYAZOV K.K.

656-071

**"KLINIK LABORATOR TASHXISLASH
VA TEKSHIRUV USULLARI "**

O'quv qo'llanmasi

Bilim soxasi – Ijtimoiy ta'minot va
sog'liqni saqlash – 500000

Ta'lim soxasi – Sog'liqni saqlash – 510000

Bakalavriat yo'nalishi – pediatriya ishi -5510200

TOSHKENT-2018
«NAVRO'Z» NASHRIYOTI



KBK 67.3.12

M 71

UO'K: 42(12+22)

**Agzamxodjaev T.S., Xaydarov M.B., Ismailova M.U.,
Tolipov M.G., Babaniyazov K.K.**

“Klinik laborator tashxislash va tekshiruv usullari”

– Toshkent.: «Navro‘z» nashriyoti 2018. 112 b.

O‘quv qo‘llanma DTS asosida bakalavriat yo‘nalishi Pediatriya
ishi-5510200. Laboratoriya ishi fanidan o‘quv reja va dastur bo‘yicha
ishlab chiqilgan.

Taqrizchilar:

**– Yuldashev N.A. t.f.d. professor, TashPMI
Bioorganik kimyo kafedrasi mudiri.**

**– Sharipova M.K. t.f.d. professor,
Respublika Skrining markazi direktori.**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus Ta’lim Vazirligining
2017 yil 28 iyun “434” sonli buyrug‘iga asosan nashr qilishga ruxsat
berildi.*

KIRISH

Laborator tashxislash – bemorni klinik tekshirishni ajralmas qismi xisoblanadi. Laborator taxlillarsiz klinik tashxis qo‘yib bo‘lmaydi.

Shu bilan birgalikda, shifokor-klinitsistlar oldida bugungi kunda yana bir muxim muammo klinik-laborator ko‘rsatkichlarni dori vositalari ta’sirida o‘zgarishi turibdi. Buning oqibati yetarli darajada muxim, klinik-laborator tekshiruv natijalarini noto‘g‘ri taxlil qilish, noto‘g‘ri tashxis qo‘yilishiga va noratsional muolaja tayinlanishiga olib keladi. Ko‘pgina shifokorlar klinik-laborator ko‘rsatkichlarni dori vositalari ta’sirida o‘zgarishi xaqida yetarli ma'lumotga egaa emas, garchi bu ularning amaliyati uchun juda muxim.

Bo‘lajak shifokor bemorning axvoliga, kasallik patogenezini bilgan xolda ob‘ektiv baxo berishi uchun, kimyo va fiziologiyani mukammal bilishi kerak. Talaba faqatgina, xayot faoliyati asosida yotuvchi asosiy metabolik jarayonlarni emas, balki patologik xolatlardagi bioximik aspektlarni xam bilishi zarur.Xamma joyda qo‘llaniladigan normal ko‘rsatkichlar,xamma yoshdagilar, ya’ni chaqololoqlar, bolalar, kattalar va keksa yoshdagilaruchun aloxida ko‘rsatilgan (Mosbi, 2013.).

Zamonaviy patologik biokimyodan olgan bilimlarni qo‘llash, shifokorlarga u yoki bu kasallik rivojlanishida sabab-oqibatlar bog‘liqligini aniqlashga, hamda labarator tashxislash va davolash tadbirlarini samaradorligini baxolashni rivojlantirishga yordam beradi.

QONNI LABORATOR VA INSTRUMENTAL TEKSHIRUV USULLARI

Qonning umumiy tavsifi

Qon (sanguis) biriktiruvchi to‘qimaning ko‘rinishidan biri bo‘lib, plazma va shaklli elementlardan tashkil topgan. Organizmning turli a‘zo va sistemalarining o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Qonning shaklli elementlariga eritrotsitlar, leykotsitlar va trombotsitlar kiradi.

Shaklli elementlar qon umumiy xajmining 45 % ini, plazma esa 55% ini tashkil etadi. Qon sistemasiga shaklli elementlar va plazmadan tashqari limfa, qon yaratish va immunopoez a‘zolar kiradi (qizil suyak ko‘migi, timus, taloq, limfatik tugunlar, limfoid to‘qima to‘planishi).

Qon sistemasida barcha elementlar gistogenetik va funksional o‘zaro bog‘langan va neyrogumoral boshqarilish umumiy qonunlariga bo‘ysunadi. O‘rtacha qon inson tana vaznining 6–8 % ini tashkil etadi; 70 kg vaznli odamda qon xajmi 5 litrga yaqin.

Qon organizmdagi eng xarakatchan muxit bo‘lib, turli ahamiyatsiz fiziologik va patologik siljishlarga tez javob beradi. Qon tarkibi o‘zgarishi dinamikasini baxolab, klinitsist, turli a‘zo va to‘qimalarda kechayotgan jarayonlarni bilishga xarakat qiladi.

Ko‘p xollarda qonni morfologik va bioximik tekshiruv natijalarisiz, kasallikka erta va to‘g‘ri tashxis qo‘yish, maqsadga yo‘naltirib davolash, kasallik oqibatini to‘g‘ri taxmin qilishni iloji yo‘q. Bunda takroriy tekshiruvlar katta axamiyatga ega, chunki gematologik siljish dinamikasi patologik jarayon dinamikasini aks ettiradi.

Qon yaratish xaqida tushuncha

Barcha qon xujayralari umumiy polipotent o‘zak xujayradan rivojlanadi. Turli qon xujayralariga aylanishi esa, qon yaratish a‘zolarining retikulyar to‘qimasi va maxsus gemopoetinlar ta’sirida amalga oshadi.

Xujayralar parchalanishi va yangidan xosil bo‘lish jarayonlari o‘zaro muvozanatlashgan, shuning uchun qonning tarkibi va miqdori doimiy bir xilda ushlab turiladi. Gemopoez va immunopoez a‘zolari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, qon xujayralarining migratsiya, sirkulyasiya va retsirkulyasiysi yo‘li bilan, qon yaratish va taqsimlanishining neyrogumoral boshqarilishi bilan amalga oshiriladi.

Birinchi sinf polipotent xujayra-o'tmishdoshlari o'zak qon yaratish xujayrasi xisoblanadi.

Morfologik belgilariga ko'ra bu xujayralar limfotsitlarni eslatadi: xujayraning o'rtacha diametri – 8–10 mkm, shakli yumaloq yoki noto'g'ri. Yadrosi och-qizil, ko'pincha gomogen, yumaloq yoki buyraksimon shaklda. Yadrosida 1-2 ta yirik yadrochalar bor. Sitoplaszmasi ingichka xoshiya ko'rinishida, och xavorang, donador emas. Bu xujayralar qon yaratilishining barcha qatori bo'yicha tez proliferatsiya va differensiyalash xususiyatiga ega.

Ikkinci sinf qisman determinirlangan polipotent xujayra-o'tmishdoshlari, limfopoez va gemopoez o'tmishdoshlari xisoblanadi. Bu xujayralar suyak ko'migida joylashgan. Ularning o'z-o'zini qo'llash xususiyati cheklangan.

Uchinchi sinf unipotent xujayra-o'tmishdoshlari, koloniya xosil qiluvchi xujayra kulturalari (granulotsitlar va monotsitlar o'tmishdoshi), eritropoetinga sezgir xujayralar, V-limfotsit va T-limfotsitlar xujayra-o'tmishdoshlari, trombotsitlar xujayra-o'tmishdoshlari.

Morfologik jixatdan poetinga sezgir xujayralar o'zak xujayralardan farq qilmaydi, xuddi yirik va o'rtalama limfotsitlarga o'xshaydi. Agar o'zak xujayralarning faqatgina 10–20 % i mitotik siklda qatnashib, qolganlari tinch tursa, xujayra-o'tmishdoshlari orasida prolifereratsiyalovchi 60–100 % qismini tashkil etadi.

To'rtinchi sinf morfologik aniqlaniladigan prolifere-ratsiyalovchi xujayralar. Xar bir qon yaratish qatorining blast xujayralarnini tutadi (limfoblastlar, plazmoblastlar, monoblastlar, mieloblastlar, eritroblastlar va megakarioblastlar).

Beshinchi sinf – yetilayotgan xujayralar. Oltinchi sinf – xayot sikli cheklangan yetilgan xujayralar.

Odatda normada periferik qonda asosan oltinchi sinf xujayralari bo'ladi, qonda xujayra turiga qarab bir necha soatdan, bir necha oygacha saqlanadi.

Embrional gemopoez embrionda avval sariqlik qopi devorida, keyin jigarda, suyak ko'migida va limfold a'zolar (timus, taloq, limfatik tugunlar) da kechadi. Postembrional gemopoez maxsus gemopoetik to'qima – mieloid to'qimada: eritrotsitlar, granulotsitlar, trombotsitlar, monotsitlar va limfotsit o'tmishdoshlari xosil bo'ladi, va limfold

to‘qimada: T- va V-limfotsitlar va plazmotsitlar differensirlanadi ko‘payadi va kechadi.

Mielopoez naysimon suyaklar (son va yelka) epifizida va ko‘plab g‘ovaksimon suyak bo‘shliqlarida (umurtqalar, qovurg‘alar, chanoq suyagi, yonoq) joylashgan mieloid to‘qimada amalga oshadi. Qon yaratish o‘choqlari katta odamda 206 ta skelet suyagida mavjud.

Limfopoez timus, taloq, limfatik tugunlardagi limfold to‘qimalarda kechadi.

Suyak ko‘migidagi xujayra-o‘tmishdoshlarining, periferik qondagi yetilgan xujayralarga nisbati butun umr davomida saqlanib qoladi.

Qizil suyak ko‘migi umumiyligi suyak ko‘migi substansiyasining 50% iga teng va 1400 gr ni tashkil etadi, ya‘ni jigar og‘irligi bilan teng. Qonning xujayraviy tarkibini kerakli miqdorda ushlab turish uchun, katta yoshli 70 kg vaznli odamda xar kuni 2×10^{12} eritrotsit, 45×10^9 neytrofil, 10^9 monotsit va 175×10^9 trombotsit ishlab chiqarilishi kerak. Suyak ko‘migida o‘zak xujayradan yetilgan xujayra xosil bo‘lishi uchun ketgan vaqt eritroid qatorda 12 sutkani, granulotsitar qatorda esa 13–14 sutkani tashkil etadi.

Suyak ko‘migida xosil bo‘lgan xujayralar, yetilgandan so‘ng bir xilda qon oqimiga tushadi, sirkulyasiya vaqtি xar bir xujayra tipida xuddi shunday doimiy: eritrotsitlar 120 sutka, trombotsitlar – 10 sutka, retikulotsitlar – 24–27 saat, neytrofillar – 30 min dan 2 sutkagacha, limfotsitlar esa – o‘rtacha 2–3 xtaftadan 100–200 kungacha, immunologik xotira xujayralari – 20 yilgacha .

Normal xolatda suyak ko‘migida xosil bo‘layotgan qon, organizm extiyojlarini qondirishdan tashqari, xujayralar zaxirasini tayyorlab qo‘yadi: suyak ko‘migida yetilgan neytrofillar miqdori, qon oqimidagiga nisbatan 10 marta ko‘p. Retikulotsitlarning xam, suyak ko‘migida 3 kunlik zaxirasi bor.

Leykotsitlar, eritrotsitlar va gemoglobinning o‘rtacha normal miqdori xar xil mualliflar bo‘yicha, oxirgi yuz yilda ahamiyatli o‘zgarmagan. Xulosa qilish mumkinki, ilmiy-texnik jarayonlari bilan, inson yashash muxiti o‘zgartirilgan bo‘lsa-da, qon yaralishi turg‘unligicha qolgan.

Qonni morfologik tekshirish

Bemorni umumiy tekshirganda odatda umumiy qon taxlili tekshiruvi qo'llaniladi. Bu taxlil orgali qon shaklli elementlarining miqdorini va sifat qo'rsatkichi o'rganiladi:

- gemoglobin miqdorini aniqlash;
- eritrotsitlar sonini aniqlash;
- rang ko'rsatkichini xisoblash;
- leykotsitlarning soni va aloxida shakllarining nisbati;
- eritrotsitlar cho'kish tezligini aniqlash (EChT).

Ba'zi bemorlarda kasallik xarakteriga qarab qo'shimcha tekshiruvlar: retikulotsitlar, trombotsitlarni xisoblash, qon ivish vaqtini aniqlash.

Klinik taxlil uchun periferik qon olinadi. Qonni iloji boricha ertalab ovqatdan oldin olish zarur, chunki ovqat, dori preparatlarini qabul qilish, vena ichiga in'eksiya, temperatura reaksiyalari va boshqa faktorlar qon taxlilida turli morfologik va bioximik o'zgarishlarga olib keladi.

Qon olish texnikasi

- qonni maxsus rezinkali qo'lqoplarda, aseptika qoidalarga rioya qilib olish kerak;
- qon chap qo'lning 4-barmoq oxirgi falangasidan olinadi (ayrim xollarda, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va emizikli bolalarda qulqoq yumshog'idan yoki tovondan olish);
 - igna bilan teshishidan oldin o'sha soxa 70° spirtda xo'llangan paxtali tampon bilan artiladi; teri qurishi kerak. Bo'lmasa qon yoyilib ketishi mumkin;
 - terini teshish uchun bir martalik steril igna-skarifikator dan foydalilaniladi;
 - barmoqni yon yuzasidan, 2-3 mm chuqurlikda teshish kerak, chunki yon yuzada kapillyar to'r ko'p joylashgan; barmoqning daktiloskopik chiziqlariga ko'ndalang teshilsa, qon oson va ko'p miqdorda keladi;
 - birinchi qon tomchisi artib tashlanadi, chunki unda katta miqdorda to'qima suyuqligi bor; qon xar safar olinganidan so'ng qoldiqlar artib tashlanadi, keyingi qon yangi tomchidan olinadi.

- qon olib bo'lgandan so'ng jaroxatlangan joyga, 70° li spirt bilan xo'llangan spirtda steril tampon qo'yiladi;

Gemoglobin (haemoglobinum)

erkaklarda – 130–160 g/l

ayollarda – 120–140 g/l

Gemoglobinni tekshirish eng muxim va asosiy laborator tekshiruvlardan biri xisoblanadi. Eritrotsitlar soni bilan birga aniqlanganda, anemik xolatlarni baxolashda muxim laborator q'rsatkich xisoblanadi.

Gemoglobin – xromoproteidlarga kirib, qonning asosiy nafas oqsili xisoblanadi. Oqsilli (globin) va oqsilsiz (gem) qismlardan tashkil topgan. To'rttalik oqsil bo'lib, to'rtta subbirlikdan tashkil topgan, ularning xar biri gem bilan bog'langan polipeptid zanjirni xosil qiladi. Polipeptid zanjirlar juftli bir xil: 4 molekula gem bilan bog'langan, 2 ta α globin tipli zanjir va 2 ta boshqa tipli (β , γ i δ) zanjir. Gem – temir atomi bilan bog'langan, protoporfirin IX molekulasi. Xar bir gemoglobin tetrameri 4 tagacha kislorod molekulasini qayta bog'lashi va transportirovka qilishi mumkin. 65 % gemoglobin, eritrotsitning yadro saqlovchi yetilish bosqichida, 35 % esa – retikulotsit bosqichida xosil bo'ladi. yetilgan normotsit bosqichida gemoglobin sintezi to'xtaydi.

Xozirgi kunda gemoglobinning 3 ta asosiy turi ma'lum: Hb A, Hb F va Hb A2. Asosiy turi A bo'lib, normada umumiy gemoglobinning 96–98 % ini tashkil etadi, Hb A2 esa atigi 2–3 % ni tashkil etadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqda asosiy o'rinni egallovchi fetal gemoglobin (Hb F), katta odam qonida 1–1,5 %ni tashkil etadi.

Gemoglobinni miqdoriy aniqlash

Gemoglobinni miqdoriy aniqlashni 3 ta asosiy guruxi mavjud:

- kalorimetrik;
- gazometrik;
- gemoglobin molekulasida temir saqlashiga qarab.

Ilgari Sali usuli bilan tanish, kalorimetrik gemitinli usul keng qo'llangan, bu juda yengil va qulay, lekin noaniq usul xisoblanadi.

Xozirda asosan siangemoglobin usul keng qo'llaniladi, bu usul aniq va texnik jixatdan oson usul.

Gazometrik usul va temirni aniqlashga asoslangan usullar aniq, lekin ko'p vaqt talab etadi, shuning uchun xozirda kam qo'llaniladi.

Qonda gemoglobinni siangemoglobin usul bilan aniqlash. Klinik labaratoriyalarda keng qo'llaniladigan, gemoglobinni universal aniqlash usuli.

1. Usul prinsiplari.

Gemoglobin temirsinerodit kaliy bilan ta'sirlashib, metgemoglobinga oksidlanadi, xosil bo'lgani atsetonsiangidrin bilan, gemoglobinsianidga bo'yaladi, bo'yalish intensivligi gemoglabin tarkibiga proporsional.

2. Reaktivlar:

a) atsetonsiangidrin saqlovchi transformirlovchi eritma (0,5ml), kaliy temirsinerodit (200 mg), natriy bikarbonat (1 g), distillirlangan suv (1000 ml gacha). Loyqalanish paydo bo'lsa, eritma ishlatishga yaroqli emas; b) gemoglobinsianidning standart eritmasi – 5 ml. Gemoglobinsianid konsentratsiyasi – 150 g/l.

3. Transformirlovchi eritmani tayyorlash.

O'lchovli kolbaga 1000 ml ga, taxminan 500 ml distillangan suv qo'shish, reaktiv aralashmalar va 1 ampula atsetonsiangidrin qo'shiladi, aralashtiriladi va belgigicha distillangan suv quyiladi, aralashtiriladi va saqlash uchun boshqa idishga quyib qo'yiladi. Salqin, qorong'i joyda saqlaniladi.

4. Aniqlash yo'llari.

20 mkl qon 5 ml transformirlovchi eritmaga quyiladi, yaxshilab aralashtiriladi, 20 minutga qoldirilib, so'ngra fotoelektrokolorimetrda 500–560 nm (yashil yorug'filtr) to'lqin uzunligida, 1 sm qalinlikdagi transformirlovchi eritmaga yoki distillirlangan suvga qarshi kyuvetda o'lchanadi. Natijalar g/l da ifodalanadi.

Qondagi gemoglobin miqdorini kalorimetrik usulda aniqlash

Qondagi gemoglobinni taxminiy aniqlash uchun ba'zan Sali gemometridan foydalaniladi. Usul tekshiriluvchi eritma bo'yalish intensiv gematinga aylanadi. Xosil bo'lgan eritma kolorimetlanadi:

- graduirlangan pipetkaning pastki dumaloq belgisigacha, xlorid kislotaning detsinormal eritmasi quyiladi;
- so'ngra probirkaga kapillyar pipetka yordamida, 20 mkl barmoqdan olingan tekshirilayotgan qon quyiladi;

- xlорид кислота билан qон, probirkani pastki qismiga yengil urilib, yaxshilab aralashtiriladi. Qон rangining o'zgarishi 5 daqqa davomida kuzatiladi;
- vaqt tugaganidan keyin suyuqlik, intensivligi standart eritma bo'yalish intensivligi bilan bir xil bo'lguncha astalik bilan aralashtiriladi;
- eritmaning pastki meninsk satxidagi shkala raqami gemoglobinning grammfoiz (g%), gramm litrdagi (g/l) konsentratsiyasini ko'rsatadi.

Gemoglobinning normadagi miqdoriy tarkibi:

- yangi tug'ilgan chaqaloqda – 136–196 g/l;
- uch oylikda – 105–125 g/l;
- 1 yoshli bolada – 110–130 g/l;
- 10 yoshli bolada – 115–148 g/l
- erkaklarda – 130–160 g/l;
- ayollarda – 120–140 g/l.

Qonda gemoglobinning konsentratsiyasini kamayishi oligoxromemiya (yoki gemoglobinopeniya) deyiladi.

Quyidagi xolatlarda kuzatiladi:

- anemiyalarda (temir yetishmovchilik, gemolitik, gipoplastik, V12-tanqislik);
- o'tkir qon yo'qotishlarda (birinchi sutkasida qon quyuqlashishi xisobiga, gemoglobin konsentratsiyasi chin anemiya sur'atiga mos kelmaydi);
 - yashirin qon ketishlarda;
 - xavfli o'smalar va ularning metastazlari;
 - suyak ko'migi, buyrak va ba'zi boshqa a'zolar zararlanishida;
 - aplastik anemiya chaqiruvchi (o'smaga qarshi, talvasaga qarshi, og'ir metallar, ba'zi antibiotiklar, analgetiklar) yoki gemoliz yuzaga keltiruvchi ba'zi dori vositalari (penitsillin, levomitsetin, sulfanilamidlar).

Giperxromemiya – kam uchraydi va katta klinik axamiyatga ega emas. Kuzatiladi:

- birlamchi va ikkilamchi eritrotsitozlarda;

- degidratatsiyada nisbiy eritrotsitozlarda (yurak dekompensatsiyasi va x.k.).

Zamonaviy miqyosda tashxislash usullari yetarli darajada rivojlanmagan, gemoglobinning umumiyligi miqdorini aniqlash bilan cheklangan, lekin ba'zi xolatlarda sifatiy tarkibi xam xal qiluvchi, diagnostik axamiyatga ega bo'ladi.

Gemoglobin qonda bir nechta xosilalar ko'rinishida sirkulyasiya qiladi. Kislorodni birikishi (temir gemga) oksigemoglobin (HbO_2) xosil bo'lishiga olib keladi. Kislorodni to'qimalarga yetkazib, oksigemoglobin qaytarilgan shaklga aylanadi ($HbO_2 \leftrightarrow Nb$). Karbonat angidridini to'qimalardan yo'qotilishi, uni globinni erkin amin guruxlariga birikishi orqali amalga oshadi, bunda karbaminogemoglobin (karbgemoglobin) xosil bo'ladi. Uglerod oksidi (SO) temir gemga birikadi, natijada turg'un un birikma karboksigemoglobin xosil bo'ladi. Uglerod oksidi almashinuv maxsuloti bo'lib, endogen, gemning parchalanishidan xosil bo'ladi.

Karboksigemoglobinning bo'lishi, birinchi navbatda gemoliz ko'rsatkichi bo'lib xisoblanadi. Gem temiri ikki valentli shaklda bo'ladi. Oksidlanganda ($Fe^{++} \leftrightarrow Fe^{+++}$) metgemoglobin xosil bo'ladi. Gem temiri oksidlovchilari metabolizmning turli maxsulotlari – kislorodning faol shakllarida, fermentlar, aldegidlar va x.k. Normada bir sutkada 2,5 % metgemoglobin xosil bo'ladi, qonda 1,5 % ini aniqlash mumkin.

Metgemoglobin reduktazali tizim metgemoglobinni qaytarib, uni qaytalangan shaklga o'tkazadi va yana kislorod transportirovka qilish xususiyatiga ega bo'ladi. Ekzogen metgemoglobin xosil qiluvchilarga keragidan ortiq suv, ovqat, dori vositalaridagi nitritlar, nitratlar kiradi. Gemoglobin turli sulfoxosilalar bilan kompleksga birikib, sulfmetgemoglobin xosil qiladi.

Sog'lom odamlarda qonda gemoglobinning bu xosilasi aniqlanmaydi. Uning aniqlanishi sulfoxosilalarning suvda, ovqat, xavoda yuqoriligidan dalolat beradi. Shuning uchun sulfmetgemoglobin ekologik muxitning markeri xisoblanadi.

Glikozilirlangan gemoglobinni aniqlanishi xam diagnostik axamiyatga ega, gemoglobinni turli uglevodorodlar bilan birikishidan xosil bo'ladi. Umumiyligi glikozilirlangan gemoglobinning 95 % ni, gemoglobin va glyukoza kompleksidan xosil bo'lgan gemoglobin A1 ga to'g'ri keladi.

Gemoglobin xosilalarining differensiatsiyasi spektroskopik apparat yordamida amalga oshiriladi. Gemoglobin turlari faqat tashxis qo'yish uchungina emas, balki anemiya patogenezi xaqida ham ma'lumot beradi.

Gemoglobinning patologik turlari tomonidan chaqirilgan anemiyalar, gemoglobinopatiyalar deyiladi. Xozirgi kunda 600 dan ortiq anomal gemoglobinlar topilgan. Gemoglobinopatiya M, S, D, «Volga», «Xelsinkalar» va x k turlari ma'lum. Ular sifatli va miqdoriy bo'lishi mumkin.

Sifatlilari aminokislotalar almashishi natijasida paydo bo'ladi. Miqdoriylari gemoglobinopatiyalar esa polipeptid zanjirlarning sintezi tezligi o'zgarishi bilan bog'liq.

Eritrotsitlar (*erythrocytus*)

erkaklar – $4,0\text{--}5,0 \times 10^{12}/\text{l}$

ayollar – $3,7\text{--}4,7 \times 10^{12}/\text{l}$

Gemoglobinni aniqlash bilan birga, qizil qon tanachalari (eritrotsitlar)ni xisoblash, anemik xolatlarni baxolashda muxim ahamiyat kasb etadi.

Eritrotsitlar morfologiyasi

Eritrotsit diametri 6–8 mkm, yumaloq yoki oval shakldagi, 2 tomonlama bukilgan xujayra – diskotsit – bo'lib, Romanovskiy usuli bilan bo'ylganda pushti rangga bo'yaladi. Eritrotsitlar xajmi – 90 mkm³, yuzasi -140 mkm², qalinligi -2,4 mkm (minimal - 1 mkm)

Eritrotsit plazmolemma va stromadan iborat. Plazmolemma qator dori moddalarga, asosan gazlarga nisbatan tanlab o'tkazuvchan, bundan tashqari turli xil antigenlar tutadi. Stromada xam qon antigenlari mavjud, bu ma'lum darajada qon guruxini belgilaydi. Bundan tashqari, eritrotsitlar stromasida kislorodning birikishini va to'qimalarga yetkazilishini ta'minlovchi nafas pigmenti gemoglobin joylashgan. Eitrotsitlarning quruq qismi 95 % ga yaqin gemoglobindan va atigi 5 % boshqa moddalardan iborat, ya'ni nogemoglobin oqsil va lipidlar.

Eritrotsitlar organizmning kislota-ishqor muvozanatini boshqarishda, antitela va toksinlar adsorbsiyasida, qon ivish jarayonlarida, hamda qator fermentativ jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Eritrotsitlarni sifatiy aniqlash

Eritrotsitlar miqdorini xisoblashning quyidagi usullari mavjud: Eritrotsitlarni xisoblashni kamerali usuli. Qon xujayralarini xisoblash

uchun ko'plab kameralar taklif qilinagan(Byurkera, Goryaeva, Toma, Predtechenskogo, Neybauera kameralari va x.k.). Ish sharoitida ko'proq, Goryaev setkasi qo'llaniladi;

- fotometrik usullar (asboblar yordamida: eritrogemometr va elektrofotokolorimetri). Bu asboblarning ishlash prinsipi eritrotsitlar sonini, eritrotsitlardan fotoelement yordamida o'tgan yorug'likni xisoblashga asoslangan;

- xisoblashning elektron-avtomatik usullari. Ishlash prinsipi tor kapillyarlardan elektrik zanjir qarshiligi o'tganda, qon xujayralarining o'zgarishiga asoslangan. Bu elektromagnit xisoblagich yordamida qayd qilinadi.

Xar bir xujayra ossiloskopik ekranda qo'rindi va avtomatik xisoblagich yordamida registratsiya qilinadi.

Klinikada asosan eritrotsitlarni kamerali va fotometrik usul yordamida xisoblash qo'llaniladi.

Eritrotsitlarni Goryaev kamerasi yordamida xisoblash

Goryaev xisoblash kamerasi 225 ta katta kvadratlardan tashkil topgan. Bu kvadratlarning bir qismi 16 ta kichik kvadratlarga ajratilgan. Kichik kvadratlar tomon $1/20$ mm ga teng, yuzasi – $1/400$ mm², kamera balandligi – $1/10$ mm, shuning uchun bu kvadrat ustidagi maydon xajmi – $1/4000$ mm³.

Xozirgi kunda shaklli elementlarni xisoblash uchun yanada yengilroq, oddiy, qon olishning probirka usuli keng tarqalgan:

- toza quruq probirkalarga oldindan eritrotsitlarni ajratuvchi suyuqlik – 4 ml 2% li natriya xlор eritmasi quyiladi;
- qon Sali gemometrining kapillyar pipetkasiga, 20 mklidan sal yuqoriroq belgigacha olinadi, keyin, kapillyar uchi quruq paxta bilan artilib, belgigacha olib boriladi;
- qonni puflab probirka tubiga tushiriladi; pipetkani suyuqlikning yuqori qatlamida yaxshilab yuviladi. Probirkadagi aralashma aralashtiriladi. 20 mkl qonga 4 ml NaCl eritmasi qo'shilganda, 200 marta aralashtiriladi, bu eritrotsitlarni xisoblash uchun muhim;
- endi eritrotsitlarni xisoblash Goryaevning xisoblash kamerasida olib boriladi. Toza va quruq qoplagich oynani, kameraga, ular tegishgan joyda rang-barang xalqlalar xosil bo'ladigan qilib joylashtiriladi;

- kamerani to'ldirishdan oldin probirkadagi aralashma bir necha martta aralashtiriladi, keyin yumaloq shisha tayoqcha oxiri bilan, probirkani egiltirib, qon tomchisi olinadi va kameraning silliqlangan oynasi chetiga qo'yiladi. Agar kamerani to'liq to'lishi uchun bir tomchi qon kamlik qilsa, boshqa tomchi bilan to'ldiriladi;
- kamera to'ldirilgandan so'ng shaklli elementlar cho'kishi uchun 1–2 minut ga qoldiriladi, keyin mikroskop ostiga qo'yiladi;
- shaklli elementlar mikroskopni kichik kattalashtirgichida xisoblanadi
- eritrotsitlar 80 ta kichik kvadratlarda xisoblanadi, bu diagonal joylashgan 5 ta katta kvadratga to'g'ri keladi.
- Qoida bo'yicha, kichik kvadrat ichidagi, uning yuqori va chap chegaralarida yotuvchi eritrotsitlar xisoblashga yaroqli xisoblanadi.

Eritrotsitlar sonini 80 ta kichik kvadratlarda sanab, formula bo'yicha 1 mm^3 qondagi va 1 litr qondagi eritrotsitlar xisoblanadi.

Eritrotsitlar sonini fotometrik usulda xisoblash

- gemometr Sali kapillyar pipetkasiga olingan 20 mkl qonga, 9 ml 3% li NaCl eritmasi qo'shiladi;
- aralashtiriladi va 3 mm qalinlikdagi kyuvetga quyiladi;
- o'lchanadi kyuvetdagi quyun xarakatlari to'xtaganidan so'ng, eritrotsitlar cho'kishi boshlanmasdan, kyuvet to'lganidan 50–60 sek keyin boshlanadi;
- to'lqin uzunligi 750 nm da, ekstinksion koeffitsient (ye) o'lchanadi, nazorat sifatida 3% li NaCl eritmasidan foydalaniladi;
- eritrotsitlar soni moslashish egriligiga asoslanib tuzilgan, maxsus jadval yordamida xisoblaniladi (kamerali usul bilan taqqoslanadi).

Usul qiyin emas va seriyali ish uchun qulay, lekin uning kamchiligi natija faqatgina eritrotsitlarning miqdoriga emas, balki ularning o'lchami va gemoglobin konsentratsiyasiga bog'liq.

Eritrotsitlarning miqdoriy tarkibi

norma: erkaklarda – $4,0\text{--}5,0 \times 10^{12}/\text{l}$,
ayollarda – $3,7\text{--}4,7 \times 10^{12}/\text{l}$.

Eritrotsitlar miqdorining kamayishi (oligotsitemiya = eritropeniya) xarakterli:

- anemiyalar (temir tanqislik, gemolitik, gipoplastik, V12 tanqislik).

Anemik xolatlarda eritrotsitlar soni maksimal $0,8\text{--}0,6 \times 10^{12}/\text{l}$ gacha pasayishi mumkin;

- o'tkir qon yo'qotishlar;
- surunkali yallig'lanish jarayonlari;
- giperidratatsiya;
- ba'zi dori vositalarini qabul qilganda (sitostatik, antibiotik, analgetik, sulfanilamidlar);
- xomiladorlikning oxirgi oylari;
- dukkakli o'simliklar, alkogol qabul qilganda.

Eritrotsitlar sonining ortishi (politsitemiya = eritremiya) birlamchi:

- eritropoez zararlanishi;
- qon kasalliklari; yoki ikkilamchi bo'lishi mumkin:
- gipoksiya bilan chaqirilgan, reaktiv eritrotsitzolar (bronx-o'pka patologiyasida ventilyasion yetishmovchilik, tug'ma va orttirilgan yurak nuqsonlari, baland joyda bo'lganda);
- eritropoetinning ishlab chiqarilishi ortishi bilan chaqirilgan eritrotsitzolar (buyraklar gidronefroz va polikistozi, buyrak va jigar xosilalari);
- organizmda steroidlar yuqoriligi bilan bog'liq eritrotsitzolar (Kushing sindromi va kasalligi, feoxromotsitoma, giperaldosteronizm, steroidlar bilan davolanganda);
- degidratatsiyadagi nisbiy eritrotsitzolar (o'tkir zaxarlanishlar, atsidozlar, kuyish, diareya, diuretiklar qabul qilganda).

Eritrotsitlarni morfologik o'zgarishi

Qizil qon tanachalarini morfologik tekshirish, ularning umumiyligi sonini va gemoglobinini tekshirish bilan birga qimmatli usul xisoblanadi.

Bu eritrotsitlardagi patologik o'zgarishlarni, diagnostik va prognostik aniqlashga imkon beradi.

Qizil qon tanachalari morfologiyasini bilmasdan, qon kasalligiga tashxis qo'yish, anemiyalarni qiyoysi tashxisini o'tkazish mumkin emas.

Shuning uchun eritrotsitlar morfologiyasi aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, qon taxlili noto'liq xisoblanadi.

Klinik maqsadlarda eritrotsitlar morfologiyasini Romanovskiy – Gimza usulida bo‘yalgan preparatda tekshirish qulayroq.

Qon preparatlarini texnik tayyorlash va ularni Romanovskiy – Gimza usulida bo‘yash leykotsitlar morfologiyasi bo‘limida keltirilgan. Bunday xolatda yaxshi tayyorlangan surtma va yaxshi bo‘yash, morfologik xususiyatlarini to‘g‘ri aniqlash uchun zarur sharoit xisoblanadi.

Anizotsitoz – bir xil vaqtda, turli xil o‘lchamdagи eritrotsitlarning aniqlanishi. Sog‘lom odamda eritrotsit diametri 6–8 mkm ga teng. Turli xarakterli anemiyalarda eritrotsitlar o‘lchami o‘zgarishi mumkin.

Mikrotsitlar – diametromi 6 mkm dan kichik eritrotsitlar – temir yetishmovchilik anemiyasiga xarakterli,

Makrotsitlar – diametromi 9 mkm dan katta eritrotsitlar – jigar kasalliklarida va splenoktemiyadan keyin kuzatiladi.

Megalotsitlar – yirik (12 mkm atrofida), ovalsimon giperxrom eritrotsitlar, megaloblastlar yetilganda xosil bo‘ladi – organizmda vitamin V12 va foli kislota yetishmaganda paydo bo‘ladi.

Eritrotsitlar yetilishining patologik xolatlarida anizotsitoz bilan birga, ularning shaklini o‘zgarishi – poykiletsitoz kuzatiladi: cho‘zinchoq, ovalsimon, noksimon, o‘roqsimon, sharsimon va x.k shaklli eritrotsitlar.

Suyak ko‘migining eritropoetik funksiyasi yetishmovchiligida, suyak ko‘midan qonga yetilmagan «yadroli» qizil qon elementlari – normoblast va eritroblastlar chiqadi.

Eritrotsitlar yetilishining patologik xolatlarida, eritrotsitlarda «Jolli tanachalari» - olchaqizil rangga bo‘yaluvchi, diametri 1–2 mkm li yumaloq xromatin xosilalari va «Kebot xalqasi» – qizil, xalqa, sakkiz ko‘rinishidagi yadro qobig‘i qoldiqlari saqlanishi mumkin.(Asosan V12-tanqislik anemiyada uchraydi).

Eritrotsitlarning bazofil donadorligi, ko‘k donachalar ko‘rinishida keltirilgan. Bunday eritrotsitlar qo‘rg‘oshin va og‘ir metall tuzlari bilan zaxarlanganda, talassemiyada, V12- va foli kislota tankislik anemiyasida, alkogol intoksikatsiyalarida, dori vositalarining sitotoksik ta’siri natijasida kuzatilishi mumkin.

Rang ko‘rsatkich 0,85–1,05

Rang ko 'rsatkich – gemoglobin miqdori va eritrotsitlar soni o'rta sidagi nisbat.U eritrotsitni gemoglobin bilan to'yinish darajasini belgilaydi. Rang ko 'rsatkichga qarab, eritrotsitlar tarkibidagi gemoglabin normal (normoxrom), pasaygan (gipoxrom), 0,8 dan past, yoki ortganligin(giperxrom), 1,1 dan yuqori aniqlash mumkin.

Gematokrit (haematokritos)

erkaklar – 40–48 %,

ayollar – 36–42 %

Eritrotsitlarning umumiy xajmi (gematokrit ko 'rsatkich), plazma va qon shaklli elementlari o'rtasidagi foizdagi nisbati xaqida ma'lumot beradi. Bu qon kasalliklari va boshqa kasalliklarda katta ahamiyatga ega.

Gematokritni sifatiy aniqlash

Gematokrit ko 'rsatkichni aniqlash, to'g'ri usulda amalga oshiriladi. Eritrotsitlarning umumiy xajmi antikoagulyantlar bilan aralashtirilgan qonda tekshiriladi (geparin yoki natriya sitrat eritmasi). Aniqlash sentrifugali bo'laklangan probirkada yoki Panchenkov kapillyarida o'tkaziladi.

Ishonchli gematokrit ma'lumotlar olish uchun, standart sharoit sifatida 3000 ob/min 30 min davomida sentrifugalash qo'llaniladi. Ushbu sharoitga amal qiliganda eritrotsitlar orasida suyuqlik qolmaydi, suyuqlik ustidan chiqib xam turmaydi.Gematokrit aniqlashni eng qulay va aniq usuli gematologik apparatlar yordamida tekshirish xisoblanadi.

Gematokritning miqdoriy tarkibi

norma: Yangi tug'ilgan chaqaloqda – 44–62 %;

uch oylikda – 32–44 %;

1 yoshda – 36–44 %;

10 yoshda – 37–44 %;

erkaklarda – 40–48 %;

ayollarda – 36–42 %.

Gematokrit ko 'rsatkich ortadi:

- birlamchi va ikkilamchi eritrotsitozlarda ;
- degidratatsiyalarda (profuz ich ketishi, quşish bilan kechuvchi, oshqozon-ichak kasalliklarida; ko'p terlash; diabetda);

- aylanuvchi plazma umumiy xajmining kamayishida (peritonit, kuyishlar).

Gematokrit ko'rsatkich kamayadi:

- anemiyalar. Anemiyalarda gematokrit ko'rsatkich kamayishi, eritrotsitlar miqdorining kamayishi bilan paralel kechadi;
- aylanuvchi plazma umumiy xajmining ortishida (yurak-qon tomir va buyrak yetishmovchiligi, xomiladorlikning oxirgi oylarida, giperproteinemiyalarda);
- surunkali yallig'lanish jarayonlari, travmalar, och qolish, surunkali giperazotemiyada, onkologik kasallikkarda;
- gemodilyusiyada (vena ichiga suyuqlik yuborilganda, ayniqsa buyraklarning funksional qobiliyatini pasayganda).

Leykotsitlar (leucocytus) $4,0\text{--}9,0 \times 10^9/\text{l}$

Leykotsitlarning qondagi miqdori ularning xosil bo'lish tezligi, suyak ko'migida jamlanishi, hamda ularning yo'qotilishi va to'qimalarga migratsiyasi, o'pka va taloq tomonidan ushlanib qolinishiga bog'liq. Bu jarayonlarga o'z navbatida, qator fiziologik omillar ta'sir etadi, shuning uchun leykotsitlar soni sog'lom odamda tebranib turadi: kunning oxiriga borib, jismoniy zo'riqish, emotsiyonal zo'riqish, oqsil maxsulotlarini qabul qilganda, atrof muxit temperaturasi keskin o'zgarganda ortadi.

Leykotsitlarni miqdoriy aniqlash

Leykotsitlar Goryaev kamerasi va avtomatik xisoblagichlar yordamida xisoblanadi.

Leykotsitlarni Goryaev kamerasi yordamida xisoblash.

Qon probirkaga usulida olinganda, leykotsitlarni xisoblash uchun:

- probirkaga metilen ko'ki bilan bo'yalgan, 3–5% uksus kislota eritmasilan 0,4 ml quyiladi. Kapillyar pipetka yordamida yangi qon tomchisidan 20 mkl olinadi (20 martta suyultirilgan), astalik bilan, reaktiv bilan birgalikda probirkaga quyiladi va pipetka chayib tashlanadi. Aralashma yaxshilab aralashtiriladi;

- toza va quruq qoplagich oynani, kameraga, ular tegishgan joyda rang-barang xalqalar xosil bo'ladigan qilib joylashtiriladi;

- probirkadagi ajratilgan qon yaxshilab aralashtiriladi, keyin yumaloq shishi tayoqcha oxiri bilan qon tomchisi olinadi va kameraning silliqlangan oynasi chetiga qo'yiladi.
- kamera to'lganidan keyin, leykotsitlar cho'kishi uchun 1 min ga qoldiriladi;
- leykotsitlar kichik kattalashtirgichida (ob'ektiv x8 yoki x9, okulyar x10 yoki x15) qorong'ilashtirilgan ko'rav maydionida (tushirilgan kondensorda yoki toraytirilgan diafragmada);
- qoniqarli natijalar olish uchun leykotsitlar 100 ta katta kvadratlarda xisoblanadi.

Leykotsitlarning miqdoriy tarkibi

Norma: $4,0\text{--}9,0 \times 10^9/\text{l}$

Leykotsitlar sonining $9,0 \times 10^9/\text{l}$ dan ortishi leykotsitoz, $4,0 \times 10^9/\text{l}$ dan kamayishi esa – leykopeniya deyiladi. Biroq 1 l da $3,5 \times 10^9$ miqdordagi leykotsitlar miqdori ham, ba'zi insonlar uchun norma xisoblanadi.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, bunday insonlarda immun qarshilik kuchli va ular kam kasallanishadi.

Shunisi aniqki, aynan periferik qonida leykotsitlar soni kam sog'lom odamlarda, ularning to'qimadagi rezerv miqdori yuqori. Bu fenomen nasliy-oilaviy xarakter yoki parasimpatik nerv tizimining ta'siri yuqori bo'lishi bilan tushuntiriladi.

Leykopeniyafunksional va organik bo'lishi mumkin.

Funksional leykopeniya qon yaratish regulyasiyasining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, quyidagi xolatlarda kuzatiladi:

- ba'zi bakterial va virusli infeksiyalarda (qorin tifi, gripp, suvchechak, qizilcha, Botkina kasalligi, qizamiq);
- dori vositalari ta'sirida (sulfanilamidlar, analgetiklar, talvasaga qarshi, antitireoid, sitostatik va boshqa preparatlar);
- mushaklar ishida, begona oqsil kiritilganda, nerv va temperatura ta'sirida, och qolganda, gipotonik qolatlarda;
- yolg'on leykotsitopeniya qon uzoq vaqt xona temperaturasida saqlanganda, leykotsitlar agregatsiyasi natijasida kuzatiladi (4 soatdan ortiq).

Organik leykopeniya, suyak ko'migi aplaziyasi va uning yog'to'qimasi bilan almashinishi natijasida, quyidagi xolatlarda:

- aplastik anemiyalar;
- agranulotsitozda;
- leykozning leykopenik shaklida;
- limfogranulematozning ba'zi shakllarida;
- ionizirlovchi nurlanishda;
- gipersplenizmda (birlamchi va ikkkilamchi);
- kollagenozlarda.

Levkotsitoz – bu qon yaratish tizimining ekzogen va endogen faktorlarga reaksiyasi. Fiziologik va patologik levkotsitoz farqlanadi.

Fiziologik levkotsitoz kuzatiladi:

- ovqat xazm qilish bilan bog'liq – asosan oqsilga boy ovqat maxsulotlari iste'mol qilinganda;
- leykotsitlar soni $10,0-12,0 \times 10^9/l$ dan oshmaydi va 3-4 soatdan keyin normaga qaytadi;
- emotsiyal zo'riqishlarda (adrenalin ajralishi), og'ir jismoniy zo'riqishda, sovuq qotishda, qo'p muddat quyoshda ostida bo'lganda (quyoshdan kuyish), qator gormonlar qabul qilinganda (katexolaminlar, glyukokortikosteroidlar va x.k), xomiladorlikning ikkinchi yarmida, menstruatsiya vaqtida va leykotsitlarni qonda notekis tarqalishi bilan bog'liq.

Patologik levkotsitoz absolyut va nisbiy bo'ladi.

Absolyut – qonda leykotsitlar sonining bir necha yuz minggacha ortishi ($100,0-600,0 \times 10^9/l$ va undan yuqori). Ko'proq leykozlarda kuzatiladi: surunkali leykozda – 98-100 % xollarda, o'tkir leykozlarda esa – 50-60 %. Suyak ko'migi punktatida va qonda leykotsitar qator nisbatining buzilishi, leykozlarning asosiy diagnostik omili xisoblanadi.

Nisbiy levkotsitoz kuzatiladi:

- o'tkir yallig'lanish va infektion jarayonlarda, qorin tifi, gripp, suvchechak, qizilcha, Botkina kasalligi, qizamiqda kuzatilmaydi. Eng yuqori levkotsitoz (do $70,0-80,0 \times 10^9/l$) sepsisda aniqlanadi;
- toksik moddalar ta'sirida (xasharotlar zaxari, endotoksinlar), ionizirlovchi radiatsiya (nurlangan zaxoti);
- kortikosteroidlar, adrenalin, gistamin, atsetilxolin ta'siri natijasida;
- to'qimalar yemirilishida (nekrozda), miokard infarktida, periferik arteriyalar trombozida gangrenalar rivojlanishi bilan,

kuyishlarda, ekssudativ plevritda, perikarditda, uremiyada, buyrak komasida;

- shikastlanishlar oqibatida qon yuqotilganda, ichki, ginekologik va boshqa qon ketishlarda.

Infektion kasallikkarda leykotsitlar sonining ortishi, qo‘p xollarda leykotsitar formulani chapga siljishi bilan birga kuzatiladi.

Leykotsitar formula

neytrofillar:

-yosh 0 %

-tayoqchayadroli 1–6 % ($0,040\text{--}0,300 \times 10^9/\text{l}$)

-segmentyadroli 47–72 % ($2,0\text{--}5,5 \times 10^9/\text{l}$)

Eozinofillar 0,5–5 % ($0,020\text{--}0,300 \times 10^9/\text{l}$)

Bazofillar 0–1 % ($0\text{--}0,065 \times 10^9/\text{l}$)

Limfotsitlar 19–37 % ($1,200\text{--}3,000 \times 10^9/\text{l}$)

Monotsitlar 3–11 % ($0,090\text{--}0,600 \times 10^9/\text{l}$)

Leykotsitar formula deb, qon leykotsitlari aloxida shakllarining foizdagi nisbatiga aytildi.

Leykotsitlarni quyidagi tasniflash mumkin:

- kelib chiqishi bo‘yicha (*mieloid va limfoid*);
- vazifasi bo‘yicha (*fagotsitlar yoki immunotsitlar*);
- morfologiysi bo‘yicha (*yadrosining tuzilishi va sitoplazmatik kirimtalar borligi*).

Leykotsitlar morfologiyasi

Leykotsitlarning ikkita asosiy guruxi farqlanadi: *granulotsitlar* (donador) va *agranulotsitlar* (danasiz).

Granulotsitlarning yadroisi segmentlangan (siyoxrang rangda), donadorlik saqlovchi oksifil (pushti) sitoplazma. Xarakteriga ko‘ra protoplazmaning spetsifik donadorligi bo‘yicha granulotsitlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- neytrofillar (mielotsitlar, yosh, tayoqcha yadroli va segment yadroli);
- eozinofillar;
- bazofillar.

Agranulotsitlarning yadrosi bo'laklarga bo'linmagan va sitoplazmasi bazofil (xavorang), sitoplazmada donadorlik yo'q. Ularga kiradi:

- limfotsitlar;
- monotsitlar.

Leykotsitar formulani aniqlash

Leykotsitar formula bo'yagan surtmalarda xisoblaniladi. Aniq xisoblash uchun kamida 200 ta leykotsitni xisoblab qo'rish zarur.

Surtma tayyorlash texnikasi

- qon surtmasi yog'sizlantirilgan buyum oynasida tayyorlanadi;
- barmoqning igna sanchilgan joyi quruq paxta sharigi bilan artiladi va buyum oynasining chetidan 1,5–2 sm qon tomchisi suriladi;
- chetlari kesilgan, silliqlangan buyum oynasini qon tomchisidan 45° burchak ostida o'rnatiladi va qon silliqlangan buyum oynasiga bir tekis tarqalishi uchun, tomchiga ozgina ta'sir etiladi;
- so'ngra, qonni bir tekis taqsimlab, bosmasdan silliqlangan buyum oynasi, buyum oynasi bo'ylab o'tkaziladi; surtma yupqa va tekis bo'lishi zarur;
- surtma xavoda quritiladi va 3–5 min metil spirida yoki 5–10 min May – Gryunvald eozinmetil ko'ki eritmasida fiksatsiyalanadi;
- keyin surtma Romanovskiy – Gimza usuli bilan 30– 40 min davomida bo'yaladi, bo'yoqning ortiqchasi oqar suvda yuvib tashlanadi va surtma quritiladi.

Romanovskiy – Gimza bo'yog'i (zavodda tayyorlangan) quyidagi tarkibga ega: azur II – 3 g; suvda eruvchan sariq eozin – 0,8 g; glitserin – 250 ml; metil spirti – 250 ml (asosiy eritma).

Ishni boshlashdan oldin undan extempore, 1-2 tomchi asosiy eritma 1 ml distillangan suv bilan aralashtirilib, ishchi eritma tayyorlanadi.

Pappengeym bo'yicha kombinirlangan bo'yashdan xam foydalanish mumkin: fiksatsiyalanmagan surtmaga pipetka yordamida, May – Gryunvaldning tayyor bo'yoq-fiksatori qo'shiladi. 3 minutdan keyin qoplovchi surtma bo'yoqqa teng miqdorda distillangan suv qo'shiladi va bo'yashni yana 1 min davom ettiriladi. Keyin bo'yoq yuvib tashlanadi va surtma xavoda quritiladi. Quritilgan surtmani Romanovskiy bo'yog'ini yangi tayyorlangan suvli eritmasi bilan 8–15

min davomida qayta bo'yaladi. Bu usul suyak ko'migi punktatlari surtmalarini bo'yash uchun eng yaxshi usul xisoblanadi;

Sanash tartibi

- Surtmaning to'rtta chetki soxalariga immersion yog' tomiziladi. Shu soxalardan birini ko'ruv maydoniga to'g'rilanadi;
- Surtmani mikroskop okulyari ostida xarakatlanish, egri-bugri chiziq bilan amalga oshiriladi. Bu leykotsitlarning xar bir turini aniq xisoblash uchun kerak. Chunki surtmada ular notekis tarqalgan bo'ladi: eng og'irlari – bazofillar, eozinofillar va monotsitlar – chetlariga yaqin, yengilrog'lari esa – limfotsitlar – markazga yaqin;
- Avval leykotsitlarning aloxida turlarini farqlashni o'rganish kerak, donador va donasiz leykotsitlar yadrosi shakliga, donador leykotsitlar protoplazmasidagi yadrolarning xajmi va bo'yalishiga, eritrotsitlarda yadro yo'qligiga ishonch xosil qilish kerak;
- Qog'ozga leykotsitlarning asosiy shakllari bilan ustun chiziladi; xar bir qo'ruv maydonida aniqlangan kajdbiy leykotsitni kervcli ustunga nuqta yoki chiziqcha bilan belgilanadi;
- Xisoblash uchun o'n bir klavishli xisoblagichdan foydalanish qulayroq;
- Xisoblash aniqroq bo'lishi uchun 200 ta leykotsit sanaladi – 50 katakdan yuqori va pastki qirralari bo'ylab, surtmaning boshida va oxirida.
- Qondagi leykotsit ma'lum turini foiz tarkibini aniqlash uchun, xar bir ustundiagi xujayra miqdorini 2 ga bo'lish zarur, chunki 200 ta xujayra xisoblangan.

Leykotsitlar morfologiysi va vazifalari

Leykotsitlar turli tashqi ta'sirlarga va organizmning ichki o'zgarishlariga tez reaksiya qiluvchi qon elementlari xisoblanadi. Shuning uchun leykotsitar formulaning siljishi katta diagnostik ahamiyatga ega.

Neytrofillar (neutrophilus)

Neytrofillar – to'q yadroli yirik xujayralar (diametrom 10–15 mkm). Romanovskому – Gimza usulida bo'ylganda mayda pushtisiyoxrang donalar bilan to'lgan, och pushti rangli sitoplasmaga ega.

Segment yadroli neytrofillar bir-biri bilan ingichka iplar orqali bog'langan, 2–5 segmentli yadroga ega.

Neytrofil leykotsitlarning yosh shakllari – tayoqcha yadroli neytrofillar – aloxida bo'laklarga bo'linmagan, tayoqcha yoki taqasimon yadroga ega.

Donalar (tuzilishi va kimyoviy tarkibiga ko'ra) bo'linadi:

1. *Azurofil* yoki birlamchi – xujayralar yetilgan sayin ularning soni kamayadi, yetilgan neytrofillarda umumiy donalarning 10–20 % ini tashkil etadi. Birlamchi lizosomalarining ko'rinishidan biri bo'lib, lizosomalar uchun tipik bo'lgan gidrolitik fermentlar – nordon fosfataza, β -glyukuronidaza, nordon β -glitserofosfatdegidrogenaza, nordon proteaza, arilsulfataza tutadi. Bundan tashqari, birlamchi bakteritsid ta'sirga ega bo'lgan, mieloperoksidaza va muromidaza (lizotsim) tutadi.

2. *Spetsifik neytrofillar* yoki *ikkilamchi* – xujayra yetilgan sayin, ularning soni xam ortib boradi va yetilgan neytrofillarda oval yoki gantelsimon shaklga ega bo'ladi. Ularda lizosomal fermentlar va peroksidaza yo'q, lekin ishqoriy fosfataza asosiy kation oqsillari, fagotsitinlar, laktoferrin, lizotsim, aminopeptidazalar mavjud.

Shunday qilib spetsifik neytrofil granulalar markerlari bo'lib, ishqoriy fosfataza va kation oqsillari, azurofil granulalarda nordon fosfataza va mieloperoksidaza xizmat qilishi mumkin.

Neytrofil granulotsitlar yashash davri o'rtacha 14 kun, ulardan 5–6 kunida ular yetiladi va suyak ko'migi sinuslarida ushlanib qoladi, 30 minutdan 2 kungacha periferik qonda bo'ladi, 6–7 kun to'qimalarda saqlanadi va yana qonga qaytadi.

Neytrofillarning eng asosiy vazifasi organizmni infeksiyalardan ximoya qilish xisoblanadi. Bu jarayon fagotsitoz, bakteritsid ta'sirga ega fermentlar ishlab chiqarish va xemotaksis (xujayralararo bazal membranalardan o'tish xususiyati va biriktiruvchi to'qimani asosiy muddasi bo'ylab, mikroorganizmlarga va yallig'lanish o'chog'iga yetib borish) dan iborat.

Neytrofillarning biologik ahamiyati, ularning yallig'lanish o'chog'iga katta miqdorda turli proteolitik fermentlar olib borishi va nekrotik to'qimalar so'rilib jarayonlarida faol ishtirok etishi xisoblanadi.

Neytrofillar qonga bakterial va antitoksiq xususiyatlari moddalar, hamda, lixoradka chaqiruvchi, yallig'lanish jarayonini qo'llovchi pirogen moddalar ajratishi mumkin.

Neytrofil granulotsitlarda tromboplastin faoliyoti ega moddalar topilgan, ular tarkibidagi katepsin va tripsin esa fibrinoliz jarayonlarida ishtirok etadi.

Normada: yoshlari – umumiy granulalarning 90 %ini tashkil etadi. Yumaloq tayoqchalarga ega. Neytrofillar leykotsitlarning eng o'zgaruvchan guruxi xisoblanadi. Neytrofillar sonining ortishi (neytrophelez), leykotsitlar umumiy miqdori ortganda kuzatiladi:

- o'tkir yoki surunkali leykozy;
 - o'tkir yallig'lanish jarayonlari;
- tayoqcha yadroli – 1–6 % ($0,040\text{--}0,300 \times 10^9/\text{l}$)
segment yadroli – 47–72 % ($2,0\text{--}5,5 \times 10^9/\text{l}$)
- intoksikatsiyalar;
 - shok;
 - qon ketishlar;
 - miokard infarkti;
 - gemolitik krizlar.

Bunday xollarda tayoqcha yadroli neytrofillar ortishi, yetilmagan granulotsitlar (mielotsitlar, metamielotsitlar) aniqlanishi mumkin (leykotsitar formulaning chapga siljishi).

Regenerator, degenerator va leykemoid neytrofilarning chapga siljish turlari farqlanadi.

Birinchi xolatda yuqoridagi o'zgarishlar - tayoqcha yadroli neytrofil ortishi, leykotsitoz fonida yosh shakl (metamielotsitov) larini paydo bo'lishi kuzatiladi.

Degenerator siljishda leykotsitoz kuzatilmaydi, neytrofilida degenerativ o'zgarish bilan tayoqcha yadroli neytrofil ortishi aniqlanadi (sitoplazma vakuolizatsiyasi, yadro piktozi va x.k). *Regenerator* siljish organizmning ximoya reaksiyasi faol ekanligidan dalolat beradi, degenerator esa – bu xususiyat yo'qligidan. Regenerator siljish, yallig'lanish jarayoni yoki nekroz o'chog'i bor bo'lsa, ko'proq uchrashi aniqlangan.

Leykotsitoz bilan, promielotsitlar va xattoki mieloblastlarga cha keskin siljish *leykemoid* reaksiya deyiladi. Odatda, organizm umumiy

qarshiligi yuqori bo'lgan xolatda, og'ir infektion jarayon kuzatilsa (sepsis, peritonit, tuberkulez), xamda suyak ko'migiga metastaz bergen xavfli o'smalarda aniqlanadi.

Leykogramma o'ngga siljiganda 5–8 segmentli yetilgan shakllar ustunlik qiladi. 20 % sog'lom odamlarda xam o'ngga siljish uchrab turadi. Infektion kasalliklarda o'ngga siljish kasallikning yaxshi sifatlari kechayotganidan dalolat beradi. Gipersegmentatsiya va tayoqcha yadroli neytrofillarning kamayishi pernitsioz anemiyada xam kuzatilishi mumkin.

Emotsional zo'riqishlarda, ovqat iste'mol qilgandan so'ng, gormonlar yuborilganda (katexolaminov, glyukokortikosteroidlar va, boshqalar.) qayta taqsimlanish leykotsitozi kuzatiladi, chunki neytrofillar devor oldi (marginal) pulpadan, markazga yo'naladi.

Neytropeniya – neytrofillar sonining $1,8 \times 10^9/l$ dan kamayishi. Neytropenianing qay darajada namoyon bo'lishi irqqa bog'liq bo'lishi mumkin: oq tanlilarda neytrofillarning $1,8 \times 10^9/l$ dan kamayishi, qora tanlilarda esa $1,4 \times 10^9/l$ dan kamayishi neytropeniya deyiladi.

Neytrofillar sonining kamayishi – *absolyut neytropeniya* – kuzatiladi:

- suyak ko'migi funksiyasini kamaytiruvchi bir qator mikrob (qorin tifi, malyariya, tuberkulez, brutsellez, salmonellez, leyshmanioz qo'zg'atuvchisi va x.k.) va virus toksinlari (gepatit, qizamiq, gripp, qizilcha, suvchechak, OIT) ta'sirida;
- suyak ko'migi funksiyasini kamaytiruvchi ionizirlovchi radiatsiya ta'sirida;
- suyak ko'migi funksiyasini kamaytiruvchi qator dori vositalari ta'sirida (sulfanilamidlar, analgetiklar, talvasaga qarshi, antitireoidlar, sitostatiklar
 - revmatoid artrit, sistemali qizil yugurikda;
 - aplastik va V12-tanqislik anemiyalar, agranulotsitzoda;
 - gipersplenizmda;
 - nasliy shakllarida (Kostman sindromi, siklik neytropeniya).

Alkogolizm, diabet, og'ir shok xolati ham neytropeniya rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Eozinofillar (eosinophilus)

Norma: 0,5–5 % ($0,020\text{--}0,300 \times 10^9/\text{l}$)

Eozinofillar – ikki-, uch qavat yadro, sitoplazmasida yirik donalar tutuvchi yirik xujayralar. Xujayra diametri 15 mkm ga yaqin. Romanovskiy usuli bilan bo'yalganda donalari to'q-qizil eozin rangini oladi yoki ochroq bo'yaladi (go'sht rangi). Agar preparat qaytadan bo'yalsa, donalari jigarrang-qizil yoki jigarrang rangni oladi.

Oval yoki poligonal shakldagi spetsifik oksifil granulalar, argininga boy asosiy oqsil, hamda gidrolitik fermentlar, neytrofil lizosomalari kabi peroksidaza va nordon fosfataza (yuza qismida), esteraza, gistaminaza tutadi.

Eozinofillar asosiy vazifasini qonda emas, to'qimalarda o'taydi.

Eozinofillar, boshqa gurux leykotsitlari qatori, fagotsitoz xususiyatigi ega, oqsil tabiatli maxsulotlar dezintoksikatsiyasida va organizmning allergik reaksiyalarida muxim rol o'ynaydi.

Eozinofillar gistogrammi, gistogramnaya fermenti yordamida nofaol xolatga o'tkazadi. *Eozinofillar* gistogrammi bazofil va semiz xujayralardan ajralishini tormozlovchi maxsus omil ishlab chiqaradi.

Eozinofillarning gelmintozlarda immunitet rivojlanishiga ta'siri, bu xujayralarning killer (sitotoksik) effekti bilan bog'liq, shuning uchun gelmintozlardagi gipereozinofiliyaning organizmning ximoya reaksiyasi deb qarash mumkin.

Eozinofiliva – eozinofillar sonining 5–6 % dan ortishi.

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- turli xil allergik kasalliklar va sindromlarda (bronzial astma, krapivnitsa, gelmintozlar, qichuvchi dermatitlar, ekzema, Kvinke shishida);
 - nevroz;
 - toksikoz;
 - gelmintoz;
 - limfogranulematoz;
 - surunkali mieloleykozda (bazofiliya xam kuzatiladi);
 - revmatizmda;
 - ba'zi antibiotiklar va sulfanilamid preparatlar bilan davolanganda;
 - sepsis, krupoz pnevmoniya va boshqa kasalliklardan tuzalish davrida.

Eozinopeniya – eozinofillar miqdorining kamayishi

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- o'tkir infektion kasalliklarning avj olish davrida;
- sepsis;
- tuberkulezning og'ir shakllari;
- tif;
- intoksikatsiyalarda;
- pernitsioz anemiyada.

Eozinopenivaning leykopeniya bilan birga uchrashi yomon belgi xisoblanib, qator kasalliklarda organizm umumiy qarshiligi pasayganidan dalolat beradi.

Bazofillar (basophilus)

Norma: 0–1 % (0–0,065 x 10⁹/l)

Bazofillar – diametri 9–14 mkm, bo'laklangan yadroli, noto'g'ri parrak shakldagi, to'q-siyoxrang xujayralar. Bazofillar sitoplazmasi yirik dumaloq yoki poligonal, Romanovskiy bilan ko'k rangga bo'yaluvchi granulalar bilan to'lgan. Granulular geparin, gistamin, serotonin, peroksidaza, nordon fosfataza, gistidin dekarboksilaza (gistamin fermenti sintezi) tutadi. Azurofil granulalari – lizosomalari xam mavjud.

Bazofillar, eozinofil bilan bir qatorda organizmning allergik reaksiyalarida, xamda gistamin va geparin almashinuvida ishtirok etadi. Bazofillar va semiz xujayralarning vazoaktiv aminlari, qon tomirlar devorida immun komplekslar to'planishiga va immun komplekslar patologisi rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bazofillarning asosiy vazifasi – sekin kechar va tez kechar tipli immunologik reaksiyalarda qatnashish. Bazofillarning fagotsitar aktivligi sust. Bazofillar to'qima almashinuvida kerakli mediatorlarning tashuvchisi xisoblanadi.

Bazofiliya kuzatiladi:

- yuqori sezgirlik bilan kechuvchi o'tkir reaksiyalarda (masalan, eshakemi tipidagi allergik reaksiyalar);
 - begona zardoblar bilan vaksinatsiyada;
 - gemofiliya;
 - virusli kasalliklarda (suvchchechak, gripp);
 - surunkali infeksiyalarda (tuberkulez);
 - yallig'lanish jarayonlarida (revmatoid artrit, yarali kolit);

• surunkali mieloleykoz(eozinofiliya bilan birga), limfogranulematozda;

- estrogenlar, antitireoid preparatlar ta'sirida.

Bazofillar sonining kamayishi (*bazopeniya*) kuzatiladi:

- o'tkir infeksiyalarda;
- gipertireozda;
- ovulyasiya, xomidladorlikda;
- streslarda;
- Kushing sindromida va kortikosteroidlar ta'siri natijasida.

Limfotsitlar (lymphocytus)

Norma: 19–37 % (1,200–3,000 x10⁹/l)

Limfotsitlar – diametromi 7–12 mkm li, xujayraning katta qismini egallaydigan dumaloq yoki loviyasimon shaklli yadroga ega xujayralar. Sitoplazmasi, och-xavorangga bo'yaladi, donalarga ega emas. Yadrosining atrofida yorug' doirasi bor. Ba'zi limfotsitlar sitoplazmasida bir necha gurux, yirik olcha-qizil (azurofil) rangli donalari (lizosomalar) bor.

Sog'lom odamlarda limfotsitlarni to'rt guruxga bo'lish mumkin:

- yirik limfotsitlar (10–12 % ga yaqin);
- kichik yorug' limfotsitlar (73–77 %);
- kichik to'q rangli limfotsitlar (12–13 % ga yaqin);
- limfoplazmotsitlar (1–2 %).

Qonda aylanuvchi *limfotsitlar*, turli vazifalarni bajaradi. Ularning asosiy qismi T-limfotsitlarga mansub – 50–70 %, kichikroq qismini V-limfotsitlar – 15–25 % tashkil etadi. Morfologik jixatdan odamda T- va V-limfotsitlarni ajratib bo'lmaydi.

Timusga qaram limfotsitlar (T-limfotsity), timusda suyak ko'migining o'zak xujayralardan xosil bo'ladi, xujayra immuniteti reaksiyalari va gumoral immunitetni boshqaradi. Immunologik reaksiyalardagi ishtirokiga qarab, T-limfotsitlar ikki asosiy guruxga bo'linadi.

Birinchi guruxni tashkil etadi: immunologik xotira xujayralari, ya'ni yot antigenni tanib olib, immunologik reaksiyanı boshlanishiga signal beradi (antigen reaktiv xujayralar);

- T-killerlar (organizmning transplantat va mutant xujayralarini (masalan o'sma) yo'qotuvchi sitotoksik xujayralar.

Ikkinci guruxga V-limfotsitlarni boshqarib turuvchi T-limfotsitlar kiradi. Ulardan T-xelperlar va T-suppressorlar:

- T-xelperlar (yordamchi) antigenni spetsifik tanib olish va antitelalarni xosil bo'lishini kuchaytirish xususiyatiga ega;
- T-suppressorlar (siqvuchi) V-limfotsitlarning antitelalar xosil bo'lishida qatnashish xususiyatini pasaytiradi.

T-limfotsitlarning V-xujayralarga ta'siri, ularning antigenga ta'siridan xosil bo'ladigan eruvchan moddalar – limfokinlarga bog'liq.

V-limfotsitlar suyak ko'migining o'zak xujayralardan, embrional jigaarda xosil bo'ladi, kattalarda esa – suyak ko'migida. Ularning asosiy vazifasi – gumoral immunitetni ta'minlash. V-limfotsitlardan xosil bo'ladigan effektor xujayralar – plazmotsitlar – ximoya oqsillari – immunoglobulinlar (antitela) ishlab chiqaradi.

Limfotsitlar tez xarakatlanadi va boshqa to'qimalarga xam o'tish xususiyatiga ega, u yerda ular uzoq vaqt saqlanishi mumkin. V limfotsitlarda DNK tarkibi RNK dan ko'proq, bu xujayraning spetsifik xususiyatlariiga, hamda antigen xaqida ma'lumot saqlashiga bog'liq. Bu ma'lumotning namoyon bo'lishi limfotsitlarning morfologik va submikroskopik organizatsiyasini o'zgartiradi.

Limfotsitoz – limfotsitlar sonining ortishi –

Ko'p kasallikkarda, xatto sog'lom insonlarda ham uchrashi mumkin. *Absolyut va nisbiy limfotsitoz* farqlanadi.

Absolyut limfotsitoz xarakterli:

- O'tkir va surunkali limfoleykozga (70–90 %);
- virusli infeksiyalar, infektion mononukleoz sindromi;
- bakterial infeksiyalar (qizamiq, qizilcha, qoqshol, tuberkulez);
- yurak qon-tomir yetishmovchiligi; revmatoid artrit;
- tireotoksikoza va x.k.

Nisbiy limfotsitoz gripp, virusli hepatitda, qorin tifida, sifilis, toksoplazmoza, malyariya, o'tkir infektion kasallikkardan tuzalish davrida.

Limfotsitopeniya kuzatiladi:

- nur kasalligida;

- limfatik apparatni tizimli zararlanishlarida (limfogranulematoz, limfosarkoma);
- OITSda - spetsifik symptom;
- kortikosteroid terapiya ta'sirida, immunodepressantlar qabul qilganda.

Monotsitlar (monocytus)

Norma: 3–11 % ($0,090\text{--}0,600 \times 10^9/\text{l}$)

Monotsitlar – noto‘g‘ri shakldagi yadroga ega, eng yirik xujayralar (diametri 20 mkm ga yaqin). Boshqa leykotsitlar bilan taqqoslaganda monotsitlar sitoplazmasi, kulrang-xavorang bo‘lib, katta joyni egallaydi; yadro atrofida dumaloq yorug‘lik yo‘q.

Qonda monotsitlar qisqa vaqt bo‘ladi, keyin to‘qimalarga o‘tadi va makrofaglarga transforatsiyalanadi, katta miqdordagi lizosomalar, fagosoma, fagolizosomali paydio bo‘ladi. Mononuklear fagotsitlarning vazifasi – organizmnning turli ximoya reaksiyalarida ishtirok etish, (qisman gumoral va xujayra immunitetida xam) qon xosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi, turli omillar ishlab chiqarish. Tarkibida yuqori miqdorda lipaza saqlagani uchun, monotsit makrofaglar lipid qobiqli mikroorganizmlarga faol ta’sir qiladi.

Monotsitoz – monotsitlar sonining ortishi – immun jarayonlar rivojlanish ko‘rsatkichi bo‘lib xisoblanadi, faqat absolyut monotsitzoda (neytropeniya xisobiga emas).

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- qator infektion kasalliklarda (sepsis, tuberkulez, malyariya, sifilis, infektion endokardit, sarkoidoz, nospetsifik yarali kolit);
- biriktiruvchi to‘qimaning sistemali kasalliklarida (revmatizm, SQV), 50 % xollarda – sistemali vaskulitda;
- qon kasalliklarida (o‘tkir va surunkali monotsitar leykoz, ba’zan – limfogranulematozda).

Monotsitlarning absolyut miqdori ortishi – infektion mononukleozda kuzatiladi.

Monotsitopeniya – monotsitlar sonining kamayishi –

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- qorin tifining gipertoksik shaklida va boshqa infeksiyalarda;

- glyukokortikosteroidlar ta'siri natijasida yuzaga kelgan, aplastik anemiyalar

- og'ir septik xolatlar;

Leykotsitar formula xisoblanganda faqatgina miqdoriy siljishiga emas, shaklli elementlarning sifatiy o'zgarishlariga xam e'tibor berish kerak.

Boshqa xujayra elementlaridan ahamiyatga ega:

plazmotsit (plasmocytus) – immunoglobulin ishlab chiqaruvchi, limfoid to'qima xujayrasi. G'ildiraksimon shaklli yadro va keskin bazofil vakuolizirlangan sitoplazmaga ega.

Sog'lom odamda plazmotsitlar, suyak ko'migi va limfatik to'qimalarda, kamroq – periferik qonda bo'ladi.

Qonda turli infekzion va yallig'lanish jarayonlarida, virusli infeksiyalarda (qizamiq, skarlatina, qizilcha, qoqshol, virusli hepatit, adenovirus infeksiya, infekzion mononukleoz), o'smalarda, zardob kasalligi, kollagenozlarda, nurlanishdan keyin oz miqdorda (0,5–3 %) ortadi.

LE- xujayra fenomeni quyidagilardan iborat: gematoksilin tanachalari, «rozetkalar» va LE- xujayralari. Yuqoridagilardan eng ahamiyatga moyili LE- xujayralarini topilishi xisoblanadi.

LE - xujayra (qizil yugurik xujayralari, Xargreyvs xujayralari) – yetilgan granulotsitlar bo'lib, yadrosi boshqa xujayraning fagotsitlangan yadroli muddasi bilan, periferiyaga siqilgan. Quyidagi xolatlarda kuzatiladi:

- sistemali qizil yugurikda (80 % kasallarda);
- revmatoid artritda;
- o'tkir hepatitda;
- sklerodermiya;
- dorivor moddalarga (talvasaga qarshi preparatlar, prokainamid, metildopa qabul qilganda).

Bolalarda leykotsitar formulaning o'ziga xosligi

Leykotsitlar soni emizikli bolalardau o'rtacha $11 \times 10^9/l$ dan $16 \times 10^9/l$ gacha tebranib turadi. Bu vaqtida leykotsitlar soni yuqoriroq.

1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning leykotsitar formulasi % da (A.F. Tur bo'yicha)

yoshi	neytrophillar	eozinofillar	monotsitlar	limfotsitlar
1-2	34,5	2,5	11,5	50,0
2-3	36,5	1,5	10,0	51,5
3-4	38,0	1,0	10,5	49,0
4-5	45,0	1,0	9,0	44,5
5-6	43,5	0,5	10,0	46,0
6-7	46,5	1,5	9,5	42,0
7-8	44,5	1,0	9,0	45,0
8-9	49,5	2,0	8,5	39,5
9-10	51,5	2,0	8,0	38,5
10-11	50,0	2,5	9,5	36,6
11-12	52,0	2,0	8,0	36,0
12-13	53,5	2,5	8,5	35,0
13-14	56,5	2,5	8,5	32,0
14-15	60,5	2,0	9,0	28,0

Bazofillar soni 1 % dan oshmaydi va o'rtacha 0,5 % ni tashkil etadi. Plazmatik xujayralar – 0 % dan 0,1 % gacha.

Eritrotsitlarning cho'kish tezligi (SOE)

erkaklar – 2–10 mm/soat

ayollar – 2–15 mm/soat

Eritrotsitlarning cho'kishi – bu eritrotsitlarni, qonni ivimaydigan xolatda saqlaganda, tomir tubida cho'kishi.

Avval o'zaro bir-biri bilan bog'lanmaganelementlar cho'kadi, so'ngra ularning aglomeratsiyasi – guruxlarga birikishi kuzatiladi, katta kuch ta'sirida ular tezroq cho'kadi. Aglomeratsiya jarayonida plazmaning oqsil komponentlari (globulinlar, fibrinogen) va mukopolisaxaridlar qatnashadi. Shuning uchun, yuqoridagi komponentlarning oshishiga olib keluvchi jarayonlar, EChT ni tezlashishi bilan kechadi.

EChT ni aniqlash usullari

Eng keng qo'llaniladigani, EChT ni Panchenkov usuli bo'yicha aniqlash xisoblanadi.

Tekshirish shtativ va maxsus graduirlangan kapillyarlardan tashkil topgan Panchenkov apparatida olib boriladi.

- toza kapillyar natriy sitratning 5% li, 3 marta aralashtirilgan eritmasi ($C_6H_5O_7Na_3 \cdot 2O$), bilan chayiladi, keyin eritmaning 25 mkl miqdori olinib («75» belgisigacha) probirkaga quyiladi;
- barmoqdan kapillyarni to'la qilib qon olinadi («0» belgisigacha, 100 mkl ga teng) va qon sitratli probirkaga quyiladi. Qon va sitrat nisbati 4:1 bo'ladi.
- yaxshilab aralashtirilib, aralashma kapillyarning «0» belgisigacha olinadi va shtativga vertikal qilib, qon sizib chiqmasligi uchun ikkita rezinali prokladkalar orasiga qo'yiladi;
- bir soatdan keyin plazmaning cho'kkан qavati balandligiga qarab, cho'kish tezligi aniqlaniladi, millimetrlarda.

EChT ortishi (tezlashishi) kuzatiladi:

- o'tkir va surunkali infeksiyalarda;
- to'qimalar yallig'lanishi va nekrozida;
- biriktiruvchi to'qima kasalliklarida;
- anemiyalarda;
- tuberkulez;
- buyrak kasalliklari;
- surunkali aktiv gepatit, jigar sirrozida;
- shok, travmalar, operatsiya muolajalarida;
- intoksikatsiyalar, kimyoviy birikmalar bilan zaxarlanganda;
- xavfli o'smalarda;
- paraproteinemik gemoblastozlarda (mielom, Valdenstrem kasalligi va x.k);
- gipertireoz, gipotireozda;
- xomiladorlik, tug'ruqdan keyin, menstruatsiya vaqtida;
- dori preparatlari ta'sirida (morphin, metildopa, vitamin A, peroral kontratseptivlar).

EChT pasayishi (sekinlashishi) kuzatiladi:

- eritrotsitozlarda;
- qon aylanishining surunkali yetishmovchiligidagi;

- anafilaktik shokda.

EChT mustaqil diagnostik simptom bo'lib xisoblanmaydi, lekin jarayonning faolligi xaqida ma'lumot beradi. EChT doimam faollikning boshqa ko'rsatkichlari bilan birga paralel o'zgarmaydi. U masalan, appenditsit yoki miokard infarktida leykotsitoz va t° ko'tarilishidan kechroq paydo bo'ladi, ularga nisbatan sekinroq normallashadi. EChT ni klinik baxolaganda uni kasallik dinamikasida, davolash davrida o'zgarishi ahamiyatga ega.

Normal EChT kasallikni istisno qilmaydi, lekin sog'lom odamlarda EChT yuqori bo'lmaydi.

Trombotsitlar (thrombocytus)

Norma $180\text{--}320 \times 10^9/\text{l}$ ($200\text{--}400 \times 10^9/\text{l}$)

Trombotsitlar (qon plastinkalari) – 2–4 mkm diametrli, yadrosiz xujayralar bo'lib, suyak ko'migi megakariotsitlar sitoplazmasining «qoldiqlari» xisoblanadi.

Trombotsitlar morfologiyasi

Sog'lom odam qoni, yorug'lik mikroskopida ko'rulganda (Romanovskiy – Gimza usuli bilan bo'yalganda) trombotsitlarning to'rtta asosiy guruxi farqlanadi:

1. Normal (yetilgan) trombotsitlar ($87,0 \pm 0,13\%$) – dumaloq yoki oval shaklda diametri 3–4 mkm; och-xavorang tashqi zonası (gialomer) va markaziy azurofil donali (granulomer) zonası bor.

2. Yosh (yetilmagan) trombotsitlar ($3,20 \pm 0,13\%$), bir nechta yirik o'lchamli, bazofil sitoplazmali, azurofil granulyasiya (mayda va o'rta) ko'proq markazda joylashadi.

3. Eskirgan trombotsitlar ($4,10 \pm 0,21\%$) dumaloq, ovalnoy, tishsimon shaklli, to'q rangli «sitoplazmaning» ingichka xoshiyasi bilan, ko'plab qo'pol granulyasiya saqlaydi, ba'zan vakuolalar kuzatilishi mumkin.

4. Qo'zg'algan shakllari ($2,50 \pm 0,1\%$) yirik o'lchamli, cho'zinchoq, kolbasasimon, dumli, «sitoplazma» si xavorang yoki pushti, azurofil donadorligi yoyilgan yoki notekis tarqalgan.

Trombotsitlar gialomeri (plastinka asosi) uch qavatlari membrana bilan cheralarangan. Xujayra membranasini invaginatsiyalaydi va ko'plab kanallar to'riga birikadi (ochiq kanal tizimi – OKT), ular trombotsitlar ichida zich to'r xosil qiladi. Tashqi xujayra qobig'i va OKT,

trombotsitlar adgeziya va agregatsiyaisda muxim rol o'ynovchi glikoproteinlar bilan to'yintirilgan.

Trombotsitlar sitoplazmasida 4 xil, turli struktura, shakl va o'lchamga ega granulalar bor, ular qon plastinkasida bir tekis taqsimlangan yoki ko'pincha markazida to'plangan (granulomer). Ko'p miqdordagi α -granulalar, koagulyasiya, yallig'lanish, immunitet va reparatsiya mexanizmlarida qatnashuvchi trombotsitospetsifik peptidlar tutadi. Lizosomal granulalar gidrolitik fermentlar, peroksisomalar esa – katalaza tutadi.

Trombotsitlar vazifalari

- trombotsitlaradgeziya va agregatsiyasi xisobiga, tezlik bilan gemostazni ishga tushirish, bu trombotsitar tiqinlar xosil bo'lishiga olib keladi;
- zararlangan soxaga qon kelishini kamaytiradigan, maxalliy vazokonstriktorlarni ajratadi;
- ivishning gumoral sistema kataliz reaksiyalari, oxirgi bosqichlarda fibrin laxtalari xosil bo'lishi bilan;
- maxalliy yallig'lanish reaksiyalari va immunitetni boshqarish.

Stimullanmagan trombotsitlar silliq diskoid xujayralar ko'rinishida(ozgina metabolik faollikka ega) sirkulyasiya qiladi. Bunday trombotsitlar qonning boshqa shaklli elementlari yoki endoteliy xujayralari monoqavati bilan o'zaro axamiyatli ta'sirlashmaydi.

Tronibotsitlarning fiziologik faolligi, qachon tomir endoteliysi shikastlansa va subendotelial xujaya ichi matriksi yo'qolganda boshlanadi. Trombotsitar membranada qo'zg'alish to'lqinlari yuzaga keladi va katta miqdorda,kalta, ipsimon psevdopodiy yoki filopodiylar shakllanadi. Ushbu jarayon natijasida membrana yuzasi satxi kattalashadi, bu esa gumoral sistema kataliz reaksiyalari uchun muxim.

Megakariotsitlar α -granulalarda ivish omillari V, VIII, XIII va fibrinogenni sintezlaydi va depolaydi, ular trombotsitlar folla shganda mikromuxitga ajralib chiqadi. Trombotsitar membranalar qon ivishining spetsifik reaksiyalarda xam ma'lum darajada ishtirok etadi.

Trombotsitlarni xisoblash usullari

Trombotsitlarni xisoblashni eng ko'p tarqalgan usuli - Fonio usuli (surtma tayyorlanib, Romanovskiy – Gimza usulida bo'yaladi; 1000 eritrotsit sanalganda uchragan, trombotsitlar miqdori xisoblanadi).

Trombotsitlarni Goryaev kamerasida xisoblash usuli xam mavjud: qon 1% li ammoniy oksalat, yoki 5–7% li trilona B (qon ivishini va qon plastinkalari agglyutinatsiyasini oldini olish maqsadida) eritmasi bilan aralashadiradi, kamera to‘ldiriladi va trombotsitlar odatdagidek xisoblanadi. Trombotsitlarni lyuminessent mikroskop yordamida xisoblash kam qo‘llaniladi.

Xozirgi kunda trombotsitlarni elektron-avtomatik xisoblagichlarda sanash ishochli usul xisoblanadi (laborator taxlillarni tasdiqlash uchun, periferik qon taxlilini tekshirish zarur).

Trombotsitov Fonio usuli yordamida miqdoriy aniqlash

- Panchenkov kapillyari bilan 14% li magniy sernokisliy yoki 6% li etilendiamintetraatsetat (EDTA) eritmasidan 25 mkl olinadi («75» belgisigacha) va probirkaga quyiladi;
- barmoqdan kapillyarni to‘la qilib qon olinadi («0» belgisigacha, 100 mkl ga teng) va qon probirkaga quyiladi;
- probirkani yaxshilab chayqatib, aralashmadan surtma tayyorlanadi, fiksatsiyalanadi va Romanovskiy – Gimza usuli bilan bo‘yaladi. Agar stabilizator sifatida magniy sernokisliy eritmasi olingan bo‘lsa, bo‘yash davomiyligi 2–3 soatni, EDTA eritmasi ishlatilgan bo‘lsa – 30–45 minutni tashkil etadi;
- surtma chetiga – ingichka qismiga – immersion yog‘ suriladi;
- 1000 eritrotsit sanalganda uchragan, trombotsitlar miqdori xisoblanadi

1 mkl qondagi eritrotsitlarni va 1000 eritrotsitga to‘g‘ri keladigan trombotsitlar sonini bilib, 1 mkl qondagi trombotsitlarni sanash mumkin.

Trombotsitlarning miqdoriy tarkibi

norma: $180\text{--}320 \times 10^9/\text{l}$ ($200\text{--}400 \times 10^9/\text{l}$)

Trombotsitlar soni ortadi:

- mieloproliferativ jarayonlarda (eritremiya, mielofibroz);
- surunkali yallic‘lanish kasallikkleri (bo‘g‘imlarning revmatoid shikastlanishi, yarali kolit, tuberkulez, osteomielit, jigar sirrozi);
- yomon sifatli xosilalar (rak, limfoma, limfogranulematoz);
- qon ketish, gemolitik anemiya;
- megaloblastik anemiyalardan tuzalish davri;
- operatsiyalardan keyin;

- splenektomiyadan keyingi xolat;
- kortikosteroidlar bilan davolanganda.

Trombotsitlar sonining kamayishi (trombotsitopeniya):

- trombotsitlar xosil bo'lishining kamayishi bilan bog'liq, nasliy trombotsitopeniyalar (tug'ma trombotsitopeniya, Uiskott – Oldrich sindromi, Bernar – Sule sindromi, Chediak – Xigasi anomaliyasi, Fankoni sindromi, YaTCh lar qizilchasi, gistiotsitoz);

- qon kasalliklari (aplastik anemiya, megaloblast anemiyalar, leykozlar);

- suyak ko'migi zararlanishi (saraton metastazlari, sil bilan zararlanishi, ionizirlovchi nurlanish);

- boshqa kasalliklar (siklik trombotsitopeniya, paroksizmal kechki gemoglobinuriya, gemolitiko-uremik sindrom, buyrak yetishmovchiligi, jigar kasalliklari, tomirlar, taloq o'smalari, eklampsiya, gipertireoz, gipotireoz);

- infeksiyalar (virusli, bakterial, rikketsiozlarda, malyariya, toksoplazmoz, OIT-infeksiya);

- xomiladorlik, menstruatsiya;

- dori preparatlari ta'sirida (sitostatiklar, analgetik, antigistamin vositalar, antibiotiklar, psixotrop dorilar, diuretiklar, talvasaga qarshi preparatlar, vitamin K, rezerpin, digoksin, heparin, nitroglitserin, prednizolon, estrogen va x.k.);

- alkogol, og'ir tuzlar ta'siri;

- trombotsitlar yo'qotilishi kuchayishi natijasida yuzaga keladigan, trombotsitopeniyalar (trombotsitopenik purpura, gipersplenizm, TQTI-sindrom, qon ketishlar, gemedializ).

Qon plastinkalari eritrotsitlar guruxli spetsifikligiga mo keladigan, guruxli spetsifiklikka ega. Buni trombotsitar massa kuyishda e'tiborga olish zarur.

Retikulotsitlar (reticulocytus)

Norma 0,5–1,2% ($30\text{--}70 \times 10^9/\text{l}$)

Retikulotsitlar morfologiyasi va vazifalari

Retikulotsitlar – yosh eritrotsitlar bo'lib, normoblastlar yadrosini yo'qotganidan so'ng paydo bo'ladi. Retikulotsitlar supravitai bo'yalganda namoyon bo'luvchi, donali-to'rli substansiyaga ega.

Donali-to'rli strukturalar endoplazmatik to'r, RNK saqllovchi ribosoma va mitoxondriya qoldiqlarini tutishi elektron-mikroskopik aniqlangan. Retikulotsitlarda ma'lum darajada oqsil (globina), gem, purinlar, pirimidin nukleotidlari, fosfatidlar, lipidlar sintezlanadi, lekin RNK sintezlanmaydi. 2 kun davomida retikulotsit qonda aylanadi, keyin RNK si kamaygan sayin yetilgan eritrotsitga aylanadi.

Oddiy gemitologik usullarda bo'yalgan surtmalarda, retikulotsitlar kulrang-pushti rangda – polixromatofil.

Retikulotsitlarni xisoblash usullari

Xozirgi kunda retikulotsitlarni xisoblashni unifitsirlangan usuli, brilliant kretil ko'ki, azur I yoki azur II bilan bo'yalgandan keyin, bevosita oyna yoki prbirkada sanash keng qo'llaniladi.

1. *Usul prinsipi.* Eritrotsitlarni ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yagandan so'ng, donali-to'rli substansiyasini aniqlash va sanash.

2. *Reaktivlar:* a) brilliant kretil ko'kingin absolyut spirtda to'yintirilgan eritmasi (absolyut spirt tayyorlash uchun 96% li etanolni mis kuperosi kukunida ushlab turish kerak) 100 ml spirtga 1,2 g bo'yoq;

b) azur I eritmasi: azur I – 1 g, ammoniy oksalat – 0,4 g, natriy xlorid – 0,8 g, etil spiriti 96% – 10 ml, distillangan suv – 90 ml. Eritmani yopiq flakonda, 2–3 kunga termostatga 37 °S ga, ko'yiladi va vaqtiga bilan chayqatib turiladi. Keyin xona temperaturasigacha sovutiladi va qog'ozli filtrda filtrlanadi.

Eritma qora shishali idishda saqlanadi. Quyqa xosil bo'ladigan bo'lsa, eritma qaytadan filtrlanishi kerak;

v) azur II eritmasi: azur II – 1 g, natriy sitrat – 5 g, natriy xlorid – 0,4 g, distillangan suv – 45 ml. Eritma termostatda 37 °S da 2 sutkaga qoldiriladi, vaqtiga bilan chayqatib turiladi. Erishini tezlatish uchun bo'yoqni kuchsiz olovda 15-20 min davomida, qaynashgacha olib bormasdan qizitish mumkin. Xona temperaturasigacha sovutiladi va filtrlanadi.

Eritma qora shishali idishda saqlanadi

3. Bo'yoq oynasi:

- yaxshilab yuvilgan va yog'sizlantirilgan buyum oynasi gorelka alngasida qizdiriladi. Shisha tayoqcha bilan oynaga bo'qlardan biri tomiziladi va silliqlangan oynali bo'yoqdan sutma tayyorlanadi. Oynaning o'sha tomoni steklograf bilan markerlanadi. Oynani bu

Segment yadroli neytrofillar bir-biri bilan ingichka iplar orqali bog'langan, 2–5 segmentli yadroga ega.

Neytrophil leykotsitlarning yosh shakllari – tayoqcha yadroli neytrofillar – aloxida bo'laklarga bo'linmagan, tayoqcha yoki taqasimon yadroga ega.

Donalar (tuzilishi va kimyoviy tarkibiga ko'ra) bo'linadi:

1. *Azurofil* yoki birlamchi – xujayralar yetilgan sayin ularning soni kamayadi, yetilgan neytrofilarda umumiy donalarning 10–20 % ini tashkil etadi. Birlamchi lizosomalarning ko'rinishidan biri bo'lib, lizosomalar uchun tipik bo'lgan gidrolitik fermentlar – nordon fosfataza, β -glyukuronidaza, nordon β -glitserofosfatdehidrogenaza, nordon proteaza, arilsulfataza tutadi. Bundan tashqari, birlamchi bakteritsid ta'sirga ega bo'lgan, mieloperoksidaza va muromidaza (lizotsim) tutadi.

2. *Spetsifik neytrofil* yoki *ikkilamchi* – xujayra yetilgan sayin, ularning soni xam ortib boradi va yetilgan neytrafilarda oval yoki gantelsimon shaklga ega bo'ladi. Ularda lizosomal fermentlar va peroksidaza yo'q, lekin ishqoriy fosfataza asosiy kation oqsillari, fagotsitinlar, laktوفerrin, lizotsim, aminopeptidazalar mavjud.

Shunday qilib spetsifik neytrophil granulular markerlari bo'lib, ishqoriy fosfataza va kation oqsillari, azurofil granulalarda nordon fosfataza va mieloperoksidaza xizmat qilishi mumkin.

Neytrophil granulotsitlar yashash davri o'rtacha 14 kun, ulardan 5–6 kunida ular yetiladi va suyak ko'migi sinuslarida ushlanib qoladi, 30 minutdan 2 kungacha periferik qonda bo'ladi, 6–7 kun to'qimalarda saqlanadi va yana qonga qaytadi.

Neytrillarning eng asosiy vazifasi organizmni infeksiyalardan ximoya qilish xisoblanadi. Bu jarayon fagotsitoz, bakteritsid ta'sirga ega fermentlar ishlab chiqarish va xemotaksis (xujayralararo bazal membranalardan o'tish xususiyati va biriktiruvchi to'qimani asosiy muddasi bo'ylab, mikroorganizmlarga va yallig'lanish o'chog'iga yetib borish) dan iborat.

Neytrillarning biologik ahamiyati, ularning yallig'lanish o'chog'iga katta miqdorda turli proteolitik fermentlar olib borishi va nekrotik to'qimalar so'rilib jarayonlarida faol ishtirok etishi xisoblanadi.

Neytrophillar qonga bakterial va antitoksik xususiyatli moddalar, hamda, lixoradka chaqiruvchi, yallig'lanish jarayonini qo'llovchi pirogen moddalar ajratishi mumkin.

Neytrophil granulotsitlarda tromboplastin faollikka ega moddalar topilgan, ular tarkibidagi katepsin va tripsin esa fibrinoliz jarayonlarida ishtirot etadi.

Normada: yoshlari – umumiylar granulalarning 90 %ini tashkil etadi. Yumaloq tayoqchalarga ega. Neytrophillar leykotsitlarning eng o'zgaruvchan guruxi xisoblanadi. Neytrophillar sonining ortishi (neytrophilez), leykotsitlar umumiylar miqdori ortganda kuzatiladi:

- o'tkir yoki surunkali leykoz;
- o'tkir yallig'lanish jarayonlari;
- tayoqcha yadroli – 1–6 % ($0,040\text{--}0,300 \times 10^9/\text{l}$)
- segment yadroli – 47–72 % ($2,0\text{--}5,5 \times 10^9/\text{l}$)
- intoksiatsiyalar;
- shok;
- qon ketishlar;
- miokard infarkti;
- gemolitik krizlar.

Bunday xollarda tayoqcha yadroli neytrophillar ortishi, yetilmagan granulotsitlar (mielotsitlar, metamielotsitlar) aniqlanishi mumkin (leykotsitar formulaaning chapga siljishi).

Regenerator, degenerator va leykemoid neytrophillarning chapga siljish turlari farqlanadi.

Birinchi xolatda yuqoridagi o'zgarishlar - tayoqcha yadroli neytrophillar ortishi, leykotsitoz fonida yosh shakl (metamielotsitov) larini paydo bo'lishi kuzatiladi.

Degenerator siljishda leykotsitoz kuzatilmaydi, neytrophilida degenerativ o'zgarish bilan tayoqcha yadroli neytrophillar ortishi aniqlanadi (sitoplazma vakuolizatsiyasi, yadro piktozi va x.k.). *Regenerator* siljish organizmning ximoya reaksiyasi faol ekanligidan dalolat beradi, degenerator esa – bu xususiyat yo'qligidan. *Regenerator* siljish, yallig'lanish jarayoni yoki nekroz o'chog'i bor bo'lsa, ko'proq uchrashi aniqlangan.

Leykotsitoz bilan, promielotsitlar va xattoki mieloblastlargacha keskin siljish *leykemoid* reaksiya deyiladi. Odadta, organizm umumiylar

qarshiligi yuqori bo'lgan xolatda, og'ir infektion jarayon kuzatilsa (sepsis, peritonit, tuberkulez), xamda suyak ko'migiga metastaz bergen xavfli o'smalarda aniqlanadi.

Leykogramma o'ngga siljiganda 5–8 segmentli yetilgan shakllar ustunlik qiladi. 20 % sog'lom odamlarda xam o'ngga siljish uchrab turadi. Infektion kasalliklarda o'ngga siljish kasallikning yaxshi sifatli kechayotganidan dalolat beradi. Gipersegmentatsiya va tayoqcha yadroli neytrofillarning kamayishi permitsioz anemiya xam kuzatilishi mumkin.

Emotsional zo'riqishlarda, ovqat iste'mol qilgandan so'ng, gormonlar yuborilganda (katexolaminov, glyukokortikosteroidlar va, boshqalar.) qayta taqsimlanish leykotsitozi kuzatiladi, chunki neytrofillar devor oldi (marginal) pulpadan, markazga yo'naladi.

Neytropeniya – neytrofillar sonining $1,8 \times 10^9/l$ dan kamayishi. Neytropeniyaning qay darajada namoyon bo'lishi irqqa bog'liq bo'lishi mumkin: oq tanlidarda neytrofillarning $1,8 \times 10^9/l$ dan kamayishi, qora tanlidarda esa $1,4 \times 10^9/l$ dan kamayishi neytropeniya deyiladi.

Neytrofillar sonining kamayishi – *absolyut neytropeniya* – kuzatiladi:

- suyak ko'migi funksiyasini kamaytiruvchi bir qator mikrob (qorin tifi, malyariya, tuberkulez, brutsellez, salmonellez, leyshmanioz qo'zg'atuvchisi va x.k.) va virus toksinlari (gepatit, qizamiq, gripp, qizilcha, suvchechak, OIT) ta'sirida;

- suyak ko'migi funksiyasini kamaytiruvchi ionizirlovchi radiatsiya ta'sirida;

- suyak ko'migi funksiyasini kamaytiruvchi qator dori vositalari ta'sirida (sulfanilamidlar, analgetiklar, talvasaga qarshi, antitireoidlar, sitostatiklar

- revmatoid artrit, sistemali qizil yugurikda;
- aplastik va V12-tanqislik anemiyalar, agranulotsitozda;
- gipersplenizmda;
- nasliy shakllarida (Kostman sindromi, siklik neytropeniya).

Alkogolizm, diabet, og'ir shok xolati ham neytropeniya rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Eozinofillar (eosinophilus)

Norma: 0,5–5 % (0,020–0,300 x 10⁹/l)

Eozinofillar – ikki-, uch qavat yadro, sitoplazmasida yirik donalar tutuvchi yirik xujayralar. Xujayra diametri 15 mkm ga yaqin. Romanovskiy usuli bilan bo'yalganda donalari to'q-qizil eozin rangini oladi yoki ochroq bo'yaladi (go'sht rangi). Agar preparat qaytadan bo'yalsa, donalari jigarrang-qizil yoki jigarrang rangni oladi.

Oval yoki poligonal shakldagi spetsifik oksifil granulular, argininga boy asosiy oqsil, hamda gidrolitik fermentlar, neytrofil lizosomalari kabi peroksidaza va nordon fosfataza (yuza qismida), esteraza, gistograminaza tutadi.

Eozinofillar asosiy vazifasini qonda emas, to'qimalarda o'taydi.

Eozinofillar, boshqa gurux leykotsitlari qatori, fagotsitoz xususiyatigi ega, oqsil tabiatli maxsulotlar dezintoksikatsiyasida va organizmning allergik reaksiyalarida muxim rol o'ynaydi.

Eozinofillar gistogrammni, gistograminaza fermenti yordamida nofaol xolatga o'tkazadi. Eozinofillar gistogrammni bazofil va semiz xujayralardan ajralishini tormozlovchi maxsus omil ishlab chiqaradi.

Eozinofillarning gelmintozlarda immunitet rivojlanishiga ta'siri, bu xujayralarning killer (sitotoksik) effekti bilan bog'liq, shuning uchun gelmintozlardagi gipereozinofiliyani organizmning ximoya reaksiyasi deb qarash mumkin.

Eozinofiliya – eozinofillar sonining 5–6 % dan ortishi.

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- turli xil allergik kasalliklar va sindromlarda (bronzial astma, krapivnitsa, gelmintozlar, qichuvchi dermatitlar, ekzema, Kvinke shishida);
- nevroz;
- toksikoz;
- gelmintoz;
- limfogranulematoz;
- surunkali mieloleykozda (bazofiliya xam kuzatiladi);
- revmatizmda;
- ba'zi antibiotiklar va sulfanilamid preparatlar bilan davolanganda;
- sepsis, krupoz pnevmoniya va boshqa kasalliklardan tuzalish davrida.

Eozinopeniya –eozinofillar miqdorining kamayishi

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- o'tkir infektion kasalliklarning avj olish davrida;
- sepsis;
- tuberkulezning og'ir shakllari;
- tif;
- intoksikatsiyalarda;
- pernitsioz anemiyada.

Eozinopenivaning leykopeniya bilan birga uchrashi yomon belgi xisoblanib, qator kasalliklarda organizm umumiy qarshiligi pasayganidan dalolat beradi.

Bazofillar (basophilus)

Norma: 0–1 % ($0\text{--}0,065 \times 10^9/\text{l}$)

Bazofillar – diametri 9–14 mkm, bo'laklangan yadroli, noto'g'ri parrak shakldagi, to'q-siyoxrang xujayralar. Bazofillar sitoplazmasi yirik dumaloq yoki poligonal, Romanovskiy bilan ko'k rangga bo'yaluvchi granulalar bilan to'lgan. Granulalar heparin, gistamin, serotonin, peroksidaza, nordon fosfataza, gistikin dekarboksilaza (gistamin fermenti sintezi) tutadi. Azurofil granulalari – lizosomalari xam mavjud.

Bazofillar, eozinofil bilan bir qatorda organizmning allergik reaksiyalarida, xamda gistamin va heparin almashinuvida ishtirok etadi. Bazofillar va semiz xujayralarning vazoaktiv aminlari, qon tomirlar devorida immun komplekslar to'planishiga va immun komplekslar patologisi rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bazofillarning asosiy vazifikasi – sekin kechar va tez kechar tipli immunologik reaksiyalarda qatnashish. Bazofillarning fagotsitar aktivligi sust. Bazofillar to'qima almashinuvida kerakli mediatorlarning tashuvchisi xisoblanadi.

Bazofiliya kuzatiladi:

- yuqori sezgirlik bilan kechuvchi o'tkir reaksiyalarda (masalan, eshakemi tipidagi allergik reaksiyalar);
- begona zardoblar bilan vaksinatsiyada;
- gemofiliya;
- virusli kasalliklarda (suvchchechak, gripp);
- surunkali infeksiyalarda (tuberkulez);
- yallig'lanish jarayonlarida (revmatoid artrit, yarali kolit);

- surunkali mieloleykoz(eozinofiliya bilan birga), limfogranulematozda;

- estrogenlar, antitireoid preparatlar ta'sirida.

Bazofillar sonining kamayishi (*bazopeniya*) kuzatiladi:

- o'tkir infeksiyalarda;
- gipertireozda;
- ovulyasiya, xomidladorlikda;
- streslarda;
- Kushing sindromida va kortikosteroidlar ta'siri natijasida.

Limpfotsitlar (lymphocytus)

Norma: 19–37 % (1,200–3,000 x10⁹/l)

Limpfotsitlar – diametromi 7–12 mkm li, xujayraning katta qismini egallaydigan dumaloq yoki loviyasimon shaklli yadroga ega xujayralar. Sitoplazmasi, och-xavorangga bo'yaladi, donalarga ega emas. Yadrosining atrofida yorug' doirasi bor. Ba'zi limpфotsitlar sitoplazmasida bir necha gurux, yirik olcha-qizil (azurofil) rangli donalari (lizosomalari) bor.

Sog'lom odamlarda limpфotsitlarni to'rt guruxga bo'lish mumkin:

- yirik limpфotsitlar (10–12 % ga yaqin);
- kichik yorug' limpфotsitlar (73–77 %);
- kichik to'q rangli limpфotsitlar (12–13 % ga yaqin);
- limpoplazmotsitlar (1–2 %).

Qonda aylanuvchi *limfotsitlar*, turli vazifalarni bajaradi. Ularning asosiy qismi T-limpfotsitlarga mansub – 50–70 %, kichikroq qismini V-limpfotsitlar – 15–25 % tashkil etadi. Morfologik jixatdan odamda T- va V-limpfotsitlarni ajratib bo'lmaydi.

Timusga qaram limpфotsitlar (T-limpfotsity), timusda suyak ko'migining o'zak xujayralaridan xosil bo'ladi, xujayra immuniteti reaksiyalari va gumoral immunitetni boshqaradi. Immunologik reaksiyalardagi ishtirokiga qarab, T-limpfotsitlar ikki asosiy guruxga bo'linadi.

Birinchi guruxni tashkil etadi: immunologik xotira xujayralari, ya'ni yot antigenni tanib olib, immunologik reaksiyanı boshlanishiga signal beradi (antigen reaktiv xujayralar);

- T-killerlar (organizmning transplantat va mutant xujayralarini (masalan o'sma) yo'qotuvchi sitotoksik xujayralar.

Ikkinchigi guruxga V-limfotsitlarni boshqarib turuvchi T-limfotsitlar kiradi. Ulardan T-xelperlar va T-supressorlar:

- T-xelperlar (yordamchi) antigenni spetsifik tanib olish va antitelalarini xosil bo'lishini kuchaytirish xususiyatiga ega;

- T-supressorlar (siquvchi) V-limfotsitlarning antitelalarini xosil bo'lishida qatnashish xususiyatini pasaytiradi.

T-limfotsitlarning V-xujayralarga ta'siri, ularning antigenga ta'siridan xosil bo'ladigan eruvchan moddalar – limfokinlarga bog'liq.

V-limfotsitlar suyak ko'migining o'zak xujayralaridan, embrional jigarda xosil bo'ladi, kattalarda esa – suyak ko'migida. ularning asosiy vazifasi – gumoral immunitetni ta'minlash. V-limfotsitlardan xosil bo'ladigan effektor xujayralar – plazmotsitlar – ximoya oqsillari – immunoglobulinlar (antitela) ishlab chiqaradi.

Limfotsitlar tez xarakatlansadi va boshqa to'qimalarga xam o'tish xususiyatiga ega, u yerda ular uzoq vaqt saqlanishi mumkin. V limfotsitlarda DNK tarkibi RNK dan ko'proq, bu xujayraning spetsifik xususiyatlari, hamda antigen xaqida ma'lumot saqlashiga bog'liq. Bu ma'lumotning namoyon bo'lishi limfotsitlarning morfologik va submikroskopik organizatsiyasini o'zgartiradi.

Limfotsitoz – limfotsitlar sonining ortishi –

Ko'p kasalliklarda, xatto sog'lom insonlarda ham uchrashi mumkin. *Absolyut va nisbiy limfotsitoz* farqlanadi.

Absolyut limfotsitoz xarakterli:

- O'tkir va surunkali limfoleykozga (70–90 %);
- virusli infeksiyalar, infektion mononukleoz sindromi;
- bakterial infeksiyalar (qizamiq, qizilcha, qoqshol, tuberkulez);
- yurak qon-tomir yetishmovchiligi; revmatoid artrit;
- tireotoksikozda va x.k.

Nisbiy limfotsitoz gripp, virusli hepatitda, qorin tifida, sifilis, toksoplazmoza, malyariya, o'tkir infektion kasalliklardan tuzalish davrida.

Limfotsitopeniya kuzatiladi:

- nur kasalligida;

- limfatik apparatni tizimli zararlanishlarida (limfogranulematoz, limfosarkoma);
- OITSda - spetsifik simptom;
- kortikosteroid terapiya ta'sirida, immunodepressantlar qabul qilganda.

Monotsitlar (monocytus)

Norma: 3–11 % ($0,090\text{--}0,600 \times 10^9/\text{l}$)

Monotsitlar – noto'g'ri shakldagi yadroga ega, eng yirik xujayralar (diametri 20 mkm ga yaqin). Boshqa leykotsitlar bilan taqqoslaganda monotsitlar sitoplazmasi, kulrang-xavorang bo'lib, katta joyni egallaydi; yadro atrofida dumaloq yorug'lik yo'q.

Qonda monotsitlar qisqa vaqt bo'ladi, keyin to'qimalarga o'tadi va makrofaglarga transforatsiyalanadi, katta miqdordagi lizosomalar, fagosoma, fagolizosomalari paydio bo'ladi. Mononuklear fagotsitlarning vazifasi – organizmnning turli ximoya reaksiyalarida ishtirok etish, (qisman gumoral va xujayra immunitetida xam) qon xosil bo'lishiga ta'sir etuvchi, turli omillar ishlab chiqarish. Tarkibida yuqori miqdorda lipaza saqlagani uchun, monotsit makrofaglar lipid qobiqli mikroorganizmlarga faol ta'sir qiladi.

Monotsitoz – monotsitlar sonining ortishi – immun jarayonlar rivojlanish ko'rsatkichi bo'lib xisoblanadi, faqat absolyut monotsitzda (neytropeniya xisobiga emas).

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- qator infektion kasalliklarda (sepsis, tuberkulez, malyariya, sifilis, infektion endokardit, sarkoidoz, nospetsifik yarali kolit);
- biriktiruvchi to'qimaning sistemali kasalliklarida (revmatizm, SQV), 50 % xollarda – sistemali vaskulitda;
- qon kasalliklarda (o'tkir va surunkali monotsitar leykoz, ba'zan – limfogranulematozda).

Monotsitlarning absolyut miqdori ortishi – infektion mononukleozda kuzatiladi.

Monotsitopeniya – monotsitlar sonining kamayishi –

Quyidagi xolatdarda kuzatiladi:

- qorin tifining gipertoksik shaklida va boshqa infeksiyalarda;

- glyukokortikosteroidlar ta'siri natijasida yuzaga kelgan, aplastik anemiyalar

- og'ir septik xolatlar;

Leykotsitar formula xisoblanganda faqatgina miqdoriy siljishiga emas, shaklli elementlarning sifatiy o'zgarishlariga xam e'tibor berish kerak.

Boshqa xujayra elementlaridan ahamiyatga ega:

plazmotsit (plasmocytus) – immunoglobulin ishlab chiqaruvchi, limfold to'qima xujayrasi. G'ildiraksimon shaklli yadro va keskin bazofil vakuolizirlangan sitoplazmaga ega.

Sog'lom odamda plazmotsitlar, suyak ko'migi va limfatik to'qimalarda, kamroq – periferik qonda bo'ladi.

Qonda turli infeksion va yallig'lanish jarayonlarida, virusli infeksiyalarda (qizamiq, skarlatina, qizilcha, qoqshol, virusli hepatit, adenovirus infeksiya, infeksion mononukleoz), o'smalarda, zardob kasalligi, kollagenozlarda, nurlanishdan keyin oz miqdorda (0,5–3 %) ortadi.

LE- xujayra fenomeni quyidagilardan iborat: gematoksilin tanachalari, «rozetkalar» va LE- xujayralari. Yuqoridagilardan eng ahamiyatga moyili LE- xujayralarini topilishi xisoblanadi.

LE - xujayra (qizil yugurik xujayralari, Xargreyvs xujayralari) – yetilgan granulotsitlar bo'lib, yadrosi boshqa xujayraning fagotsitlangan yadroli moddasi blian, periferiyaga siqilgan. Quyidagi xolatlarda kuzatiladi:

- sistemali qizil yugurikda (80 % kasallarda);
- revmatoid artritda;
- o'tkir hepatitda;
- sklerodermiya;
- dorivor moddalarga (talvasaga qarshi preparatlar, prokainamid, metildopa qabul qilganda).

Bolalarda leykotsitar formulaning o'ziga xosligi

Leykotsitlar soni emizikli bolalardau o'rtacha $11 \times 10^9/l$ dan $16 \times 10^9/l$ gacha tebranib turadi. Bu vaqtida leykotsitlar soni yuqoriroq.

1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning leykotsitar formulasi % da (A.F. Tur bo'yicha)

yoshi	neytrophillar	eozinofillar	monotsitlar	limfotsitlar
1-2	34,5	2,5	11,5	50,0
2-3	36,5	1,5	10,0	51,5
3-4	38,0	1,0	10,5	49,0
4-5	45,0	1,0	9,0	44,5
5-6	43,5	0,5	10,0	46,0
6-7	46,5	1,5	9,5	42,0
7-8	44,5	1,0	9,0	45,0
8-9	49,5	2,0	8,5	39,5
9-10	51,5	2,0	8,0	38,5
10-11	50,0	2,5	9,5	36,6
11-12	52,0	2,0	8,0	36,0
12-13	53,5	2,5	8,5	35,0
13-14	56,5	2,5	8,5	32,0
14-15	60,5	2,0	9,0	28,0

Bazofillar soni 1 % dan oshmaydi va o'rtacha 0,5 % ni tashkil etadi. Plazmatik xujayralar – 0 % dan 0,1 % gacha.

Eritrotsitlarning cho'kish tezligi (SOE)

erkaklar – 2–10 mm/soat

ayollar – 2–15 mm/soat

Eritrotsitlarning cho'kishi – bu eritrotsitlarni, qonni ivimaydigan xolatda saqlaganda, tomir tubida cho'kishi.

Avval o'zaro bir-biri bilan bog'lanmaganelementlar cho'kadi, so'ngra ularning aglomeratsiyasi – guruxlarga birikishi kuzatiladi, katta kuch ta'sirida ular tezroq cho'kadi. Aglomeratsiya jarayonida plazmaning oqsil komponentlari (globulinlar, fibrinogen) va mukopolisaxaridlar qatnashadi. Shuning uchun, yuqoridagi komponentlarning oshishiga olib keluvchi jarayonlar, EChT ni tezlashishi bilan kechadi.

EChT ni aniqlash usullari

Eng keng qo'llaniladigani, EChT ni Panchenkov usuli bo'yicha aniqlash xisoblanadi.

Tekshirish shtativ va maxsus graduirlangan kapillyarlardan tashkil topgan Panchenkov apparatida olib boriladi.

- toza kapillyar natriy sitratning 5% li, 3 marta aralashtirilgan eritmasi ($C_6H_5O_7Na_3 \cdot 2O$), bilan chayiladi, keyin eritmaning 25 mkl miqdori olinib («75» belgisigacha) probirkaga quyladi;

- barmoqdan kapillyarni to'la qilib qon olinadi («0» belgisigacha, 100 mkl ga teng) va qon sitratli probirkaga quyladi. Qon va sitrat nisbati 4:1 bo'ladi.

- yaxshilab aralashtirilib, aralashma kapillyarning «0» belgisigacha olinadi va shtativga vertikal qilib, qon sizib chiqmasligi uchun ikkita rezinali prokladkalar orasiga qo'yiladi;

- bir soatdan keyin plazmaning cho'kkani qavati balandligiga qarab, cho'kish tezligi aniqlaniladi, millimetrlarda.

EChT ortishi (tezlashishi) kuzatiladi:

- o'tkir va surunkali infeksiyalarda;
- to'qimalar yallig'lanishi va nekrozida;
- biriktiruvchi to'qima kasalliklarida;
- anemiyalarda;
- tuberkulez;
- buyrak kasalliklari;
- surunkali aktiv gepatit, jigar sirrozida;
- shok, travmalar, operatsiya muolajalarida;
- intoksikatsiyalar, kimyoviy birikmalar bilan zaxarlanganda;
- xavfli o'smalarda;
- paraproteinemik gemoblastozlarda (mielom, Valdenstrem kasalligi va x.k);
- gipertireoz, gipotireozda;
- xomiladorlik, tug'ruqdan keyin, menstruatsiya vaqtida;
- dori preparatlari ta'sirida (morphin, metildopa, vitamin A, peroral kontratseptivlar).

EChT pasayishi (sekinlashishi) kuzatiladi:

- eritrotsitozlarda;
- qon aylanishining surunkali yetishmovchiligidagi;

- anafilaktik shokda.

EChT mustaqil diagnostik simptom bo'lib xisoblanmaydi, lekin jarayonning faolligi xaqida ma'lumot beradi. EChT doimam faollikning boshqa ko'rsatkichlari bilan birga paralel o'zgarmaydi. U masalan, appenditsit yoki miokard infarktida leykotsitoz va t° ko'tarilishidan kechroq paydo bo'ladi, ularga nisbatan sekinroq normallashadi. EChT ni klinik baxolaganda uni kasallik dinamikasida, davolash davrida o'zgarishi ahamiyatga ega.

Normal EChT kasallikni istisno qilmaydi, lekin sog'lom odamlarda EChT yuqori bo'lmaydi.

Trombotsitlar (thrombocytus)

Norma $180\text{--}320 \times 10^9/\text{l}$ ($200\text{--}400 \times 10^9/\text{l}$)

Trombotsitlar (qon plastinkalari) – 2–4 mkm diametrli, yadrosiz xujayralar bo'lib, suyak ko'migi megakariotsitlar sitoplazmasining «qoldiqlari» xisoblanadi.

Trombotsitlar morfologiyasi

Sog'lom odam qoni, yorug'lik mikroskopida ko'rildganda (Romanovskiy – Gimza usuli bilan bo'yalganda) trombotsitlarning to'rtta asosiy guruxi farqlanadi:

1. Normal (yetilgan) trombotsitlar ($87,0 \pm 0,13 \%$) – dumaloq yoki oval shaklda diametri 3–4 mkm; och-xavorang tashqi zonası (gialomer) va markaziy azurofil donali (granulomer) zonası bor.

2. Yosh (yetilmagan) trombotsitlar ($3,20 \pm 0,13 \%$), bir nechta yirik o'lchamli, bazofil sitoplazmali, azurofil granulyasiya (mayda va o'rta) ko'proq markazda joylashadi.

3. Eskirgan trombotsitlar ($4,10 \pm 0,21 \%$) dumaloq, ovalnoy, tishsimon shaklli, to'q rangli «sitoplazmaning» ingichka xoshiyasi bilan, ko'plab qo'pol granulyasiya saqlaydi, ba'zan vakuolalar kuzatilishi mumkin.

4. Qo'zg'algan shakllari ($2,50 \pm 0,1 \%$) yirik o'lchamli, cho'zinchoq, kolbasasimon, dumli, «sitoplazma» si xavorang yoki pushti, azurofil donadorligi yoyilgan yoki notekis tarqalgan.

Trombotsitlar gialomeri (plastinka asosi) uch qavatlari membrana bilan cheralarangan. Xujayra membranasi invaginatsiyalaydi va ko'plab kanallar to'riga birikadi (ochiq kanal tizimi – OKT), ular trombotsitlar ichida zich to'r xosil qiladi. Tashqi xujayra qobig'i va OKT,

trombotsitlar adgeziya va agregatsiyaisda muxim rol o'ynovchi glikoproteinlar bilan to'yintirilgan.

Trombotsitlar sitoplazmasida 4 xil, turli struktura, shakl va o'Ichamga ega granulalar bor, ular qon plastinkasida bir tekis taqsimlangan yoki ko'pincha markazida to'plangan (granulomer). Ko'p miqdordagi α -granulalar, koagulyasiya, yallig'lanish, immunitet va reparatsiya mexanizmlarida qatnashuvchi trombotsitospetsifik peptidlar tutadi. Lizosomal granulalar gidrolitik fermentlar, peroksisomalar esa – katalaza tutadi.

Trombotsitlar vazifalari

- trombotsitlaradgeziya va agregatsiyasi xisobiga, tezlik bilan gemostazni ishga tushirish, bu trombotsitar tiqinlar xosil bo'lishiga olib keladi;
- zararlangan soxaga qon kelishini kamaytiradigan, maxalliy vazokonstriktorlarni ajratadi;
- ivishning gumoral sistema kataliz reaksiyalari, oxirgi bosqichlarda fibrin laxtalari xosil bo'lishi bilan;
- maxalliy yallig'lanish reaksiyalari va immunitetni boshqarish.

Stimullanmagan trombotsitlar silliq diskoid xujayralar ko'rinishida(ozgina metabolik faollikka ega) sirkulyasiya qiladi. Bunday trombotsitlar qonning boshqa shaklli elementlari yoki endoteliy xujayralari monoqavati bilan o'zaro axamiyatli ta'sirlashmaydi.

Trombotsitlarning fiziologik faolligi, qachon tomir endoteliysi shikastlansa va subendotelial xujayra ichi matriksi yo'qolganda boshlanadi. Trombotsitar membranada qo'zg'alish to'lqinlari yuzaga keladi va katta miqdorda,kalta, ipsimon psevdopodiy yoki filopodiylar shakllanadi. Ushbu jarayon natijasida membrana yuzasi satxi kattalashadi, bu esa gumoral sistema kataliz reaksiyalari uchun muxim.

Megakariotsitlar α -granulalarda ivish omillari V, VIII, XIII va fibrinogenni sintezlaydi va depolaydi, ular trombotsitlar follashganda mikromuxitga ajralib chiqadi. Trombotsitar membranalar qon ivishining spetsifik reaksiyalarida xam ma'lum darajada ishtirok etadi.

Trombotsitlarni xisoblash usullari

Trombotsitlarni xisoblashni eng ko'p tarqalgan usuli - Fonio usuli (surtma tayyorlanib, Romanovskiy – Gimza usulida bo'yaladi; 1000 eritrotsit sanalganda uchragan, trombotsitlar miqdori xisoblanadi).

Trombotsitlarni Goryaev kamerasida xisoblash usuli xam mavjud: qon 1% li ammoniy oksalat, yoki 5–7% li trilona B (qon ivishini va qon plastinkalari agglyutinatsiyasini oldini olish maqsadida) eritmasi bilan aralashтирилди, kamera to‘ldiriladi va trombotsitlar odatdagidek xisobланади. Trombotsitlarni lyuminessent mikroskop yordamida xisoblash kam qo‘llанилади.

Xozirgi kunda trombotsitlarni elektron-avtomatik xisoblagichlarda sanash ishochli usul xisobланади (laborator taxlillarni tasdiqlash uchun, periferik qon taxlilini tekshirish zarur).

Trombotsitov Fonio usuli yordamida miqdoriy aniqlash

- Panchenkov kapillyari bilan 14% li magniy sernokisliy yoki 6% li etilendiamintetraatsetat (EDTA) eritmasidan 25 mkl olinadi («75» belgisigacha) va probirkaga quyiladi;
- barmoqdan kapillyarni to‘la qilib qon olinadi («0» belgisigacha, 100 mkl ga teng) va qon probirkaga quyiladi;
- probirkani yaxshilab chayqatib, aralashmadan surtma tayyorланади, fiksatsiyalanadi va Romanovskiy – Gimza usuli bilan bo‘yaladi. Agar stabilizator sifatida magniy sernokisliy eritmasi olingan bo‘lsa, bo‘yash davomiyligi 2–3 soatni, EDTA eritmasi ishlataligan bo‘lsa – 30–45 minutni tashkil etadi;
- surtma chetiga – ingichka qismiga – immersion yog‘ suriladi;
- 1000 eritrotsit sanalganda uchragan, trombotsitlar miqdori xisobланади

1 mkl qondagi eritrotsitlarni va 1000 eritrotsitga to‘g‘ri keladigan trombotsitlar sonini bilib, 1 mkl qondagi trombotsitlarni sanash mumkin.

Trombotsitlarning miqdoriy tarkibi

norma: $180\text{--}320 \times 10^9/\text{l}$ ($200\text{--}400 \times 10^9/\text{l}$)

Trombotsitlar soni ortadi:

- mieloproliferativ jarayonlarda (eritremiya, mielofibroz);
- surunkali yallig‘lanish kasalliklari (bo‘g‘imlarning revmatoid shikastlanishi, yarali kolit,tuberkulez, osteomielit, jigar sirrozi);
- yomon sifatli xosilalar (rak, limfoma, limfogranulematoz);
- qon ketish, gemolitik anemiya;
- megaloblastik anemiyalardan tuzalish davri;
- operatsiyalardan keyin;

- splenektomiyadan keyingi xolat;
- kortikosteroidlar bilan davolanganda.

Trombotsitlar sonining kamayishi (trombotsitopeniya):

• trombotsitlar xosil bo‘lishining kamayishi bilan bog‘liq, nasliy trombotsitopeniyalar (tug‘ma trombotsitopeniya, Uiskott – Oldrich sindromi, Bernar – Sule sindromi, Chediak – Xigasi anomaliyasi, Fankoni sindromi, YaTCh lar qizilchasi, gistiotsitoz);

• qon kasalliklari (aplastik anemiya, megaloblast anemiyalar, leykozlar);

• suyak ko‘migi zararlanishi (saraton metastazlari, sil bilan zararlanishi, ionizirlovchi nurlanish);

• boshqa kasalliklar (siklik trombotsitopeniya, paroksizmal kechki gemoglobinuriya, gemolitiko-uremik sindrom, buyrak yetishmovchiligi, jigar kasalliklari, tomirlar, taloq o’smalari, eklampsiya, gipertireoz, gipotireoz);

• infeksiyalar (virusli, bakterial, rikketsiozlarda, malyariya, toksoplazmoz, OIT-infeksiya);

- xomiladorlik, menstruatsiya;

• dori preparatlari ta’sirida (sitostatiklar, analgetik, antigistamin vositalar, antibiotiklar, psixotrop dorilar, diuretiklar, talvasaga qarshi preparatlar, vitamin K, rezerpin, digoksin, heparin, nitroglitserin, prednizolon, estrogen va x.k.);

- alkogol, og‘ir tuzlar ta’siri;

• trombotsitlar yo‘qotilishi kuchayishi natijasida yuzaga keladigan, trombotsitopeniyalar (trombotsitopenik purpura, gipersplenizm, QTQ-sindrom, qon ketishlar, gemedializ).

Qon plastinkalari eritrotsitlar guruxli spetsifikligiga mo keladigan, guruxli spetsifiklikka ega. Buni trombotsitar massa kuyishda e’tiborga olish zarur.

Retikulotsitlar (reticulocytus)

Norma 0,5–1,2% ($30\text{--}70 \times 10^9/\text{l}$)

Retikulotsitlar morfologiyasi va vazifalari

Retikulotsitlar – yosh eritrotsitlar bo‘lib, normoblastlar yadrosini yo‘qotganidan so‘ng paydo bo‘ladi. Retikulotsitlar supravital bo‘yalganda namoyon bo‘luvchi, donali-to‘rli substansiyaga ega.

Donali-to'qli strukturalar endoplazmatik to'r, RNK saqlovchi ribosoma va mitoxondriya qoldiqlarini tutishi elektron-mikroskopik aniqlangan. Retikulotsitlarda ma'lum darajada oqsil (globina), gem, purinlar, pirimidin nukleotidlari, fosfatidlar, lipidlar sintezlanadi, lekin RNK sintezlanmaydi. 2 kun davomida retikulotsit qonda aylanadi, keyin RNK si kamaygan sayin yetilgan eritrotsitga aylanadi.

Oddiy gemitologik usullarda bo'yagan surtmalarda, retikulotsitlar kulrang-pushti rangda – polixromatofil.

Retikulotsitlarni xisoblash usullari

Xozirgi kunda retikulotsitlarni xisoblashni unifitsirlangan usuli, brilliant kretil ko'ki, azur I yoki azur II bilan bo'yalgandan keyin, bevosita oyna yoki prbirkada sanash keng qo'llaniladi.

1. *Usul prinsipi.* Eritrotsitlarni ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yagandan so'ng, donali-to'qli substansiyasini aniqlash va sanash.

2. *Reaktivlar:* a) brilliant kretil ko'kingin absolyut spirtda to'yintirilgan eritmasi (absolyut spirt tayyorlash uchun 96% li etanolni mis kuperosi kukunida ushlab turish kerak) 100 ml spirtga 1,2 g bo'yoq;

b) azur I eritmasi: azur I – 1 g, ammoniy oksalat – 0,4 g, natriy xlorid – 0,8 g, etil spirti 96% – 10 ml, distillangan suv – 90 ml. Eritmani yopiq flakonda, 2–3 kunga termostatga 37 °S ga, ko'yiladi va vaqtiga vaqt bilan chayqatib turiladi. Keyin xona temperaturasigacha sovutiladi va qog'ozli filtrda filtrlanadi.

Eritma qora shishali idishda saqlanadi. Quyqa xosil bo'ladigan bo'lsa, eritma qaytadan filtrlanishi kerak;

v) azur II eritmasi: azur II – 1 g, natriy sitrat – 5 g, natriy xlorid – 0,4 g, distillangan suv – 45 ml. Eritma termostatda 37 °S da 2 sutkaga qoldiriladi, vaqtiga vaqt bilan chayqatib turiladi. Erishini tezlatish uchun bo'yoqni kuchsiz olovda 15-20 min davomida, qaynashgacha olib bormasdan qizitish mumkin. Xona temperaturasigacha sovutiladi va filtrlanadi.

Eritma qora shishali idishda saqlanadi

3. Bo'yoq oynasida:

- yaxshilab yuvilgan va yog'sizlantirilgan buyum oynasi gorelka alngasida qizdiriladi. Shisha tayoqcha bilan oynaga bo'qlardan biri tomiziladi va silliqlangan oynali bo'yoqdan sutma tayyorlanadi. Oynaning o'sha tomoni steklograf bilan markerlanadi. Oynani bu

xolatda ko'plab tayyorlab qo'yish va quruq salqin joyda saqlash mumkin;

- shu usulda tayyorlangan oynaga, qon tomchisi tomiziladi, yupqa surtma tayyorlanadi va shu zaxoti nam kameraga joylashtiriladi. Buning uchun chetlariga ozgina xo'llangan marli yoki paxta valiklari qo'yilgan, qopqoqli Petri kosachasidan foydalilanildi;

- nam kamerada surtma 3–5 min davomida ushlanadi, so'ngra xavoda quritiladi. Zernisto-setchataya retikulotsitlarning donador-to'rli substansiysi, eritrotsitlarning yashil-xavorang fonida aniq ajralib, siyoxrang-ko'k rangga bo'yaladi.

Probirkada bo'yash:

- 1-usul: ishlatishdan oldin probirkada, 1% kaliy oksalat eritmasiga, 4 tomchi bo'yoq eritmasi nisbatida, brilliant krezil ko'kin ishchi eritmasi tayyorlaniladi

Bo'yoqqa 40 mkl qon qo'shiladi (ikkita pipetka, 0,02 belgisigacha). Aralashmani yaxshilab, lekin extiyotkorlik bilan aralashtirilib, 30 min ga qoldiriladi. Yana aralashtiriladi va ingichka sutmalar tayyorlanadi;

- 2-usul: probirkaga 0,05 ml bo'yoq eritmasi va 0,2 ml qon solinadi. Aralashtiriladi va 20–30 min ga qoldiriladi. Yana aralashtiriladi va ingichka sutmalar tayyorlanadi;

- 3-usul: probirkaga 0,3–0,5 ml bo'yoq eritmasi va Panchenkov apparati pipetkasi bilan 5–6 tomchi qon olinadi. Probirka rezinali probka bilan yopiladi, Aralashmani yaxshilab, lekin extiyotkorlik bilan aralashtirilib 1–1½ soatlarga qoldiriladi (retikulotsitlar 1½ ch –3 s ekspozitsiyada yaxshi bo'yaladi. Yana aralashtiriladi va ingichka sutmalar tayyorlanadi;

4. Ryetikulotsitlarni xisoblash.

Surtmalarda eritrotsitlar sariq-yashil rangga, donador-to'rsimon substansiya esa – ko'k yoki ko'k-siyoxrangga bo'yalgan.

- Yuqoridagi usullar yordamida tayyorlangan surtma immersion ob'ektivli mikroskop ostida ko'rildi.

Retikulotsitlarning miqdoriy tarkibi

norma: 0,5–1,2 % (30–70 x 10⁹/l)

Retikulotsitlar sonining ortishi kuzatiladi:

- Qon yo'qotilganda (ayniqsa o'tkir);
- gemolitik anemiyalarda, ayniqsa kriz davrida (20–30 % gacha);
- megaloblast anemiyani vitamin V12 bilan davolaganda (retikulotsitar kriz – retikulotsitlar sonining davolanishning 4–8-kuni ortishi).

Retikulotsitlar sonining kamayishi xarakterli:

- aplastik va gipoplastik anemiyalar;
- davolanmagan megaloblast anemiya;
- nur kasalligi;
- sitostatik preparatlar qabul qilganda.

KO'P TOMIR ICHIDA QON IVIB QOLISHI (DVS-SINDROM)

I Mikrotsirkulyator o'zan trombozi yoki qonning ko'plab tomirlar ichida ivib qolish sindromi mikrotsirkulyator o'zanda bir talay mayda-mayda tromblar paydo bo'lishi, gemorragik diatez boshlanishi va odamning qon ketib turishiga moyil bo'lib qolishi bilan ta'riflanadigan patologik jarayondir. Bu sindrom qon ivituvchi sistemasining faolligi kuchayib, butun mikrotsirkulyator o'zanda fibrin cho'kib tushishi natijasida paydo bo'ladi.)

Bu sindrom turli kasalliklar va patologik jarayonlarning asoratidir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) homiladorlik asoratlari: odatdagicha joylashgan yo'ldoshning vaqtidan ilgari o'rnidan ko'chishi, ona qornida o'lib qolgan bola jasadining qorinda uzoq turib qolishi, septik abort, qog'onoq suvlari emboliyasi, toksemiya (gestozlar) .

2) infeksiyalar sepsis, meningokokkemiya, bezgak.

3) o'smalar: me'da osti bezi, prostata, o'pka, me'da karsinomasi; o'tkir promielotsitar leykemiya.

4) to'qimalarning ko'plab zararlanishi: travma, badan kuyishi, katta-katta jarrohlik operatsiyalari.

5) har xil jarayonlar: to'g'ri kelmaydigan qonni kuyish, shok, vaskulitlar, jigar kasalliklari.

Tromboz boshlanishi qanday mexanizmlarga bog'liq bo'lsa, qonning ko'p tomirlar ichida ivib kolish DVS sindromi ham asosan xuddi shunday mexanizmlarga bog'likdir, xususan bunga sabab bo'ladi:

1) aylanib turgan qonga to'qima omili ajralib chiqishi (qon ivishining tashqi mexanizmi),

2) ichki mexanizmning faollashuvi;

3) qon oqimining sekinlashib qolishi va staz;

4) qonni ivituvchi faol omillar hosil bo'lishida kamchilik borligi;

5) fibrinoliz yetishmovchiligi.

DVS da to'qima omili, masalan, homiladorlik asoratlarida yo'ldoshdan, qorinda o'lib qolgan bola jasadidan, promielotsitar leykemiyada leykoz hujayralarining sitoplazmatik donalaridan, mutsin ajratib turadigan adenokarsinoma hujayralaridan chiqishi mumkin.

Arteriolalar va kapillyarlarning endoteliysi zararlanishi tufayli koagulyasiya kuchayishi mumkin, bunday hodisa antigen-antitelo kompleksi cho'kib tushganida, gipertermiya, vaskulitlar mahalida, mikroorganizmlarning endotoksinlari ta'sir etgan paytlarda kuzatiladi. Shok, gipoksiya, atsidoz ham endoteliy zararlanishiga olib kelishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, endoteliyning zararlanishi, bir tomonidan, trombotsitlar agregatsiyasiga (kollagen yalong'ochlanib qolishi natijasida), ikkinchi tomonidan, XII omil faolligi kuchayishiga yo'l ochadi.

DVS sindromida uning qanday mexanizmga bog'liq bo'lishidan qat'iy nazar qiyidagi: kuzatiladi:

1) mikrotsirkulyator o'zanda hamma yerga fibrin cho'kib tushadi, bu narsa organ, to'qimalar ishemiyasiga va gemolizga olib boradi/ chunki eritrotsitlar fibrin iplari orqali o'ta turib, zararlanadi (mikroangiopatik gemolitik anemiya);

2).trombotsitlar soni va ivish omillari kamayishi natijasida gemorragik diatez boshlanishi. Shuni aytib o'tish kerakki, plazmin, fibrin parchalanishiga (fibrinolizga) sabab bo'-lish bilangina qolmay, balki V va VIII omillarni ham hazm qilib, ularning konsentratsiyasini pasaytirib yuboradi. Fibrinoliz natijasida fibrin parchalanishidan xosil bo'ladigan mahsulotlar trombotsitlar aggregatsiyasiga susaytiruvchi (ingibirlovchi) ta'sir ko'rsatadi, antitrombin faollikka ega bo'lib, fibrinning polimerlanishini susaytiradi.

Bu omillarga birinchi navbatda kiradi: to‘qima tromboplastini, to‘qimalar va shaklli elementlarning yemirilish maxsulotlari, shikastlangan tomir endoteliysi fragmentlari(ichki qavati) .

TQTI-sindrom o‘tkir, avj oluvchi, cho‘zilgan va yashirin bo‘lishi mumkin.

Tasnifi:

I bosqich - giperkoagulyasiya va trombotsitlar agregatsiyasi.

II bosqich – o‘tib ketuvchi. Bu bosqichda rivojlanuvchi koagulopatiya, trombotsitopeniya kuzatiladi.

III bosqich – chuqur gipokoagulyasiya bosqichi.

IV bosqich - tiklanish.

TQTI-sindrom klinikasi asosiy kasallik simptomlari,sababi, shok belgilari, gemostaz buzilishlari, tromboz, qon ketishlar, gipovolemiya va anemiya, a’zolardagi distrofik o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. TQTI-sindrom qanchalik o‘tkir bo‘lsa, giperkoagulyasiya bosqichi shuncha qisqa davom etadi.

TQTI-sindrom diagnostikasi:

Ўткир ТҚТИ-синдром диагностикаси шу билан осонроқки, баъзи патологияларда у гемостаз бузилишининг ягона шакли хисобланади. Шок ва терминал холатларда, сепсиснинг оғир шаклларида, массив травмаларда, куйишда, ўткир томир ичи гемолизида, диссеминирланган томир ичи қон ивиши касалликнинг доимий, ажралмас булаги хисобланади. Ушбу патологиянинг барча турларида ТҚТИ-синдромни асосий касаллик билан бирга диагностика қилинади ва дарров даволашни бошлашади.

ТҚТИ-синдромнинг бошлангич лаборатор диагностикаси бемор ётган холатда – қон ивиш вақти, протромбин ва тромбин вақт (хосил бўлайтган лахта сифатини аниқлаш билан бирга), тромбоэластограмма шакллари ва параметрларининг ўзгариши, паракоагуляцион тест кўрсаткичлари, тромбоцитлар миқдори динамикаси хисобланади. Бу бирламчи маълумотлар, янада аникроқ стандартлашган тестлар – аутокоагуляцион тест, фибриноген maxsulotларини аниқлаш билан тўлдирилади. Эрта диагностикаси ва беморни тўғри даволаш учун, антитромбина III, бемор плазмасини гепаринга сезирлиги ахамиятга эга.

Peshob klinik taxlili

Peshob (urina) – tarkibida organizmdagi moddalar almashinuvining oxirgi maxsulotlarini ajratuvchi, biologik suyuqlik. Peshob buyrak koptokchalarida qon plazmasining filtratsiyasidan va plazmadagi ko'plab erigan moddalarning, kanalchalarda suvning qayta qo'rilişidan xosil bo'ladi.

Peshob xosil bo'lish mexanizmi

I bosqich – qon plazmasining nefronning kapillyar koptokchalarida so'rilişi va ultrafiltrat xosil bo'lishi.

II bosqich – nefron kanallarida suv, ionlar, glyukoza va boshqa moddalar reabsorbsiyasi, siyidik kislota, N⁺-ionlari va x.k sekretsiyasi.

Peshobni tekshirish shifokorga tashxis qo'yish va kasallik kechishini kuzatish uchun kerak. Buyrak va siyidik yo'llarida kechuvchi turli xil patologik jarayonlar siyidik xossalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, organizm jaroxatlanganda, almashinuvning turli qoldiq mvxsulotlari qonga tushadi, buyraklar bilan ajralib, peshob orqali chiqariladi. Ularning aniqlanilishi muxim diagnostik axamiyatga ega.

Peshobni tekshirish fizik xususiyatlari, kimyoviy tarkibini aniqlash va peshob cho'kmasini mikroskopik o'rganishdan iborat.

Tekshirish uchun tashqi jinsiy a'zolari tozalangandan so'ng, ertalabki (konsentratsiyalangan) peshobning xamma porsiyasi olinadi. Peshob toza, yog'sizlantirilgan, quruq idishga yig'iladi, sovuq joyda saqlanishi kerak. Mikroskopik tekshiruv, siyidik olinganidan keyin 2 soat ichida o'tkazilishi kerak.

Peshobning fizik xususiyatlari

Miqdori

Oddiy, aralash ovqatlanishdagi, katta odamda, peshobning sutkalik miqdori – sutkalik diurez (diuresis) 800 - 1500 ml atrofida tebranib turadi. Bolalarda 2-3ml/tv ga soatiga to'g'ri keladi. Sutkalik diurezni aniqlash uchun, sutka davomida qabul qilinayotgan suyuqlik miqdori va peshob miqdori taqqoslanadi. Normada qabul qilinayotgan suyuqlik xajmidan 60-80% i chiqariladi.

Poliuriya (polyuria) – sutkalik siyidik miqdorining ortishi (sutkada 2000 mldan ortiq).

- Fiziologik: ko'p suyuqlik qabul qilish, nerv qo'zg'alishlari.

Patologiyada quyidagi xolatlarda kuzatiladi:

- shishlar, transsudat, ekssudatlar tarqaganda ;
- surunkali buyrak yetishmovchiligi (SBe);
- o'tkir buyrak yetishmovchiligi tuzalayotganida (O'Be),
- O'Be ning poliurik bosqichida;
- qandsiz diabetda (4–6 l va undan ko'p), gipofizning kanalchalardagi reabsorbsiyani rag'batlantiruvchi antidiuretik gormoni ta'siri kamayadi.

• osmotik poliuriyada, birlamchi siydikdagi yuqori osmotik bosim, kanalchalarda suvning reabsorbsiyasiga to'sqinlik qiladi (qandli diabet, natriy tuzlari, aminokislotalar, glyukoza, mochevina,mannitol ta'sirida);

- amiloidoz, sarkoidoz, mielom kasalligida (SBe ga olib keluvchi, nefropatiya rivojlanganda);
- ba'zi dori preparatlari ta'sirida (diuretik, kofein, angishvona preparatlari, etanol, atsetilsalitsil kislota, litiy, gipoglikemik preparatlari).

Oliguriya (oliguria) – peshobning sutkalik miqdorining kamayishi (sutkada 500 ml dan kam).

Fiziologik:

- suyuqlik rejimini cheklash;
- issiq xavoda yoki jismoniy zo'riqishda ter orqali suyuqlik ajralishining ortishi.

Patologiyada oliguriya kuzatiladi:

- yurak dekompensatsiyasida;
- buyrakdan tashqari yo'llar bilan suyuqlik yo'qotilganda (temperatur reaksiyalarda ter bilan, profuz ich ketishlar, kuyish, qusish, qon ketish);
- shok, kollapsda;
- buyraklar shikastlanishida: O'tkir nefritda (sutkalik diurez 200–300 ml gacha kamayishi mumkin), nefrotik sindrom shish fazasida, O'Be da (gemolitik, toksik buyrak va x.k);
- nefrotoksik moddalar ta'siri (qo'rg'oshin, margimush, vismut, etilenglikol).

Anuriya (anuria) – siyidik ajralishining butunlay to'xtashi (sutkada 200 ml dan kam):

- o'tkir buyrak yetishmovchiligining erta, asosiy klinik belgisi.

Quyidagi xollarda xam kuzatilishi mumkin:

- nefritning o'tkir shakllari;
- yurak yetishmovchiligining terminal bosqichida;
- o'tkir qon yo'qotishda;
- to'xtamasdan qayd qilish;
- siyidik yo'llariga tosh tiqilganda, siyidik yo'llari o'smalar bilan bositganda (bachadon, siyidik pufagi saratoni).

Ishuriya (ischuria) – erkin siyidik ajratolmaslan, siyidik pufagida peshobning ushlab qolinishi.

Kuzatiladi:

- predstatel jeleza kasalliklari (adenoma, rak);
- prostatit;
- paraproktit;
- MNS ning qator funksional va organik zararlanishlari;
- qorin bo'shlig'idagi va kichik chanoqdagi ba'zi o'tkir xirurgik xolatlar, skelet mushaklari shikastlanishlarida siyidik pufagining nerv-mushak apparatining zararlanishi;
- narkotik, atropin, ganglioblokatlar qabul qilinganda.

Sutkalik diurez kunduzgi va kechkiga bo'linadi. Kunduzgi diurezning kechki diurezga nisbiti sog'lom odamda 3:1 yoki 4:1ni tashkil etadi.

Nikturiya (nycturia) – kechki diurezni kunduzidan ko'payishi:

- turli xil buyrak kasalliklarining simptomlaridan biri xisoblanadi;
- prostata bezi gipertrofiyasi;
- qandsiz diabetda kuzatiladi.

Peshob ajratish chastotasi

Normada peshob ajratish chastotasi sutkada 4–5 marta.

Pollakiuriya (pollakiuria) – tez-tez siyish – ko'p suyuqlik qabul qilinganda, siyidik ajratish a'zolarida yallig'lanish jarayonlarida kuzatiladi.

Olakiuriya (olakiuria) – kam siyish – cheklangan miqdorda suyuqlik qabul qilinganda va nerv-reflektor o'zgarishlarda kuzatiladi.

Dizuriya (dysuria) – peshob ajratish buzilishi – yuqoridagi buzilishlarni (siyidik xajmining, chastotasining o'zgarishi) umumlashtiruvchi, og'riqlar bilan kechuvchi simtomokompleks. Turli

siydiq yo'llari, jinsiy yo'ddar yallig'lanish kasalliklarida: sistit, uretrit, pielonefrit, buyraklar sili.

Stranguriya (stranguria) – og'riqli siyish.

Siydikning nisbiy zichligi 1,018–1,026 (ertalabki siydkda)

Sog'lom odamda sutka davomida peshobning nisbiy zichligi 1,010 dan 1,020gacha tebranib turadi. Ertalabki (eng konsentrangan) peshob porsiyasida normada 1,012–1,020 ga teng.

Peshobning nisbiy zichligi faqatgina erigan qismlar miqdoriga emas, balki ularning molekulyar massasiga xam bog'liq. Yuqori molekulyar massali moddalar (masalan, proteinlar) nisbiy zichlikni oshiradi, peshobning osmotik konsentratsiyasiga esa unchalik xam ta'sir qilmaydi.

Osmotik konsentratsiya birinchi navbatda elektrolitlar va mochevinaga qarab aniqlaniladi. Osmotik konsentratsiya mosm/l da o'lchanadi. Sog'lom odamda peshobning maksimal osmotik konsentratsiyasi 910 mosm/l gacha yetishi mumkin (maksimal nisbiy zichlik 1,025–1,026).

Peshobning nisbiy zichligini aniqlash katta klinik axamiyatga molik, chunki unda erigan moddalar konsentratsiyasi xaqida ma'lumot beradi (mochevina, siydiq kislotasi, kreatinin, turli tuzlar) va buyraklarning konsentratsion va eritish vazifasini namoyon qiladi. Buyraklarning konsentratsion qobiliyatini aniqlashning yanada aniqroq usuli krioskopiya usuli xisoblanadi (muzlash nuqtasi bo'yicha aniqlash). Tekshiruvni standart suvli rejim (Zimnitskiy sinamasi), yoki quruq sharoitda (Folgard sinamasi) o'tkazish kerak.

Giperstenuriya (hypersthenuria) – nisbiy zichlik 1,026 dan ortishi (siydiq osmotik konsentratsiyasi 910 mosm/l dan yuqori, ko'pincha 1200 mosm/l gacha ortgan) quyidagi xolatlarda kuzatiladi:

- shishlar ko'payishi (o'tkir glomerulonefrit, yurak yetishmovchiligidagi dimlangan buyrak va x.k);
- nefrotik sindromda (peshobda oqsil miqdori ortishi xisobiga – 0,33 g/l oqsil, peshob nisbiy zichligini 0,001 ga oshiradi);
- qandli diabetda (qandli diabetning massiv glyukozuriya bilan yaqqol namoyon bo'lishida nisbiy zichlik 1,040–1,050ga teng bo'lishi mumkin);
- manitol yoki dekstran, rentgenkontrast moddalar yuborilganda;

- xomiladorlar toksikozida.

Gipostenuriya (hyposthenuria) –nisbiy zichlik 1,010 dan kam:

- buyrak kanalchalarining o‘tkir zararlanishi;
- qandsiz diabet;
- surunkali buyrak yetishmovchiligi;
- yomon sifatli gipertensiya.

Izostenuriya (isosthenuria) – peshob va qon plazmasi osmotik bosimi teng bo‘lgan xolat (nisbiy zichlik 1,010–1,011, peshob osmotik konsentratsiyasi 280–320 mosm/lidan oshmaydi), – buyraklar konsentratsion funksiyasi butunlay yo‘qolganidan dalolat beradi.

Siydikning nisbiy zichligini aniqlash

Siydik nisbiy zichligi urometr yordamida o‘lchanadi (1,000 - 1,050 shkalali areometr;):

- siydik 50 yoki 100 ml ingichka probirkaga quyiladi, ko‘pik xosil bo‘lmasligi kerak (ko‘pik xosil bo‘lsa, filtrlangan qog‘oz yordamida olib tashlanadi);
- silindrda astalik bilan urometr tushiriladi va tebranishdan to‘xtaganidan so‘ng, pastki menisk bo‘yicha nisbiy zichlik aniqlaniladi (urometr silindrda erkin suzishi va devoriga tegmasligi kerak).

Peshob rangi

Normada peshob rangi uning konsentratsiyasiga bog‘liq va och-sariqdan yantar-sariqqacha tebranib turadi. Normal peshobning bo‘yalishi uning tarkibidagi uroxrom A va V, urobilinoidlar, uroetrin va boshqa qon pigmentlaridan xosil bo‘luvchi moddalarga bog‘liq.

Peshob rangi ba’zi dori preparatlari va oziq-ovqat maxsulotlari (qizilcha, sabzi va x.k.) qabul qilganda xam o‘zgarishi mumkin.

Ba’zan peshob rangi normal bo‘lsada, cho‘kmalar tarkibidagi tuzlar, shaklli elementlar, shilliqqa qarab turli xil rangga bo‘yalishi mumkin.

Peshob rangini aniqlash

Peshob rangi o‘tuvchan yorug‘likda, silindrni ko‘zgacha ko‘tarib aniqlaniladi.

Turli patologik xolatlarda peshob rangining o'zgarishi

Peshob rangi	Peshob rangi o'zgaradigan, patologik xolat	Sabablar
To'q - sariq	Dimlangan buyrak, shish, kuyish, quşish, ich ketish	Bo'yovchi moddalarning yuqori konsentratsiyasi
Rangpar, suvli	Qandli diabet, qandsiz diabet	Bo'yovchi moddalarning konsentratsiyasi kamligi
To'q- qo'ng'ir	Gemolitik	Urobilinogenuriya
Qoramtil	O'tkir gemolitik buyrak	Gemoglobinuriya
	Alkaptonuriya	Gomogentizin kislota
Qizil	Buyrak kolikasi, buyrak infarkti	Gematuriya (yangi, o'zgarmagan)
«Go'sht yuvindisi» ko'rinishida	O'tkir nefrit	Gematuriya (o'zgargan qon)
Pivo rangida (to'q yashil)	Parenximatoz sariqlik	Bilirubinuriya va urobilinogenuriya
Yashil-sariq	Mexanik sariqlik	Bilirubinuriya
Oqish	Buyrak to'qimasining yemirilishi	Lipuriya
Sutli	Buyraklar limfostazi	Xiluriya

Ba'zi dori preparatlarini qabul qilganda peshob rangining o'zgarishi

Peshob rangi	Dori modda
Qizil	Fenatsetin, adriamitsin, ferrotseron
Pushti	Fenoltalein (ishqoriy siydikda)
To'q-qoramtil	Sulfanilamidlar
Qizil-jigarrang	Fenilsalitsilat, amidopirin, sefaloridin, difenin
Yashil-qoramtil («pivo» rangida)	Indometatsin, amitriptilin
Yashil-sariq	Reven, aleksandriya bargi
Sabzirang-sariq	Riboflavin

Tiniqligi

Normal peshob tiniq bo‘lishi kerak. Xiralashishiga tuzlar, xujayra elementlari, shilliq, yog‘, bakteriyalar sabab bo‘lishi mumkin. Peshobda ba’zi bir tekshiruvlarni o’tkazish uchun (masalan, oqsil, glyukozani tekshirish), xiraligini yo‘qotish kerak.

Peshob xidi

Peshob keskin bo‘limgan, spetsifik xidga ega. Peshobga bakteriyalar xavoda (turib qolganda) va siyidik yo‘llarida o’tirib qolsa (og‘ir sistitlar, yemirilayotgan o’smalar) ammiakli xid paydo bo‘ladi. Peshobda keton tanalari bo‘lsa o‘ziga xos xidni oladi (mevali), chirayotgan olmalarning xidini eslatadi.

Kimyoviy tekshirish

Peshob reaksiyasi neytral yoki kuchsiz kislotali (rN 5,0–7,0)

Peshobning nordon reaksiyasi kuzatiladi ($rN < 5,0$):

- fiziologik xolatlarda (ko‘p go‘shtli maxsulot iste’mol qilganda);
- respirator va metabolik atsidozda (diabetik koma, yurak yetishmovchiligi, O’Be);
- o‘tkir nefritda;
- podagrada;
- Buyrak silida;
- gipokaliemiyada (ionli muvozanatni saqlash uchun, N+ ionlarining sekretsiyasi ortadi);
- askorbin kislotosi, kortikotropin, ammoniy xlorid ta’sirida

Peshobning ishqoriy reaksiyasi kuzatiladi ($rN > 7,0$):

- sabzavotli dietada;
- metabolik va respirator alkalozda (ko‘p nordon qusgandan keyin, oshqozon shirasi kislotaligi ortganda, shishilar so‘rilayotgan vaqtda);
- siyidik yo‘llaridagi faol yallig‘lanish jarayonlari;
- giperkaliemiyada;
- surunkali buyrak yetishmovchiligidagi;
- natriy sitrat, bikarbonatlar, adrenalin, aldosteron ta’sirida.

Peshob reaksiyasining kilotali yoki ishqoriy tomonga turg'un siljishi yomon oqibatli patogenetik faktor xisoblanadi. Peshobni kimyoviy, mikroskopik va bakteriologik tekshirganda va bemorga diuretiklar va antibakterial preparatlar tayinlanganda peshob reaksiyasini inobatga olish zarur.

Peshob reaksiyasi (rN) organizmda katabolik jarayonlar vaqtida xosil bo'ladigan, organik va noorganik kislotalar dissotsiatsiyasi natijasida yuzaga keladigan erkin vodorod ionlari N⁺ miqdoriga bog'liq.

N⁺ ionlari buyrak kanalining distal qismi orqali chiqariladi, u yerda asosan bufer asoslar bilan bog'lanadi va oz qismi siyidik orqali erkin xolda ajraladi.

Aniqlash usullari

Peshob reaksiyasini indikator qog'oz yordamida aniqlash

rN 5,0–8,0 intervalini o'chay oladigan, turli xil indikator qog'ozni qo'llash mumkin (universal indikator, nitrazin sariq'i, Biofan-3, Albufan, Tetrafan).

Peshob reaksiyasini yangi ajratilgan peshobda, siygan zaxoti aniqlaniladi, chunki turib qolsa ishqoriylashadi.

Peshob reaksiyasini universal indikator qog'oz yordamida aniqlash: indikator qog'oz tekshirilayotgan peshobga tushiriladi va 1–2 min dan keyin rangli shkala bilan solishtirilib, bo'yalishini o'zgarishi aniqlaniladi.

Peshob reaksiyasini ko'k va qizil lakkus qog'oz yordamida aniqlash: ko'k va qizil lakkus qog'oz tekshirilayotgan peshobga tushiriladi va 1–2 min dan keyin bo'yalishini o'zgarishi aniqlaniladi. Agar ko'k qog'oz qizarsa, qizil qog'oz o'zgarmasa, demak peshob reaksiyasi kislotali; agar qizil qog'oz ko'kintir bo'lib, ko'k qog'oz o'zgarishsiz qolsa, demak reaksiya kislotali. Agar ikkala qog'oz xam rangini o'zgartirmasa, peshob reaksiyasi neytral. Ba'zi xolatlarda ikkala qog'oz xam rangini ozgina o'zgartiradi, bunday xolda reaksiya amfoter xisoblanadi.

Peshob reaksiyasini bromtimol ko'ki indikatori yordamida aniqlash:

Usul rN 6,0–7,6 diapazonda, bo'yoq o'tish joyi zonasiga ega, bromtimol ko'ki indikatorining xususiyatlariga asoslangan. Indikator eritmasi 0,1 g ingichka qilib maydalangan bromtimol ko'kini, 20 ml iliq

etil spirtida eritib tayyorlanadi.: sovuganidan keyin eritma suv bilan aralashtirilib, 100 ml ga yetkaziladi.

2–3 ml peshobga, 1–2 tomchi indikator eritmasi qo'shiladi. Sariq rang paydo bo'lsa – reaksiya kislotali, qoramtil – kuchsiz kislotali, o'tsimon bo'lsa – neytral, qoramtiliyashil – kuchsiz ishqoriy, ko'k – ishqoriy.

Peshob rN ini yanada aniqroq, rN-metr da aniqlash mumkin.

*Oqsilni umumiy qabul qilingan usullar bilan aniqlab bo'lmaydi
25–75 mg/sut(0,017–0,050 g/l)*

Proteinuriya (proteinuria) – peshobdag'i oqsilni, sifatiy usulrar yordamida aniqlasa bo'ladigan konsentratsiyada paydo bo'lishi:

- fiziologik (jismoniy, emotsiyal zo'riqish, sovuqdan, intoksiqatsion, ortostatik);
- koptokchali (glomerulonefrit, gipertoniya kasalligi, infeksion va allergik faktorlar ta'sirida, yurak yetishmovchiligi dekompensatsiyasi);
- kanalchali (amiloidoz,o'tkir kanal nekrozi, interstitsial nefrit, Fankoni sindromi);
- prerenal (mielomkasalligi, mushak to'qimasi nekrozi, eritrotsitlar gemolizi);
- postrenal (sistit, uretritlarda).

Buyrak proteinuriyasi glomerulyar filtr shikastlanishi yoki buyrak kanalchalari epiteliysi disfunksiyasi bilan bog'liq.

U yoki bu plazmatik va siyidik oqsillari, ularning molekulyar massasi va zaryadiga qarab, selektiv va noselektiv proteinuriya farqlanadi.

Selektiv proteinuriya glomerulyar filtrning minimal shikastlanishlarida (kam xollarda qaytar), past molekulyar oqsillar ajraladi (molekulyar massasi 68 000dan past) – albumin, seruloplazmin, transferrin.

Noselektiv proteinuriya ko'proq filtrni og'irroq shikastlanishlarida, yirik molekulyar oqsillar ajralayotganda kuzatiladi.

Proteinuriyaning selektivligi muxim diagnostik va prognostik belgi xisoblanadi.

Buyrak proteinuriyasi organik va funksional (fiziologik) bo'lishi mumkin.

Organik buyrak proteinuriyasi nefronlarning organik shikastlanishida yuzaga keladi.

Koptokchali – glomerulyar filtr shikastlanishi bilan kechadi, moddalar almashinuvi yoki tomir kasalliklari bilan bog‘liq, glomerulonefritlar, nefropatiyalarda kuzatiladi.

Kanalchali – kanalchalarsi, o‘zgarmagan glomerulyar filtrdan o‘tgan, plazmali past molekulyar oqsillarni reabsorbsiya qilolmasligi bilan bog‘liq.

Prerenal (keragidan ortiq) – past molekulyar oqsilni plazmatik konsentratsiyasi yuqori bo‘lganda, normal koptokchaldandan filtrlanishi, kanalchalarsi fiziologik reabsorbsiya qilish qobiliyatidan ortib ketadi.

Funksional buyrak proteinuriyasi buyrak kasalliklari bilan bog‘liq emas, xech qanday muolaja talab qilmaydi. Funksional proteinuriyalarga zo‘riqish, emotsiyal, sovuqdan, intoksikatsion, ortostatik proteinuriyalar (faqat bolalarda va faqat turgan xolatda) kiradi.

Buyrakdan tashqari (postrenal) proteinuriyalarda oqsil peshobga siyidik chiqarish yo‘llari va jinsiy yo‘llardan (kolpit va vaginitlarda – peshob noto‘g‘ri olinganda) tushishi mumkin. Bunday xollarda, bu yot narsa emas, yallig‘lanish ekssudati ajralmasi xisoblanadi.

Buyrakdan tashqari proteinuriya, odatda 1 g/sut. dan oshmaydi, o‘tuvchi xarakterga ega. Buyrakdan tashqari proteinuriya diagnostikasida uch stakanli sinama va urologik tekshirishlar yordam beradi.

Tekshiruv usullari

Peshob oqsilga tekshirilayotganda, tiniq bo‘lishi shart.

Sifatiy sinamalar

Sulfosalitsil kislotli sinama

Ikkita probirkaga 3–4 ml dan profiltrlangan peshob quyiladi. Tajriba probirkasiga 6–8 tomchi 20% sulfosalitsil kislotasi tomiziladi. Ikkinci probirkaga nazorat probirkasi xisoblanadi. Qora fonda nazorat probirkasi, tajriba probirkasi bilan taqqoslanadi. Agar oqsil bo‘lsa, peshobda opalessirlovchi loyqalik yuzaga keladi. Natija quyidagicha baxolanadi: reaksiya kuchsiz musbat (+), musbat (++) , keskin musbat (+++).

Sinama yuqori sezgirlikka ega. Quruq sinamadan xam foydalanish mumkin, bunda bir necha millilitr peshobga bir nechta sulfosalitsil kislota kristallaridan yoki oldindan shu kislota eritmasi bilan xo'llangan filtrli qog'oz solinadi. Yolg'on musbat natijalar yod preparatlari, sulfanilamid preparatlari, penitsillinni katta dozalarini qabul qilinganligi bilan va peshobda siyidik kislota konsentratsiyasi qoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Azot kislotali bilan sinama (Geller sinamasi)

Probirkaga 1–2 ml 50% li azot kislota eritmasidan, ustiga shu miqdorda peshob solinadi. Oqsil bo'ladigan bo'lsa, ikkita suyuqliklar orasida oq xalqa xosil bo'ladi. Ba'zan, suyuqliklar orasidagi chegaradan sal yuqiroqda, qizil-siyoxrang xalqa xosil bo'ladi, bu uratlar borligidan dalolat beradi. Urat xalqasi, oqsil xalqasidan farqli ozgina qizitilganda erib ketadi.

Bright sinamasi qaynatish va proteinuriyaga skrining-testlar bilan (quruq kolorimetrik sinamalar) xech qanday reaktivlar talab qilmaydi.

Oqsil tutgan peshob qaynatilganda, u denaturatsiyaga uchraydi va 6%li uksus kislotasida erimaydigan (fosfat tuzlaridan farqli), bulutsimon cho'kma yoki yostiqchilar xosil qiladi. Skrining-testlar oqsilning (albumin) indikator va bufer (odatda bromfenol ko'ki bilan) belgilangan, qog'oz rangini o'zgartirishiga asoslangan. Indikator qog'ozning bo'yاليش intensivligi (Albufan, Albustest; Labstix, Combur-test – Germaniya) va oqsil miqdori o'rtaqidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik, proteinuriya darajasini aniqlashga yordam beradi. Biroq, xozirgi kunda qo'llaniladigan skrining-testlar bir qator kamchiliklarga ega. Masalan bromfenol ko'ki Bens-Djons oqsilini aniqlay olmaydi.

Miqdoriy sinamalar

Brandberg – Roberts – Stolnikov sinamasi

Usul asosida azot kislotasi bilan o'tkaziladigan sifatiy sinama yotadi. Sinamani o'tkazish ketma-ketligi yuqorida keltirilgan. 2- 3-minutda, qavatlanganidan keyin, ikkita suyuqliklar chegarasida ingichka xalqaning paydo bo'lishi peshobda 0,033 g/l oqsil (peshobdag'i oqsil konsentratsiyasini, promille, ya'ni gramm litrga belgilash mumkin) borligidan dalolat beradi. Agar oqsil 2 min dan oldinroq paydo bo'lsa, siyidikni suv bilan aralashtirish kerak.

Peshobning azot kislotasiga qavatlanganda xalqa 2–3- minutda paydo bo‘ladigan eritmasi tanlanadi. Suyultirish darajasi xalqaning kengligi va kompaktiiligiga, xamda yuzaga kelish vaqtiga bog‘liq. Oqsil konsentratsiyasi peshobni suyultirilish darajasini 0,033 g/l ga qo‘paytirib topiladi.

Roberts – Stolnikov usulida suyultirish qator kamchiliklarga ega: nosub'ektiv, qiyin, oqsil konsentratsiyasini to‘g‘ri aniqlash extimoli, peshob suyultirilgan sayin kamayib boradi. Eng qulay va aniq usullar nofelometrik va biuretli usullar xisoblanadi.

Nofelometrik usul

Oqsilni sulfosalitsil kislota bilan loyqalanish paydo bo‘lishiga asoslangan, loyqalanish intensivligi oqsil konsentratsiyasiga proporsional.

Graduirlangan probirkaga 1,25 ml profiltlangan peshob va 5 ml bo‘lguncha 3% li sulfosalitsil kislotasi solinadi, yaxshilab aralashtiriladi. 5 min dan keyin ekstinksiyani 590–650 nm to‘lqin uzunligida (sabzirang yoki qizil yorug‘filtr), kontrolga qarshi kyuvetda 0,5 sm qalinlikda, FEK-M da o‘lchanadi (yoki boshqa fotometrda). Nazorat uchun 1,25 ml profilrlangan peshobdan (xuddi o‘sha) olinadi, 5 ml bo‘lguncha natriy xloridning izotonik eritmasidan quyiladi. Oldindan, oqsil konsentratsiyasiga qarab, ekstinksiya kattaligiga bog‘liq, kalibrovka egriligi tuziladi. Oqsilning turli konsentratsiyalarini tayyorlash uchun, albuminning standart eritmasidan foydalaniladi (odam yokibo‘qa zardobi). Ishchi jadval to‘ldiriladi.

Biuretli usul

Oqsilni mis sulfati va o‘tkir ishqor bilan, siyoxrang biuretli kompleks xosil qilishiga asoslangan, bo‘yalish intensivligi, oqsil miqdoriga to‘g‘ri proporsional.

Oqsil cho‘kishi uchun 2 ml peshobga, 2 ml uchxloruksus kislotasi qo‘shiladi va sentrifugalananadi. Cho‘kma ustidagi suyuqlik to‘kib yuboriladi. Cho‘kmaga (oqsilga) 4 ml 3% li NaOH eritmasi va 0,1 ml 20% mis sulfat eritmasi qo‘shiladi, aralashtiriladi va sentrifugalananadi. Siyoxrang cho‘kma usti suyuqligini 540 nm to‘lqin uzunligida (yashil yorug‘filtr), distillirlangan suvga qarshi, 1,0 sm qalinlikdagi kyuvetda fotometrlanadi. Oqsil konsentratsiyasini tajriba usulida olingan jadval yordamida xisoblaniladi (kalibrovka egriligi yuqoridagi usuldagidek tuziladi).

Ortostatik sinama

Ortostatik proteinuriyaga shubxa qilinganda va nefroptozda qo'llaniladi.

Siydik pufagi to'liq bo'shatilganidan so'ng, tekshiriluvchi 2 soat davomida gorizontal xolatni saqlaydi. So'ngra o'rnidan turmasdan, siydikning birinchi (nazorat) porsiyasini topshiradi. Keyingi 2 soat davomida tekshiriluvchi, maksimal bel lordozini saqlagan xolda(bel ortida tayoq ushlab turadi) tinmasdan yuradi, so'ngra siydikning ikkinchi porsiyasini topshiradi. Ikkala porsiyalarda xam, oqsil konsentratsiyasi va oqsilning grammardagi tarkibi, nefroptozda esa 1 ml dagi eritrotsitlar miqdori aniqlaniladi.

Ortostatik proteinuriyada ikkinchi porsiyada proteinuriya yoki oqsilning grammardagi tarkibini 2-3 martta ortganligi aniqlaniladi. Gematuriya, ko'p xollarda ikkinchi porsiyada nefroptozga xarakterli bo'lgan, proteinuriya bilan birga kuzatiladi.

Bens-Djons uroproteinlarini aniqlash

Bens-Djons oqsillari – termolabil pastmolekulyar paraproteinlar bo'lib, (nisbiy molekulyar massasi 20 000–45 000), aniqlanishi mielom kasalligi va Valdenstrem makroglobulinemiyasiga shubxa tug'diradi.

Ular yengil immunoglobulinlarning L-zanjiri xisoblanadi. L-zanjir molekulyar massasi kichik bo'lganligi sababli, qonlan zararlanmagan buyrak filtri orqali peshobga oson o'tadi va peshobda termopretsiptatsiya reaksiyasi yordamida aniqlanishi mumkin. Tekshiruvni sulfosalitsil kislota bilan musbat natija olingandagina o'tkazish, maqsadga muvofiq.

Tekshiruv quyidagicha o'tkaziladi:

10 ml peshobga 3–4 tomchi 10% li uksus kislota eritmasi va 2 ml natriy xlорidning to'yintirilgan eritmasi qo'shiladi. Astalik bilan suv xammomida isitiladi va seki-asta temperatura ko'tarilib boriladi. Agar peshobda Bens-Djons oqsillari bo'lsa, 45–60 °S temperaturada diffuz loyqalanish paydo bo'ladi yoki qattiq ok cho'kma ajraladi. Qizitish davom ettirilib qaynatishgacha olib borilsa, cho'kma erib ketadi, sovutilganda esa qaytadan paydo bo'ladi.

Bu usulning sezgirligi juda xam past va elektroforez va immunoelektroforez usullari bilan qaytadan tekshirilishi kerak.

Peshobda gemoglobinni aniqlash

Massiv tomir ichi gemolizida (infekzion, immun, genetik) svobodnyiy gemoglobin qondan peshobga o'tib, buyraklar bilan filtrlanadi. Massiv gemoglobinuriya kanalchalarni jaroxatlab, o'tkir buyrak yetishmovchiliga olib kelishi mumkin.

Gemoglobinga sifat reaksiya (ammoniy sulfat bilan sinama).

5 ml siydknni 2,8 g kristallik ammoniy sulfat bilan aralashtiriladi va filtrlanadi. Filtratsiyadan keyin peshob rangining normallashuvi gemoglobinuriyadan dalolat beradi, chunki gemoglobin, mioglobindan farqli ammoniy sulfat bilan cho'kmaga tushadi.

Ammoniy sulfatli sinama yetarli darajada sezgir emas, yolg'onmanfiy natijalar berishi mumkin.

Gemoglobinuriyaning eng asosiy belgisi, peshobda gemosiderinni topilishi xisoblanadi. Gemosiderinuriya gemoglobinni birlamchi siyidik orqali, buyrak epiteliy xujayralardan reabsorbsiyasi va uning parchalanishi bilan bog'liq.

Gemosideringa sifatiy reaksiya

15 ml peshob sentrifugalananadi. Xosil bo'lgan cho'kmaga, bir necha tomchi 5% li vodorodxlorid kilotasi va 2–5% li ferrotsianida kaliy eritmasi aralashtiriladi (sariq qon tuzlari). Buyum oynasida yupqa surtmalar tayyorlaniladi va mikroskop ostida ko'rilib. 2–5 min dan keyin gemosiderin epiteliylarda, kamroq xujayradan tashqarida joylashgan ko'k-yashil granulalar ko'rinishida aniqlaniladi.

Mioglobinni aniqlash

Mioglobinuriyani rabdomioliz yanada og'irlashtiradi (travmatik, ishemik, toksik, genetik). Mioglobin – pastmolekulyar oqsil bo'lib, glomerulyar filtrda ushlab qolinmaydi. Yuqori mioglobinuriya, buyrak kanalchalari funksiyasini buzib, o'tkir buyrak yetishmivchilagini keltirib chiqaradi. Mioglobinuriyada ammoniy sulfatli sinama manfiy natija beradi: reaktiv qo'shilganidan keyin xam, peshobning qizil jigarrang rangi saqlanib qoladi.

Gemoglobinuriyani mioglobinuriyadan aratib beradigan, ishonchliroq diagnostik usul, peshobdagi gemoglobin va mioglobin konsentratsiyasini aniqlab beradigan, peshob oqsillarining qog'ozdag'i elektroforezi va agar gelidagi immunoelektroforezi xisoblaniladi.

Qog'ozdag'i va poliakrilamid gelidagi elektroforez usullari, gel-xromatografiya, immunoelektroforez peshob oqsilini sifatiy tarkibini molekulyar massa, immunoximik xusiyatlari va qutblanishiga qarab aniqlash uchun qo'llaniladi.

Glyukoza

Umumiyl qabul qilingan usullarda aniqlanmaydi

0,03–0,15 g/l (0,16–0,83 mmol/l yoki 0,02 %dan ko'p emas)

Glyukozuriya (glucosuria) – siydikda glyukoza paydo bo'lishi:

- Fiziologik (ovqat mahsulotlari bilan glyukozaning ko'p kirishi , emotsiyal zo'riqishdan keyin);
- Buyrakdan tashqari (saxarniy diabet,jigar sirroz, pankreatit, rak,oshqozon osti bezi , tireotoksikoz, Itsenko – Kushinga sindrom, feoxromotsitoma, bosh miya travmalari , insult, uglerod oksid, morfin, xloroformdan zaharlanish);
- Renal (surunkali nefritlar, nefrozlar, amiloidoz, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, homiladorlik, fosfor va ba'zi dori preparatlardan zaharlanish).

Glyukozuriyani to'g'ri baholash uchun siydikni tekshirish zarur, sutkalik siydik yig'iladi va siydik bilan yo'qotilgan sutkalik qand miqdori hisoblanadi. Buyrakning normal funksional holatida faqat qonda qand konsentratsiyasi oshganda, giperglykemiyada glyukozuriya kuzatiladi. Glyukozaning qondagi konsentratsiyasi yuqori bo'lib glyukozuriya kuzatilganda (7,8–8 mmol/l)bo'yruk glyukoza bo'sag'asi deb nomlanadi.

Glyukozaning qondagi konsentratsiyasi odatda 4,6–6,6 mmol/l (0,8–1,2 g/l)dan oshmaydi.

Kamdan kam hollarda qonda qand konsentratsiyasi normal bo'lganda buyrak kanallarida glyukozaning reabsorbsiyasi buzilishi bilan bog'liq buyrak (renal) glyukozuriyasi kuzatiladi.

Aniqlash usullari

Sifat sinamalari

Ko'pchilik sifat sinamalari siydikda glyukozani aniqlash, asosan glyukozaning reduksion tarkibli aldegid guruxlari uchun qo'llaniladi.

Rangli birikmani tiklab berishda, oksidlovchi sifatida qandaydir yengil reduksiyanuvchi tuz ishlataladi bu usullarga Feling, Gaynes, Nilander, Benedikt, glyukozooksidaza sinamalari kiradi.

Glyukozooksidaza (notatin)sinamasi

Bu usul asosida glyukozaning glyukozook-sidaza (notatin) fermenti oksidlanishi yotadi. Bunda hosil bo'lgan vodorod peroksid boshqa fermentlar (peroksidaza) ta'sirida parchalanib, rangli indikatorni oksidlaydi (benzidin unumlari), uni rangini o'zgartiradi

Peshobda glyukozani aniqlashda «Glyukotest» indikator qog'ozni tekshirilayotgan siydkka 1-2 sekundga botiriladi qog'ozdagi sariq chiziq to'liq namlangan bo'lishi kerak. 2 minutdan keyin siydkdag'i glyukoza konsentratsiyasi standart to'plamda mavchud rangli chiziqni rangini intensivligi rangli shkala bilan, taqqoslash usulida aniqlanadi

Esda tutish zarur, juda yuqori glyukozuriyada (2%dan yuqori) rangli chiziq rangi intensivligi o'zgarmaydi.

Indikator qog'oz zinch yopiq penalda saqlanadi, qorong'i salqin joyda (xolodilnieda emas).

Gaynes sinamasi

Reaksiyada glyukozani ishqoriy muhitda mis giderat oksidigacha(ko'k rangda) keyin giderat oksidigacha(sariq rang) keyin mis oksidigacha(qizil rang) qaytaradi

Gaynes reaktivini quyidagicha tayyorlanadi: 1) 13,3 g x. ch.kumush sulfat kristalini ($\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$) 400 ml suvda eritiladi.

2) 50 g natriy ishqori 400ml suvda eritiladi; 3) 15 g ch. yoki ch. d. a. glitserin 200 ml suvda eritiladi. 2chi va 1chi eritmalar aralashtiriladi va shu vaqtida 3chisi quyiladi. Reaktiv turg'un.

Sinama quyidagi tartibda o'tkaziladi: 3-4 ml reaktivga 8-12 tomchi siylik havorang paydo bo'lguncha qo'shiladi. So'ng aralashtiriladi va spirt yoki gaz plitkasi alangasi ustida yuqori qismi qaynaguncha qizdiriladi. Probirkaning pastki qismi kontrol qilinadi. Siylikda glyukoza bo'lganda siylikni och havorangdan sariq rangga aniq o'tishi kuzatiladi.

Gaynes sinamasida siylik katta miqdorda suyultirilganda (8-12tomchi siylik va 3-4 ml reaktiv) siylikni boshqa redutsirlangan moddalar (siylik kislota, indikan, kreatin, o't pigmentlari), shuningdek ba'zi dori moddalari (atsetilsalitsil kislota, kofein, PASK) ta'sirida qaytarilishi kuchsiz ifodalanadi. Reduksion sinamalarni to'g'ri baholashda siylikda oqsilning ko'p bo'lishi xalaqit beradi, shu sababli uni yo'qotish uchun bir necha tomchi uksus kislota bilan nordonlashtirib, qaynatib, filtrlash maqsadga muvofiq .

Miqdoriy usullar

Kolorimetrik usul Altgauzen bo'yicha siydkida glyukozani aniqlash

Usul prinsiplari: glyukoza bilan ishqor qizdirilganda rangli reaksiya paydo bo'ladi

Aniqlash texnikasi

4 ml siydkka 1 ml 10% o'yuvchi natriy quyiladadi va 1 min. qaynatiladi

Qaynatgandan 10 minut o'tgach suyuqlik rangi shkala rangi bilan solishtiriladi, har bir bo'yagan chiziq tarkibidagi glyukozaning foizini ko'rsatadi. Reaktivlar yordamida tayyorlangan eng yaxshi shkaladan foydalaniladi. Buning uchun 0,5; 1,0; 1,5; 2,0; 3,0 va 4,0% glyukoza eritmalarini olamiz, ularga ishlov beriladi, tekshirilayotgan siydk sinamalarini tiqinlar qattiq yopiladi. eritmalarining rangi 10 kungacha o'zgarmaydi

Altgauzen metodi aniq natija beradi, shuning uchun uni polyarimetr bo'lmaganda foydalanish mumkin.

Modifitsirlangan Altgauzen metodida reaktivlar yetishmovchiligi kuzatilmaydi va kam vaqt oladi, Modifitsirlangan Altgauzen metodi prinsipi: tarkibida glyukoza bor siydk o'yuvchi ishqorlar bilan qizdirilganda probirka tarkibining rangi o'zgaradi

Keton (atseton) tanachalari umumiyligini qabul qilingan usulda aniqlanmaydi (50 mg/sutdan kam)

Ketonuriya (ketonuria) – siydkda keton tanachalarining paydo bo'lishi .

Keton tanachalariga 3 ta birikma kiradi : atseton, atsetouksus kislota va β -oksimoy kislota. Keton tanachalarining hosil bo'lishida katta qismini yog'lar va bir qancha oqsillar ahamiyatga ega. Keton tanachalari to'qimalarda tez oksidlanadi SO_2 va N_2O , shuning uchun siydk bilan sutkada 20–50 mg atrofida keton tanachalari ajralib chiqadi.

Ketonuriya keton tanachalarining oshishida va ularning parchalanishining buzilishida kuzatiladi :

- qandli diabet (kompensirlanmagan);
- uglevodli ochlik; dieta, tana massasini kamaytirishga qaratilgan;
- kortikosteroidlarning giperproduksiyasi (gipofiz oldingi bo'lagi va buyrak usti bezi o'smasi);
- atsetonemik qayt qilish, oshqozon ichak sistemasining uzoq buzilishi , dizenteriya.

Aniqlash usullari

Sifatiy sinamlar

Keton tanachalari siydikda birgalikda uchraydi, shuning uchun ularni alohida aniqlash amaliy o'tkazilmaydi. Keton tanachalari siydikda birga uchraydi, shuning uchun ularni amaliy tekshigish o'tkazilmaydi.

Keton tanachalarini sifat reaksiyasi asosiy muxitda natriy nitroprussid bilan ularning o'zaro tasirida rangli reaksiya paydo bo'lishiga asoslanadi.

Lange sinamasi.

3–5 ml siydikka 0,5 ml muzli uksus kislota qo'shiladi va 5–10 tomchi yangi tayyorlangan 10% nitroprussid natriy eritmasi aralashtiriladi, keyin kon-sentrangan 2–3 ml ammiaka pipetkada sekin tomiziladi .Agar 3 minut davomida ikki suyuqlik tutashgan joyda pushti-siyo hrang halqa paydo bo'lsa sinama musbat hisoblanadi.

Lestrad sinamasi

Buyum oynachasiga ozgina 1 g (0,5 g) nitroprussid natriy , 20 g ammoniy sulfat va 20 g suvsiz natriy karbonatdan iborat Lestrad reaktiv joylashtiriladi.reaktivga siydik tomiziladi. Olcha-qizil ranga bo'yاليши musbat natijani ko'rsatadi. Qator firmalar keton tanachalarini aniqlash uchun testlar chiqarishgan.

Atseton tanachalari bakteriuriyada yoki ko'p miqdorda achitqi zambrug'lar bo'lganda 24 soat davomida to'liq yo'qolishi mumkin.

Bilirubin umumiyl qabul qilingan usullarda aniqlanmaydi. -

Bilirubinuriya (bilirubinuria) – siydik bilan bilrubinni ajralishi. Bilirubin – organizmdan ajratiladigan porfirinlarning asosiy oxirgi metaboliti. Bilirubin qonda erkin holda -kon'yugatsiyalanmagan (albumin bilan birikmada) bo'lmaydi

Erkin (bevosita) bilirubin suvda erimaydi va siydikda paydo bo'lmaydi. Jigarda u kon'yugatsiyalanadi - glyukuron kislota bilan birikadi va shu holda oshqozon-ichak traktidan o't bilan ajraladi.

Bog'langan (bilvosita) bilirubin suvda eriydi va qonda bo'sag'a konsentratsiyasida bo'lganda 3,4 mmol/l dan ko'pi buyrak orqali ajraladi.

Bilirubinuriya bo'ladi:

parenximatoz (jigar) sariqlikda (virusli hepatit, surunkali hepatit, jigar sirrozda);

- mekanik sariqlikda (jigar osti, obturatsion)

- toksik moddalar tasiri natijasida (alkogol, organik birikmalar , infeksiyon toksinlari);
- Ikkilamchi jigar yetishmovchiligidagi (yurak yetishmovchiligi,jigar o'smalarida).

Gem sintezi buzilganda gemoglobin parchalanish mahsulotlari va porfirin halqasi sintezi oraliq mahsulotlari siyidikda paydo bo'ladi :

δ -aminolevulin kislota – normada 2–3 mg/sut; porfobilinogen – 2 mg/sut gacha; uroporfirinlar – 6 mg/sut atrofida; koproporfirinlar – 70mkg/sut atrofida; protoporfirinlar – okolo 12 mg/sut.

Porfirinuriya (porphyrinuria) kuzatiladi:

- Qo'rg'oshinli zaxarlanishda;
- Aplastik anemiyalarda, jigar sirrozida, alkogolli intoksikatsiyalarda, miokard infarktida, revmatizmda;
- Dori moddalarni qabul qilganda (barbituratlar, organik birikmalar va boshqalar).

Aniqlash usullari

Sifat sinamalari

Bilirubinning ko'pchilik sifat sinamalari asosida uni oksidlovchilar ta'sirida (yod, azot kislotasi)yashil biliverdinga aylanishi yotadi.

Rozin sinamasi

Qulay va oddiyligi uchun keng qo'llaniladi.

Lyugol eritmasi (1 g yod, 2 g kaliy yodid va 300 ml distillangan suv) yoki 1% yodning spirtli eritmasi bilan olib boriladi. Probirkaga 2-3 ml siyidik quyiladi, ko'rsatilgan reaktivlardan biri sekin tomiziladi. Bilirubin bo'lganda ikki suyuqlik orasida yashil halqa qosil bo'ladi. Rozin sinamasi gematuriyada, antipirinlar bilan davolanganda ishonchli emas.

Fushe sinamasi

Eng sezgir usulligi uchun shubha bo'lganda qo'llaniladi. 10 ml siyidikka 5 ml 15% bariy xlorid qo'shiladi. Aralashtiriladi, filtrlanadi. Filtr voronkadan chiqarilib, Petri kosachasiga tekislanadi, unga 2 tomchi Fushe reaktivi (25 g uchxlorsirka kislota, 100 ml distillangan suv , 10 ml 10% FeCl₃ eritmasi yoki 1 g FeCl₃) suriladi. Musbat natija bo'lganda filtr qog'ozda yashil dog' paydo bo'ladi.Maxsus tabletkalar bilan

qilinadigan qator” quruq” sinamalar (sifat va yarimmiqdor («ikto-test»))bor.

Urobilinogen (urobilin) tanachalari

Umumiy qabul qilingan metodlar bo'yicha aniqlanmaydi (6 mg/sutdan kam). Urobilinogen tanachalari bilirubin hosilasi hisoblanadi. Urobilinogen (mezobilirubinogen, urobilinogen, urobilinogen IXa) va sterkobilinogendan iborat.

Urobilinuriya (urobilinuria) – siyidik bilan urobilinogen (urobilin) tanachalari ajralishi oshishi.

Urobilinuriya uchraydi:

- jigarning parenximatoz shikastlarida (gepatit, sirroz);
- gemolitik anemiya;
- ichak kasalliklari (enterit, kolit, ichak tutilishi)
- qo'rg'oshin bilan zaharlanganda.

Urobilin tanachalari mexanik sariqlikda siyidikda bo'lmaydi. Ichakning yuqori (ingichka va yo'g'on ichakning boshlang'ich) qismlarida ichak bakteriyalari ta'sirida urobilinogen bog'langan bilirubindan hosil bo'ladi. Urobilinogen bir qismi ichak devori orqali so'rilib qon bilan portal sistemadan jigarga o'tadi, umumiy qon oqimida to'liq parchalanadi, natijada siyidikka tushmaydi.

So'rilmagan urobilinogen ichak bakteriyalari ta'sirida sterkobilinogenga aylanadi. sterkobilinogenning oz qismi so'rilib, portal vena orqali jigarga boradi, urobilinogenga parchalanadi. Sterkobilinogen qismi gemorroidal venalar orqali so'rilib, buyrakdan siyidikda ajraladi.

Ko'proq qismi yo'g'on ichak pastki qismlarida sterkobilinga aylanib, axlatga normal rang berib, u bilan ajraladi.

Aniqlash usullari

Sifat sinamalari

Urobilinogen tanachalarini siyidikda aniqlashda Neybauer sinamasidan foydalaniladi, urobilin tanachasini aniqlash uchun Florans sinamasidan, Bogomolov va boshqa sinamalardan foydalaniladi.

Bogomolov sinamasi (mis sulfat bilan)

10–15 ml filtrlanmagan siyidikka 2–3 ml mis sulfat eritmasi quyiladi, (23 g CuSO₄ 5H₂O 100 ml dis-tillangan suvda suyultiriladi).

Agar xira bo'lsa konsentrangan sulfat kislota ochlashguncha qo'shiladi. 5 min dan keyin 2–3 ml xloroform quyiladi va sekin

aralashtirib, probirka chayqatiladi. Agar urobilin konsentratsiyasi siyidikda yuqori bo'lsa, u holda xloroform, tubida cho'kadi va pushti rangi bo'yaladi

Florans sinamasi (vodorod xlorid kislota bilan)
8 - 10 tomchi oltingugurt kislotasi aralashtirilgan 8-10 ml siyidikka 2-3ml dietilefir quyiladi va aralashtiriladi. Uni to'yingan xlorid kislota eritmasi ustiga tushuriladi. Siyidikda urobilin tanachalari bo'lsa, suyuqliklar orasida pushti halqa hosil bo'ladi.

Bu sinama juda sezgir bo'lib siyidikda urobilin normada bo'lganda ham musbat natija beradi.

Neybauer sinamasi (reaksiya dimetilaminobenzaldegid bilan reaksiyasi) Sinamani o'tkazish uchun Erlix reaktiv tayyorlanadi (2 g paradi-metilaminobenzaldegid 100 ml 20% xlorid kislota eritmasida eritiladi).

3-4 ml siyidikka 3-4 tomchi Erlix reaktiv qo'shiladi (1 ml siyidikka bir tomchi). Birinchi 30 sek suyuqliknini qizil rangga bo'yalishi siyidikda urobilinogen miqdorini oshganligidan darak beradi, agar 30 sekund tugashi bilan bo'yalsa siyidikda normada, 30 sekunddan keyin rangi o'zgarmasa urobilinogen normada yoki siyidikda umuman yo'qligini aytish mumkin.

Bilirubin va gemoglobin urobilin tanachalarini aniqlashga to'sqinlik qiladi, shuning uchun ularni taxminan yo'qotish kerak: buning uchun 10-12ml siyidikka 5-6 ml bariy xlorid eritmasi qo'shiladi. Aralashma filtrlanadi, keyin filtrat bilirubin to'liq cho'kkaligiga tekshiriladi va agar birinchisida cho'kish to'liq bo'limgan bo'lsa muolaja yana qaytariladi.

Peshob qoldig'ini mikroskopik tekshirish

Siyidik qoldig'ini mikroskopik tekshirish oddiy orientirlangan va miqdoriy usullar yordami bilan aniqlanadi. Ular qatoriga bir qancha maxsus tekshirish usullari kiradi.

Mo'ljalli metod

Birinchi ertalabki siyidik mikrkshiriladi

- 10 ml siyidik sentrafuga probirkaga joylashtiriladi va 5 min davomida 2000 ob/min da sentrafugalananadi;

- Qoldiq usti suyuqligi to‘kilib,qolgan kam miqdordagi siyidik cho‘kmasi suspenziya qilinadi, buyum oynasiga qo‘yilib, oyno yopiladi, yuzasi bo‘yicha teng taqsimlanadi
- Shaklli elementlar, silindrler, tuz kristallarini sifat va miqdoriy baholash uchun pasaytirilgan kondensir bilan avval kichik kattalashtirgichda (okulyar x8), keyin kattasida (okulyar x40) ko‘riladi.
- Shaklli elementlarning topilgan ko‘ruv maydonida miqdorining oshishi natijani ifodalaydi. Siyidik cho‘kmasi elementlari mikroskop ostida ko‘rilganda noorganik(turli tuzlar) organik (keton elementlari va silindrler)ga bo‘linadi.

Peshobda eritrotsit (1–3 ta preparatda)

Eritrotsitlar – ikki konturli katta bo‘lmagan yetilmagan oval hujayralardir. O‘zgarmagan (ge-moglobin tarkibli) va o‘zgargan (erkin gemoglobindan, rangsiz, bo‘kkan, fragmentirlangan). bo‘lishi mumkin bunday eritrotsitlar siyidikda kichik nisbiy zichlikda bo‘ladi. Siyidikda yuqori nisbiy zichlikdagi eritrotsitlar bujmayib qoladi.

Eritrotsitlarni oval shaklli oksalat kristallari va achitqi zambrug‘lardan farqlash kerak. Zambrug‘lar eritrotsitlardan ko‘p oval shaklli, ko‘proq nur o‘tkazuvchanligi, xavorang bo‘lishi va kurtaklanishi bilan farq qiladi.

Odatda oksalatlar har xil hajmda va tez nur sindiruvchan bo‘ladi preparatga 5% sirka kislotasi qo‘shilganda eritrotsitlar gemolizga olib keladi, zambrug‘lar va oksalatlar o‘zgarishsiz qoladi.

Gematuriya (haematuria) – siyidikda eritrotsitlarning paydo bo‘lishi. Mikrogematuriya ajratiladi, mikroskopik ko‘rinadi (siyidik rangi o‘zgarmaydi):

- kuchsiz ifodalangan (ko‘ruv maydonida 20tagacha eritrotsitlar);
- o‘rtacha ifodalangan (ko‘ruv maydonida 20–200 eritrotsitlar);

va makrogematuriya, qaysiki siyidikda sezilarli qon aralashgan bo‘lsa va rangi o‘zgarsa (qizg‘ish yoki jigarrang) – ko‘ruv maydonida 200 dan ko‘p eritrotsitlar bo‘lishi.

Gematuriya glomerulyar bo‘lishi mumkin(buyrak yoki renal):

- glomerulonefrit; pielonefrit;
- o‘tkir buyrak yetishmovchiligidagi;
- o‘sma, travma, infarkt, buyrak tuberkulezi;

- dorilar (sulfanilamidlar, antibiotiklar: penitsillinlar, aminoglikozidlar; analgetiklar; rentgenkontrast moddalar; antikoagulyantlar; NPVS: aspirin, indometatsin); va neglomerulyar:
 - siyidik yo'llari travmasi, siyidik-tosh kasalligida;
 - siyidik yo'llari onkologik kasalliklarida;
 - sistit, prostatit, uretrit, pielit.

Gematuriyani orientirlangan qiyosiy tashxislash uchun uch stakanli sinama yordam beradi. Bemor siyidik pufagini bo'shatganda siyidikni 3 stakanga ketma ket ajratadi.

Siyidik ajratish kanalidan qon ketganda 1- porsiyada, siyidik pufagidan qon ketganda oxirgi porsiyada gematuriya ko'proq. Yuqori siyidik yo'llaridan qon ketganda eritrotsitlar barcha 3 ta porsiyalarda bir xil taqsimlanadi.

Leykotsitlar

Erkaklarda – 0–3 ko'rav maydonida, ayollarda – 0–6 ko'rav maydonida bo'ladi.

Leykotsitlar – katta bo'limgan yaltiroq dumaloq shakldagi hujayralar, eritrotsitlardan 1,5 – 2 marta kattaroq, ularningyadrosi ko'pincha ko'rinxaydi.

Leykotsituriya (leucocyturia) – siyidikda leykotsitlar miqdorini oshishi – siyidik yo'llari va buyraklarning yallig'lanish jarayonlaridan darak beradi:

- nefritlar (pielonefrit, interstitsial nefrit, yugurigli nefrit);
- o'tkir va surunkali glomerulonefritlar (limfotsituriya);
- uretritlar, prostatitlar, sistitlar, pielitlar;
- nefrozlar, nefrosklerozlar;
- buyrak tuberkulezi;
- isitmalash, intensiv fizik zo'riqishlar;
- toksik tasirlar va dori moddalar (antibiotiklar:

penitsillinlar, aminoglikozidlar; temir preparatlari; NPVS; rentgenkontrast moddalar). Agar ko'rav maydonida leykotsitlar miqdori 60 tadan oshsa piuriya (pyuria) xaqida gapiriladi.

Sog'lom odam siydigida leykotsitlar asosan neytrofillar hisobiga bo'ladi. Bir qancha patologik holatlarda leykotsitlarning tashqi

ko‘rinishi o‘zgarishi mumkin. Nefrotik sindromda uni o‘lchami kichiklashadi, pardasi qalinalashadi

Pielonefritda leykotsitlar hajmi kattalashadi (bazan 2–3 marta), rangpar, ingichkalashgan, pardasi g‘adir-budir bo‘ladi. Sistida leykotsitlar deformatsiyalanadi, konturlari va donadorligi noaniq. Eozinofilli granulotsitlar siyidikda surunkali pielonefrita, maxsus (tuberkulezli) va nomaxsus xarakterda, yana allergik pielonefrit va pielotsistitda uchraydi.

Limfotsitlar eritrotsitlardan o‘lchami bo‘yicha bir qancha kattaroq, rangsiz, nursiz, uning sitoplazmasi nativda murakkabligi aniqlanadi. buyrakni leykozli infiltratsiyasi natijasida, limfotsitlar siyidikda limfoleykozni oxirgi bosqichida, yana buyrak kasalliklarida, qaysiki etiologiyasi immun omillar bilan bog‘liq (glomerulonefrit) da aniqlanishi mumkin.

Leykotsituriya manbaini aniqlash va differensial diagnoz uchun 3-stakanli Tompson sinamasi qo‘llaniladi.

Birinchi stakanda siyidikning dastlabki porsiyasi, ikkinchisida siyidikning asosiy porsiyasi ajraladi, siyidik pufagi butunlay bo‘shatilmaydi.

Prostataning massajidan keyin 3- stakanga siyidik qoldig‘i yig‘iladi. Birinchi porsiyada leykotsitlar ko‘p bo‘lishi uretrit haqida, uchinchisida prostatit xaqida gapirish mumkin.

Barcha stakanlarda leykotsitlar miqdorining bir xil bo‘lishi buyrak yoki siyidik pufagi yallig‘lanish jarayoni joylashganlaigidan dalolat beradi. Siyidikda asosiy reaksiyaning hujayra strukturasini tez buziladi, shuning uchun leykotsituriya darajalari haqida gapirish qiyin.

Epitelial hujayralar

Mikroskopda ko‘rvuv maydonida preparatda buyrak 1-2 ta, o‘tuvchi 0–3 ta.

Mikroskopik tekshirilganda siyidik qoldig‘ida yassi, o‘tuvchi va buyrak epiteliy xujayralari uchrashi mumkin. Yassi epiteliy xujayralari dumaloq shaklda, katta hajmda, rangsiz, katta bo‘limgan yadroli. Siyidikka tashqi jinsiy organlardan va siyidik chiqarish kanalidan tushadi. Asosiy diagnostik ahamiyati yo‘q.

Erkaklarda asosan uretrani yallig'lanishida uchraydi. O'tuvchi epiteliy hujayralari siyidik ajratish yo'llari shilliq qavatlarini qoplagan: siyidik pufagi, siyidik yo'li, buyrak jomida.

Siydikda bu hujayralar har xil shaklda(polygonal, dumli,silindrik, dumaloq) va kattalikda (lekin yassi epiteliydan kichikroq), yetarlicha yirik yadroli bo'lishi mumkin.

Sistitlarda, pielitlarda, siyidik ajratish yullari hosilalari uchraydi.

Buyrak epiteliy hujayralari – buyrak kanallarining prizmatik epiteliylari-oval shaklli hujayralar ko'rinishida, yadrosi ekssentrik joylashgan va yirik donador bo'ladi. Ko'pincha buyrak epiteliy hujayralari gialin silindrlerida joylashadi, ko'p miqdorda buyrak epiteliylari paydo bo'lishi quyidagilarda bo'ladi:

- O'tkir va surunkali buyrak kasalliklarida (O'tkir va surunkali nefrit, amiloidoz);
- isitma holatlarida
- intoksikatsiya;
- infektion kasalliklarda.

Silindrler: yo'q

Silindrler (cylindrus)oqsil yoki kanalchalardan kelib chiqqan hujayraviy h osilalardan tashkil topgan, ular silindrik va xar xil o'lchamda bo'ladi.

Silindrlerning oqsilli asosi Tamm-Xorsfoll (T-X) uroproteindan tashkil topgan, ularda albuminlar tarkibi 50 marta yuqori.

Oqsil T-Xni buyrak kanalchalarining distal epiteliylarida ishlab chiqariladi, ular tashqi membranani qoplaydi, suv tuzlar reabsorbsiyasida ishtirok etadi. Katta miqdorda albumin yoki gemoglobin, mioglobin, Bens-Djons oqsili; kalsiy ionlarining birlamchi siyidikda ortiqcha bo'lishi yoki buyrakda qon oqimining pasayishi T-X oqsil agregatsiyasiga yordam berib, silindr hosil bo'lishiga olib keladi.

Toza oqsilli (gialin, mumsimon) va *hujayraviy silindrler ajratiladi..*

Gialin silindrler – nozik konturli va silliq, yuzasi biroz donador oqsilli hosilalar hisoblanadi.

Gialin silindr lar uchraydi:

- sog'lom odamda degidratatsiyada (kuchli jismoniy zo'riqishda, issiq iqlimda ishlaganda) to'satdan siyidik rN tushganda va nisbiy zichligi ortganda:

- barcha buyrak kasalliklarida, koptokchali proteinuriyada (glomerulonefrit, infektion va allergik faktorlar ta'sirida, yurak faoliyati dekompensatsiyasida);
- homiladorlar nefropatiyasida;
- isitma chikkanda;
- og'ir metal tuzlari bilan zaharlanganda.

Mumsimon silindrlar. Konturlari aniq, gomogen strukturali, sariq rangli bo'ladi. Quyidagilarda xarakterli:

- xar xil genezli nefrotik sindrom
- amiloidoz;
- epithelial kanallarning surunkali shikastlanishi

hujayraviy silindrlarda (epitelial, eritrotsitar va leykotsitar) eritrotsit, leykotsit, epiteliylar yopishib qolgan oqsil asoslari bilan qoplangan .

Epitelial silindrlar uchraydi:

- glomerulonefrit;
- amiloidoz;
- og'ir metallar, salitsilatlar, etilenglikol bilan zaharlanishlarda .

Eritrotsitar silindrlar uchraydi:

• buyrak genezli gematuriyada (glomerulonefrit, buyrak infarkti, buyrak venasi trombozi).

Leykotsitar silindrlar xarakterli:

- Buyrak genezli leykotsituriyada (pielonefrit, yugurigli nefrit).

Donador silindrlar. Konturlari aniq bo'lib, qattiq donador massadan tashkil topgan. Parchalangan eritrotsitlar, leykotsitlar yoki hujayra epiteliylaridan tashkil topgan vaquyidagi holatlarda uchraydi:

- kanalchalarning og'ir degenerativ zararlanishida;
- nefrotik sindromda;
- pielonefritda.

Biroq og'ir buyrak jarayonlarida va yaqqol silindruriya orasida aniq bog'liqlik kuzatilmaydi.

Buyrak silida silindruriya kamdan-kam hollarda kuzatiladi.

Shilliq

oz miqdorda kuzatiladi:

- uretrit, prostatit, sistit, buyrak tosh kasalliklarida

Shilliq miqdori oz bo'lganda silindroid ko'rinishda bo'lib, gialin silindrarga o'xshaydi, lekin ancha uzunroq, konturlari aniq ,ipsimon, buralgan bo'ladi

Bakteriya 1 mlda 50 000dan ko'p emas

Bakteriuriya:

- 1 ml siydkida 50 000 dan ko'p mikrob hujayralarining bo'lishi yallig'lanish jarayoni borligini ko'rsatadi.

Orientirlangan metodda bakteriyalarni aniqlash diagnostik ahamiyatga ega emas. Mikrob tanachalari miqdorini hajmiy birlikda hisoblash va siydkni ekish bilan urosepti va antibiotiklarga mikroflorani sezuvchanligini aniqlash qo'proq ma'lumot beradi

Sil mikobakteriyalari buyrak silida siydk cho'kmasida aniqlanadi.

Lipidlar siydk cho'kmasida surunkali nefrit bilan nefrotik sindromda, diabetda, pielonefritda, xiluriyada kuzatiladi.

Zambrug'lar.Candida avlodi zambrug'i- kandidomikoz qo'zg'atuvchisini aniqlash ko'proq ahamiyatli. Ular antibiotiklarni uzoq qabul qilgandan keyin siydkida ko'p miqdorda paydo bo'lishi mumkin.

Noorganik siydk cho'kmasi amorf va kristal holatdagi tuzlardan tashkil topgan.tuzlar xarakteri siydkning kolloid s holatiga, rN va boshqa tarkibiy qismlariga bog'liq.

Siydikda kislotali reaksiyada aniqlanadi: siydk kislotosi (rombik kristallar, sariq-jigarrang tusda bo'lganda) va uratlar (mayda qo'ng'ir rangli donachalar).

Siydikning ishqoriy reaksiyasida aniqladi: tripel fosfatlar, amorfniye fosfatlar, ammoniy siydk kislotali, kalsiy karbonatlar

Cho'kmada kilotali va ishqoriy siydkda kuzatiladi: shavelkislotali oxak yoki oksalatlar (oktaedr shaklli rangsiz kristallar); neytral fosfatlar (yaltiroq ponasimon xosilalar); ammoniy siydk islotasi(ko'pincha ishqoriy, kislotali siydkda – yangi tug'ilgan chaqaloqlar,ko'krak yoshidagi bolalarda kuzatiladi).

Turg'un kristalluriyada bat afsil tekshirish zarur, bu siydk rN ni, kalsiy, urat, fosatlarning siydk bilan sutkalik ekskretsiyasini tekshirish, siydk kislota, kalsiy, paratiroid gormon plazmatik konsentratsiyasini aniqlashni o'z ichiga oladi.

SIYDIK CHO'KMASINI MIQDORIY USULDA TEKSHIRISH

Miqdoriy usuldan siyidik bilan ajralayotgan leykotsit, eritrotsit va silindrлarni miqdorini aniq tekshirishda foydalaniлади.

Bu buyrak kasallikkлari diagnostikasi uchun muhim, asosan yashirin, surunkali va sust kechuвлarini kechishini dinamik kuzatish va o'tkazilgan davoni nazorat qilish uchun zarur

Opredelenie provoditsya s pomoshyu schetnoy Goryaev kamerasida (0,9 mkl hajmda) yoki Fuks-Rozental (3,2 mklhajmda)da hisoblash yordamida o'tkaziladi.

Addis- Kakovskiy metodi

Sutkalik yig'ilgan siyidikda shaklli elementlar miqdorini aniqlash uchun foydalaniлади

Siyidik yig'masi. Ertalab bemor siyidik pufagini bo'shatadi. So'ng 24 soat davomida bitta idishga siyidik yig'iladi.

Idishda shaklli elementlarning buzilishining oldini olish uchun 4–5 tomchi formalin va 2–3 timol kristalli qo'shiladi, siyidikni muzlatgichda saqlash maqsadga muvofiq.

Siyidik yig'iladigan kuni bemorga go'shtli mahsulotlar bilan suyuqlik qabul qilishni chegaralash buyuriladi, shaklli elementlarni hisoblash uchun siyidik rNi va zichligini doimiy ushslash muhim, ishqoriy muhitda yoki uni zichligi pasayganda shaklli elementlar tez buziladi.

Agar ko'rsatilgan sharoitda siyidik yig'ish imkonи bo'lmasa, 10–12 soatda siyidikni yig'ish mumkin. Siyidikni kechki porsiyasini yig'ish ko'proq ratsional: bemor uyqudan oldin siyidik pufagini bo'shatadi vaqtни belgilaydi, keyin 10–12 soat davomida siyidikni bitta idishga yig'adi. Aniqlash yo'li sekin aralashtiriladi va uni hajmi o'lchanadi.

Tekshirish uchun siyidik qoldig'idan olinib, 12 min (1/5 soat) da quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q = \frac{V}{t \times 5}$$

Q – 12 min ajratilgan siyidik hajmi;

V – tekshirish vaqtida yig'ilgan siyidik hajm (ml);

t – siyidik yig'ish vaqtি

5 – 1/5 soatda qayta sanalgan koeffitsient.

Miqdorini hisoblashda o'lchamli sentrifugali probirkada 3500 ob./minda 3 min davomida yoki 2000 ob./minda 5 min davomida siyidik sentrafugalanadi. Yuqori qavati ajratiladi, qoldiq bilan hammasi 0,5 ml siyidik qoladi. Agar qoldiq 0,5 ml dan oshsa, u holda 1 ml siyidik olinadi. Qoldiq sekin aralashtirilib, hisoblash kamerasiga to'ldiriladi. Siyidik bilan shaklli elementlarning normadagi sutkalik ekskretsiyasi:

eritrotsitlar - 1 000 000gacha

leykotsitlar – 2 000 000 gacha

silindrlar – 20 000 gacha

Nechiporenko Metodi

1 ml siyidikda shaklli elementlar (eritrotsit, leykotsit, silindr) miqdorini aniqlash.

Aniqlash yo'li. Tekshirish uchun bir martalik siyidikni o'rta porsiyasi olinadi (ertalabki siyidikni olish maqsadga muvoviq), rN aniqlanadi (siyidikda xujayra elementlari qisman parchalanganda ishqoriy reaksiya bo'lishi mumkin). 5–10 ml siyidik 3500 ob./minda 3 min davomida sentrafugalanadi.

Qoldiq sekin aralashtirilib, hisoblash kamerasiga to'ldiriladi.

Shaklli elementlar hisoblanadi.

Normada 1ml siyidikda eritrotsitlar –1000, leykotsitlar – 2000–4000

silindrlar- Goryaev kvadrat kamerasida yo'q yoki 1 -4 dan ko'p emas.

Balg'amning umumiy klinik tabhlili

Balg'am (sputum) – nafas yo'llaridan yo'tal bilan ajraladigan patologik sekret. Balg'amni tekshirish nafas organlaridagi patologik jarayon xarakterini va uni yetiologiyasini aniqlashga yordam beradi.

Balg'amni klinik tekshiruv ko'zdan kechirish, miqdorini o'lhash, fizik, ximik tarkibini o'rGANISH,mikroskopik, bakterioskopik va sitologik tekshiruvlarini o'z ichiga oladi.

Material yig'ish qoidalari: balg'amni tekshirish uchun og'iz chayilgandan keyin quruq shisha banka yoki chashka Petriga ertalab(yaxshisi ovqatdan oldin) olinadi. Eski balg'amda saprofit flora ko'payadi, shaklli elementlari buziladi.zarur hollarda balg'am sovuq joyda(xolodilnikda) saqlanadi, lekin 2-3 soatdan ko'p emas. Uzoq

saqlanganda kam chidamli mikroorganizmlar (streptokokk) o'ladi, chirish jarayoni boshlanib, tekshirish natijasi noto'g'ri chiqadi

Balg'amni makroskopik tekshiruv

Balg'amni o'rganish uni ko'zdan kechirishdan boshlanadi (makroskopik tekshiruv) birinchi tiniq bankada keyin Petri chashkada qora va oq fonda joylashtiriladi, uning miqdori, xarakteri,rangi, xidi, konsistensiyasi va boshqalar aniqlanadi

Miqdori

Balg'amning sutkalik miqdori 1 dan 1000 ml gacha va undan ko'p o'zgarib turadi . nafas yo'llari yallig'lanishlarida kam miqdorda bag'am ajraladi :

- laringit, traxeit, o'tkir bronxit;
- xurujsiz bronxial astma ;
- bronxopnevmonii.

Ko'p miqdorda balg'am quyidagilarda ajraladi (0,5 dan 2 l gacha) :

- Bronxoektatik kasallik
- O'pka abssessi
- Ko'pgina gjija kasalliklarida .

Empiema yorilganda balg'am miqdori 4 lgacha yetishi mumkin. Balg'amning sutkalik miqdori ba'zi o'pka kasalliklarida ko'p miqdorda ajralganda aniqlanadi

Bunda balg'amni o'Ichov silindrida joylashtiriladi, 1 soat davomid balg'amtingandan keyin qavtlarga bo'linishi aniqlanadi.

Balg'am rangi

Balg'am rangi tarkibidagi leykotsitlar miqdori va eritrotsitlar aralashmasiga bog'liq . eritrotsitlar aralashmasi gemosedirin xarakteri o'zgarishi qizil, zang rangda o'zgarishi bilan bog'liq.

Balg'am qizg'ish tusli yoki qonli bo'yalishi mumkin.

Malina rangli balg'am rak autolizi yoki o'pkaning boshqa yomon sifatlari hosilalarida

Sariq rangli balg'a umumiy sariqlik va jigar o'pka absesslari yorilganda

Qora rangli balg'am ko'mir changlari kam miqdorda aralashganda bo'ladi.

Jigarrang balg'am (shokolasimon) absessda, bronxoektazda, plevra yempiemasi yorilganda bronx orqali anaerob bakteriyalarinig gemosiderin fermenti ajralishi natijasida kuzatiladi.

Zangsimon balg'am krupoz pnevmaniyada eritrotsitlarning parchalanib gemitinning paydo bo'lishi va alveolalarga kirishi bilan bog'liq

Balg'amning rangi vino, kofe, dori preparatlari va boshqalar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin

Surunkali bronxit, o'pka tuberkulezida balg'am 25–100 ml ajralishi mumkin.

Konsistensiyasi

Balg'am suyuq, cho'ziluvchan, dildiroq, yopishqoq konsistensiyali bo'lishi mumkin. Balg'amning yopishqoqligi tarkibidagi mikroorganizmlar, proteolitik fermentlarni balg'amni parchalash qobiliyati bilan bog'liq. Bronxlarda yallig'lanish jarayoni kuchayganda oqsillar, leykotsitlar, patogen mikroorganizmlar umumiy miqdorini oshishi bilan bir qatorda balg'amning suyulishi kuzatiladi.

Xarakteri:

Seroz, shilliq, shilliq yiring, seroz-yiring, qonli va astmatik balg'am ajratiladi.

Balg'am xarakteri rangini mikroskopik tekshirilganda aniq qo'yiladi.

Shilliqli balg'am odatda rangsiz yoki biroz oq, yopishqoq bo'ladi. O'tkir bronxitda, yuqori nafas yo'llari katarida, bronxial a stma xuruji to'xtaganda kuzatiladi.

Seroz balg'am rangsiz, suyuq, ko'pikli bo'ladi, o'pkaning o'tkir shishida kuzatiladi

Seroz-yiringli balg'am sariq yoki yashil rangli yopishqoq, surunkali bronxit, traxoit, bronxopnevmaniyada hosil bo'ladi.

Toza yiringli bir jinsli, yarimsuyuq, yashil-sariq rangli balg'am o'pka absessi bronxga ochilganda, bronx bo'shilig'iga plevra empiemasi yorilganda kuzatiladi.

Qonli balg'am o'pkadan qon ketganda, (tuberkulez, rak, aktinomikoz), toza qonli, shuningdek aralash xarakterli masalan, balg'am bronxoektazlarda shilliq yiringli qonli chiziqlar bilan, o'pka shishida

seroz-qonli, o'pka infarktida yoki kichik qon aylanish doirasi dimlanishida shilliq-qonli, o'pka absessi va gangrenasida yiring qonli yarim suyuq bo'ladi. Agar qon sekin ajralsa, gemoglobin uni gemosederinga aylanadi va zang rangini beradi, bu krupoz pnevmoniya uchun xarakterli.

Astmatik balg'amda ko'p miqdorda eozinofil granulotsitlar va Sharko-Leyden kristallari bo'ladi.

Qavatlarga bo'linishi:

Quyuq bo'lмаган ко'п ажраладиган касаликларда шиша идішда қаватларга ажралади.

Ikki qavatlari balg'am -yiring va seroz suyuqlik, o'pka absessi uchun xarakterli.

Uch qavatlari balg'am -yiring, seroz, ko'pikli shilliq aralash- діля bronxoektatik касалик, gangrena ба'zida tuberkulezda (kavernada).

Hidi:

Balg'amning xidi ko'pincha bo'lmaydi.

Agar yangi ажралған balg'am bo'lsa, sassiq yoki chirigan hidli bo'ladi yoki, rak hujayralari yemirilganda yoki o'pka gangrenasida bo'lishi mumkin, то'qima parchalanganligidan dalolat beradi. Bo'shliqlarda turib qolganda balg'amdagи oqsillarning parchalanishidan hid bo'lishi mumkin (abscess, bronxoektazlarda, ba'zida tuberkulyozda).

Reaksiya muhiti

Balg'amda reaksiya muxiti odatda ishqoriy. Oshqozon soki aralashganda (qonli qayt qilganda) va parchalanganda u kislotali bo'ladi.

Balg'amda parazitlar patologik elementlar har xil aralashmalar mavjud bo'lганда qora va oq fonda Petri chashkasida ko'ruv o'tkaziladi. Ajralgan elementlarni oddiy ko'z bilan balg'amda aniqlash mumkin:

- Kurshman spirallari zich katta bo'lмаган spiralsimon oq iplar ko'rinishda;
- fibrin laxtalari – oqish va qizg'ish daraxtsimon shoxlangan hosilalar (fibrinoz bronxitda, kamdan kam kru-poz pnevmoniyada);
- Guruchsimon don (yasmiq) – katta bo'lмаган sariq-yashihsimon zich yumaloq, oxaklangan elastik tolalar, xolesterin kristallari,sovundan tashkil topgan, detrix probkalari-shakli va tarkibi

bo'yicha yasmiqqa o'xshash lekin tuberkulyoz mikobakteriyalaridan tashkil topmagan va sassiq hid taratuvchi (gangrenada, surunkali assessda, yiringli bronxitda, bronxoektazda); mikobakteriyalardan tashkil topgan.

Balg'amni mikroskopik tekshirish

Balg'am har doim infeksiyalangan, shuning uchun u bilan muloqotda ehtiyot bo'lish kerak. Shuningdek, sil mikobakteriyalari qiyin buziladi, ularnisil bilan kasallanganlarda va infeksiya manbalarida aniqlash mumkin.

Nativ preparat tayyoralish texnikasi

Balg'am Petri chashkasiga solinib shpatel va igna yordamida yarim tiniq qatlam qolguncha tarqatiladi (igna va shpatel o'ng va chap qo'lda pero ko'rinishida ushlanadi). Balg'amning yarim tiniq qavati oq va qora fonlarda ko'rindi, rangi, konsistensiyasi, shakli bo'yicha farq qilinadigan qismlari ajratib olinadi.

Topilgan hosilalar kesuvchi xaraktlantiruvchi instrument bilan ajratiladi, ajratilgan qismni shikastlamaslikka xarakat qilish kerak. Ajratib olingan material predmet oynasiga o'tkaziladi, bunda konsistensiyasi bo'yicha zichlari preparatning markaziga yaqin roq, zichligi pastlari esa periferiyaga joylashtiriladi. Material oyna bilan yopiladi. Odatda yig'ilgan materialni maksimal ko'rish uchun bitta predmet oynasida ikkita prepart tayyorlanadi. Tayyorlangan balg'am preparatlari to'g'ri tayyorlangan bo'lsa, yopilgan oynadan chiqmaydi. Preparat Kurshman spirallarini ko'rish va birlamchi orientirovka uchun kichik (ob'ektiv x5, okulyar x7)hajmda, shaklli elementlarini ajratish uchun esa katta hajmda ko'rildi

Epiteliy va boshqa hujayra elementlari

Yassi epiteliy – bu og'iz bo'shlig'i, burun-halqum, hiqildoqusti va ovoz boyamlari shilliq qavatidagi epiteliy bo'lib, katta bo'limgan piknotik yadroli va gomogen sitoplazmali yassi ingichka hujayralardan iborat. Barcha balg'am namunalarida aniqlash mumkin.

Asosiy diagnostik ahamiyati yo'q

Silindrik yoki prizmatik hilpillovchi epiteliy har xil shaklda bo'lishi mumkin, asosan ponasimon, kamroq dumaloq, uchburchak, noto'g'ri shaklli, dumaloq yoki oval yadro asosan ekssentrik, hujayraning bazal qismiga yaqinroq joylashadi,

Alovida hujayra nafas yo'llari shikastlanishlarida (bronxit, bronxial astma)barcha balg'amda ko'p miqdorda uchraydi.

Neytrofil granulotsitlar kattaligi oshganda, yumaloq, ba'zida notug'ri shaklda diametri 10–12 mkm donador sitoplazmali va yadroli bo'ladi, bir necha segmentlardan tashkil topgan.

Nafas organlarining turli yallig'lanish jarayonlarida paydo bo'ladi, ko'proq yiringli yallig'lanish, yog'li distrofiya va yemirilishlarda kuzatiladi, shu sababli preparatning ba'zi joylarida donador strukturasiz massa topiladi.

Eozinofil granulotsitlar balg'amda alovida hujayralar, shuningdek guruh va to'da ko'rinishida ham uchraydi. Hujayralar yumaloq shaklli, donador bir xil o'lcham va bixil shaklli bo'ladi.

Nativ preparatda eozinofil leykotsitlarni yirik bir xil donadorligi uchun boshqa hujayralardan oson farqlanadi

Eozinofillarni aniq aniqlash uchun qon surtmali preparat Pappengeym bo'yicha (8–10 minut) bo'yaladi. Ko'p miqdorda eozinofillar balg'amda allergik holatlarda (bronxial astma, eozinofil bronxit) gelmintozlarda (o'pka exinokokkozi).

Eritrotsitlar balg'amda o'pka to'qimasi buzilganda o'zgarmagan holda pnevmoniya, o'pka infarktida va boshqalarda kuzatiladi.

Alveolyar makrofaglar – yirik yumaloq shaklli hujayralar, o'lchami 10 dan 25 mkmgacha (leykotsitlardan 2-3 marta katta) retikuloendotelial hujayralardan kelib chiqqan.

Bo'yagan preparatda sitoplazmasi ko'pikli, och-ko'k rangi, aniq konturga ega.

Alveolyar makrofaglar uchun sitoplazmasida harxil aralashmalar – fagotsitirlangan ko'mir changi, tabachiy pigment, rangsiz mielin donachalari, yog' tomchilari va boshqalar borligi xarakterli.

O'zida gemosiderin yoki eritrotsit saqlovchi alveolyar makrofaglar yoki ы, nazlyvayutsya «yurak porogi hujayralari» yoki siderofaglar deb nomlanadi. «yurak porogi hujayralari» alveolalar bo'shlig'iga eritrotsitlar tushganda kuzatiladi

Bu asosan mitral stenozda kichik qon aylanish doirasida dimlanish bo'lganda, shuningdek o'pka infarkti, qon quyilish va pnevmoniyalarda kuzatiladi.

Bu hujayralarni aniqlash uchun berlin lazur reaksiyasida aniqlanadi, yopilgan oyna olinib, preparat havoda quritilganda, tillarang-

sariq alveolyar fagotsitlarlar aniqlanadi. Preparatga 1–2 tomchi 5% sariq qon tuzi eritmasi va 2–3 minutdan keyin 1–2 tomchi 3% steklom quyiladi va kattalashdirib o'rganiladi.

Gematosiderin donachalari bo'lganda ko'k ranga bo'yaladi.

Yog'li distrofiya yoki lipofag hujayralari turli o'lchamda, yumaloq shaklda,sitoplazmasi yog' tomchilar bilan to'lgan bo'ladi.

Pnevmoniyaning boshlang'ich bosqichlarida, qon aralash shilliq balg'am bo'lganda bu xujayralar to'planishi xarakterli

Alveolyar makrofaglar barcha balg'amda kam miqdorda bo'ladi, biroq surunkali yallig'lanish kasalliklarida ko'proq bo'ladi.Alveolyar makrofaglarning funksiyasi har xil:hujayra va gumoral immunitet reaksiyalarda, lizosomal fermentlar, prostaglandin, interferon, siklik nukleotidlard, bir qancha komplement komponentlari va boshqa moddalar sekretsiyasida qatnashadi, limfosit, fibroblast va boshqa hujayra elementlarini faollashishiga va qayta ishlab chiqarilishiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega .

Yomon sifatli o'sma hujayralari balg'amda kam uchraydi, asosan o'smaning endobronzial o'sishi va parchalanishida kuzatiladi.

Nativ preparatda bu hujayralar o'zining atipizmi bilan: katta o'lchamda, har xil majruh shaklli, yirik yadroligi bilan ajralib turadi.

Bronxlar surunkali yallig'lanish jarayonlarida metaplaziyalangan epiteliy bilan qoplanganda atipik xususiyatga ega bo'lib, o'sma hujayralardan kam farqlanadi.

Shuning uchun o'sma hujayralarni faqat atipik komplekslar ko'ringanda shu bilan birga polimorf hujayralar , asosan tolalar asosida yoki elastik tolalar bilan birga joylashganda aniqlanadi.

Tolali hosilalar, elastik tolalar

Elastik tolalar biriktiruvchi to'qima elementlari bo'lib,balg'amda o'pka to'qimasi yemirilganda paydo bo'ladi: o'pka tuberkulezi, raki, abscess, gangrena va exinokokkozda.

Elastik tolalar ingichka yaltiroq, ikki konturli, o'tkir tolalar shaklida, kengligi bir xil. Ularni balg'amni har tomchisida aniqlab bo'lmaydi, oson topish uchun ularni konsentratsiyalash va bo'yash usullari qo'llaniladi, bunda elastik tolalar saqlanib qolib, och qizil rangda ajralib turadi.

Korallsimon tolalar yog‘ kislota tuzlari bilan qoplangan elastik tolalar. Bu tolarni balg‘amda aniqlanishi sil kavernasi borligidan dalolat beradi.

Oxakli elastik tolalar – dag‘al, kalsiy tuzlari bilan to‘yingan, tayoqchasimon hosilalar.

Sil o‘chog‘i parchalanganda balg‘amda aniqlanadi.

Fibrin to‘rsimon joylashgan paralle ingichka tolalardan iborat. Balg‘amda fibrinlar ko‘pincha yallig‘lanish jarayonlarida (fibrinoz bronxit, tuberkulez, aktinomikoz, krupoz pnevmoniya) kuzatiladi.

Kurshman spirallari shilliq har xil o‘lchamdag‘i hosilalar. Kurshman spirallari mikroskopik shilliq spiralsimon yumoloqlashgan leykotsitlar va Sharko-Leyden kristallaridan tashkil topgan..

Kurshman spirallari ko‘pincha bronxial astmada, shuningdek boshqa patalogik jarayonlarda (har xil bronxitlar, pnevmoniya, absesse, o‘pka raki), obstruktiv komponentlarda kuzatiladi.

Kristal hosilalar

Sharko-Leyden kristallari har xil o‘lchamdag‘i rangsiz, oktaedr shaklda bo‘lib, kompas strelkasini eslatadi. Ular eozinofillar parchalanganda oqsil mahsulotlaridan hosil bo‘ladi, shuning uchun yangi ajralgan balg‘amda har doim ham aniqlanmaydi.

Bronxial astma, eozinofil bronxit, o‘paning gelmintlar bilan zaralanishida bu kristallar xarakterli hisoblanadi.

Gematoidin kristallari nekrotik to‘qimalarda qon quyilganda uchraydi (gemoglobinning kislorodsiz muhitda parchalanishidan). Bu o‘tkir uchli rombsimon kristallar sarg‘ish rangda. Absessda ba’zida o‘pka gangrenasida balg‘amda topiladi.

Xolesterin kristallari rangsiz, to‘g‘ri burchakli ko‘rinishda bo‘ladi, yopiq bo‘shliqlarda (abscess, tuberkulez, exinokokkoz) yog‘ning parchalanishi natijasida hosil bo‘ladi.

Yog‘ kislota kristallari – bo‘shliqlarda balg‘amning turib qolishi natijasida (tuberkulez, abscess, bronxoektaz) yuzaga keladi.

Zamburug‘ va parazitlar

Aktinomitset druzalari (nur zambrug‘lari) makroskopik mayda, zinch, sariq don ko‘rinishidabo‘ladi. Markaziy to‘plamdan nur ko‘rinishida tarqalgan, uchlari kolbachasimon kengaygan ipchalari bor tuzilma. Gram usulida bo‘ysalsa ipchalar binafsha rangda, qavariqlariesa pushti rangga bo‘yaladi.

O'pka aktinomikozida balg'amning nativ preparatida aktinomits set druzlaridan tashqari yirik ksantom hujayralar ham ba'zida ko'p miqdorda aniqlanadi. Shuning uchun bu hujayralar bo'lganda aktinomits set druzlarini izlash zarur.

Candida avlodiga mansub achitqi zambrug'i – kurtaklangan hujayralar va qiska kurtakli psevdomitseliy tolalardir (hujayra yumaloq yoki oval shaklda, psevdomitseliy – bo'g'imli, shoxlangan, mutovkalarda joylashgan sporalar). Juda kuchsiz bemorlarda antibiotiklar bilan uzoq davolanganda uchraydi.

Exinokokk elementlari balg'ama o'pka exinokokkozida aniqlanadi. Tekshirilganda mayda pufaklar, pufak xitin qavati qismlari, shuningdek exinokokk ilgaklari aniqlanadi. O'pka exinokokkozida balg'ama shuningdek hujayralar, xolesterin kristallarini aniqlash mumkin.

Balg'ama shuningdek askarida lichinkalari, pnevmotsist tuxumlari, trixomonadalarni ham aniqlash mumkin.

Bakteriyalar

Bo'yagan surtmada aniqlanadi.

- Sil mikobakteriyalarii – o'pka tuberkulezida
- Pnevmonokoklar – shilliq-qonli balg'ama krupoz pnevmoniyada va surunkali bronxitda
- streptokokki i stafilokokki – o'pka absessida yiringli balg'ama, bronxoektazda, bronxitda va pnevmoniyada;
- Fridlender diplobatsillalari – pnevmonyalarda.

ICHAK DISBAKTERIOZI

Odam teri va shilliq qavatlari mikroorganizmlarning yuzlab turlari yashaydi.

Barcha mikroblarning 60% dan ko'pi oshqozon ichak traktiga, qolganlari nafas va siyidik ayirish sistemasiga kiradi. mikroorganizmlar oshqozon ichak traktida yashaydi odam uchun juda muxim. Ular ichki organlarning shilliq qavatini qoplagan, infekzion kasalliklar rivojlanishi va kasallik chaqiruvchi bakteriyalar kirishiga to'sqinlik qiladi. Ovqat komponentlaring so'riliши va hazm bo'lishi jarayonlarida, mikro va makroelementlarda ishtirok etadi, yana ularning o'zi vitamin va biologik aktiv moddalar ishlab chiqaradi. Normal mikroflora odam immunitetini ushlab turadi, u immunokomponent hujayralarni stimulyasiya qiladi va

ovqat allergiyasi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ichak mikroorganizmlari «qirolligi» tarkibi bir xil emas: bu yerda odam uchun zarur foydali bifidobakteriya, laktobakteriya, ichak tayoqchalar, , bakteriodlar, «neytral» bakteriyalar yashaydi, organizm uchun foya ham keltirmaydigan,uzoq vaqt bir joyda yashamaydigan peptostreptokokk, klostridi, stafillakokk, protey, klebsiella, veylonella, «yomon» mikroorganizmlar zarar keltirish qobiliyatiga ega.

Ichak disbakteriozi- bu foydali bakteriyalar miqdorining kamayishi ammo «neytral» va «yomon» - larning ko'payishi hisoblanadi.

Bu o'zgarishlar vaqtincha bo'ladi: foydali mikroorganizmlar o'zi muvozanatni tiklaydi. Agar bu holat o'tmasa ichak mikroflorasini qandaydir dori preparatlari bilan tiklash kerak.

Ichak disbakteriozi sabablari

Bolani ichani boshida steril bo'ladi. Tug'ruq paytida onaning tug'ruq yo'llari orqali ichak mikroorganizmlarining kirib borishi boshlnadi.

Bola tashqi muhitga tushgach, havoda yashaydigan, tibbiyot xodimi qo'lidagi, ona tanasidagi, kiyimdagagi katta miqdordagi bakteriyalar bilan tanishadi. Dastlab mikroflora har xil organizmlardan tashkil topgan bo'lib, ba'zan ichak qismlarida bo'lmaydi, lekin astasekin ona suti tarkibidagi maxsus o'suvchi faktorlar ta'sirida normalga almashinadi.

Shuning uchun bolani tug'ruqdan keyin ko'krakka vaqtli qo'yish va ko'krak bilan oziqlantirishni uzoqroq ushlab turish muhim.

Chaqaloqlarda ichak disbakteriozi bola yoki emizikli onaning antibiotiklar qabul qilishi, ko'krakka kech qo'yilishi yoki umuman ko'krak bilan oziqlantirmaslik, bola MNSni gipoksicheski-ishemik zararlanishi, yana ona organizmida hamroh disbiotk o'zgarishlar sababli rivojlanishi mumkin.

Katta yoshdagagi bolalarda ichak disbakteriozi sababi noratsional ovqatlanish, stress,.Ovqat xazm qilish a'zolari kasalliklarida najasni tekshirish katta ahamiyatga ega. Najasni klinik tekshirish (koprogramma) ichak, oshqozon osti bezi, o't yo'llari va qolaversa oshqozon kasalliklarini tashxislashda muhimdir (Mosbi, 2013.).Keng spektrli antibiotiklar yoki har xil farmakologik preparatlar sabab bo'ladi.

Ichak disbakteriozi belgilari

Ichak disbakteriozi asosiy belgilari qanday?

Ichak trakti tomonidan- bu sezilarli miqdorda hazm bo'lmagan dumaloq axlat massalari bo'lishi, axlatning sassiq xidliligi, sassiq yiringli hid ajralishining oshishi, qorinda og'riq ,quldirash, taranglashishi, kuchanish, ishtaha pasyishi ko'p quşish.

Ichak disbakteriozi bolada tana massasining qo'shishini kamayishiga va hattoki tana massasining yo'qotishiga olib keladi. Bolaning tashqi ko'rinishi ichki organlarning holatidan darak beradi:bola rangpar ko'rindi, terisi quruq qipiqlanganbo'ladi, og'iz burchaklarida yoriqlar paydo bo'ladi. Bolani qichishish bezovta qiladi va terisida allergik toshmalr toshadi, ba'zan toshmalar shilliq qavatlarda paydo bo'ladi, stomatit rivojlanadi

Bola ko'p shamollaydi, ichak infeksiyalarin "ushlab oladi".

Ichak disbakteriozini davolash kompleks bo'ladi va uzoq vaqt davom etadi.

Davoning birinchi etapida keraksiz mikroorganizmlardan butunlay xalos bo'lish yoki miqdorini kamaytirish. Buning uchun maxsus bakteriofaglar ichak antiseptiklaridan foydalilanadi. Og'ir holatlarda boshqa moddalarning effekti bo'lmaganda antibiotiklar buyurish mumkin. Antimikrob terapiya bilan birga sorbentlar qo'llaniladi, qaysiki ichak bo'shilg'ida joylashgan keraksiz bakteriyalarni chiqaradi va bog'laydi. Bolaga ovqatlarni so'riliishi va hazm qilishini yengillatish uchun ferment preparatlari buyuriladi. Ichakni katta miqdordagi keraksiz mikroorganzmladan tozalagandan so'ng normal mikroflora bilan boyitish boshlanadi. Normal mikroflora funksiyasini bajaradigan va foydali mikroorganizmlar o'sishi uchun sharoit yaratadigan maxsus preparatlar bor.

Ichak disbakteriozi diagnostikasi uchun qo'llaniladi:

- koprogramma – ovqat komponentlarini ichakda hazm bo'lish darajasini, yana yallig'lanish belgilari bor yoki yo'qligini ko'rsatadi;
- shartli patogen floraga axlat posev analizi, normal flora ko'rsatkichi hisoblanmaydigan «neytral» bakteriyalar darajasini ko'rsatadi;
